O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

**ELOV MIRSHOD**

# ASHULACHILAR ANSAMBLI

**5151600 – Xalq ijodiyoti (Ashula va raqs) bakalavr ta’lim yo‘nalishlari uchun**

**O‘QUV QO‘LLANMA**

**Toshkent - 2019**

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi "Musiqa ta’limi" yo‘nalishlari hamda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti 5151600-Xalq ijodiyoti (ashula va raqs) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun "Ashulachilar ansambli" fanidan foydalanish uchun mo‘ljallangan.

O‘quv qo‘llanma uch bobdan iborat bo‘lib, birinchi bobda ashulachilar ansambli fanining maqsad va vazifalari, amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar, ashulachilar ansambli fanidan mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar, ikkinchi bobda o‘zbek ashulachilik maktabining paydo bo‘lish tarixi, ashula va mumtoz ashula ijrochiligi, ashula, katta ashula, uchinchi bobda o‘zbek mumtoz ashulachilik san’ati darg‘alari, ashulachilar ansamblida xonandalik bo‘yicha kuylash malakalarini shakllantirish, ashulachilar ansambli mashg‘ulotlarida ovoz ustida ishlash, ashulachilar ansambli ijrochiligida nafas olish uslublari va amaliy mashg‘ulotlarda kuylash uchun maqom sho‘balari, o‘tmish bastakorlari ijodidan mumtoz ashulalar(sibelius dasturidan notalar) taqdim etilgan.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat intsituti Kengashi nashrga tavsiya etgan bayon 2018 yil "___"№ ________

**Mas’ul muharrir:**

**Davron Qodirov -** Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi a’lochisi

**Taqrizchilar:**

**M.Tojiboyev -** O‘zbekiston davlat konservatoriyasining professori, O‘zbekiston xalq hofizi

**B.Do‘stmurodov -** O‘zbekiston san’at va madaniyat instituti Milliy qo‘shiqchiligi kafedrasi dotsenti, O‘zbekiston xalq hofizi.

## MUNDARIJA

So‘zboshi ....................................................................................................13
I –BOB. Ashulachilar ansambli fanining maqsad va vazifalari………...............16
1. 1. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar..............................17
1.2. An’anaviy ashulachilik san’ati “Hofiz” lik haqida..........................................21
**II-BOB.** O‘zbek ashulachilik maktabining paydo bo‘lish tarixi..............................24
2.1.Ashula va mumtoz ashula ijrochiligi. Ashula...............................................39
2.2. Katta ashula...................................................................................................42
III-BOB. O‘zbek mumtoz ashulachilik san’ati darg‘alari
1.Ota Jalol Nosirov.............................................................................................47
2.Hoji Abdulaziz Abdurasulov...........................................................................49
3.Madali hofiz Rahmatullo o‘g‘li.......................................................................50
4.Toshmuhamedov To‘ychi hofiz.......................................................................51
5.Domla Halim Ibodov.......................................................................................52
6.Muhiddin qori Yoqubov..................................................................................54
7.Lutfixon aya Sarimsoqova...............................................................................56
8.Yunus Rajabiy..................................................................................................58
9.Jo‘raxon Sultonov............................................................................................60
10.Ma’murjon Uzoqov........................................................................................62
11.Halima Nosirova.............................................................................................63
12.Mavluda A’zamova.........................................................................................65
13.Mukarrama Azizova........................................................................................66
14.Fotima Boruxova.............................................................................................67
15.Komiljon Otaniyozov......................................................................................68
16.Zaynab Polvonova...........................................................................................69
17.Berta Davidova................................................................................................70
18.Fattohxon Mamadaliyev..................................................................................71
19.Matniyoz Yusupov...........................................................................................73
20.Saodat Qobulova.............................................................................................74
21.Tavakkal Qodirov............................................................................................76

22.Farog‘at Rahmatova..........................................................................78
23.Orifxon Hotamov..............................................................................79
24.Rahimaxonim Mazohidova..................................................................81
25.Hadiya Yusupova..............................................................................82
26.Habiba Oxunova................................................................................83
27.Kamoliddin Rahimov..........................................................................84
3.1.Ashulachilar ansamblida xonandalik bo‘yicha kuylash malakalarini shakllantirish ..........................................................................................85
3.2.Ashulachilar ansamblida kuylash mahoratini shakllantirish uchun uslubiy tavsiyalar..........................................................................................90
3.3. Ashulachilar ansambli mashg‘ulotlarida ovoz ustida ishlash........... ........94
3.4. Ashula matni va ijro mahorati ustida ishlash...........................................95
3.5. Ashulachilar ansambli ijrochiligida nafas olish uslublari ..........................102
Toshkent irog‘i.........................................................................................103
Ushshoq...................................................................................................104
3.6 Qo‘qon ushshog‘i....................................................................................110
Nasrulloyi.................................................................................................112
Feruz........................................................................................................116
Farg‘onacha jonon.....................................................................................119
Sarahbori oromijon....................................................................................122
Munojot....................................................................................................125
Fig‘on.......................................................................................................129
Galdir.......................................................................................................132
Dugoh Husayn IV......................................................................................134
Dilxiroj.....................................................................................................138
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati..............................................................152
Mundarija.................................................................................................154

# KIRISH

Bugungi kunda milliy ashulachilik maktabi istiqboli haqida gap borar ekan, bu buyuk ma'naviy qadriyatimiz bo'lmish musiqa merosimizni ta'lim-tarbiya tizimida o'rganish va uni tiklash eng zarur vazifamizdir. Chunki IX asr buyuk faylasufi Al-Kindiyning ta'biri bilan aytganda «Ajdodlar merosini o'rganish – avlodlar aqliga jon baxsh etuvchi bir obi-hayotdir»[1].

Hozirgi kunda musiqa ta'limi yo'nalishi mavjud bo'lgan barcha oliy o'quv yurtlarida "An'anaviy va xalq qo'shiqchiligi","Maqom asoslari", "An'anaviy xonandalik", "Mumtoz qo'shiqchilik" kabi fanlardan talabalarga o'zbek xalqining bebaho merosi bo'lgan maqomlar, mumtoz ashula, katta ashula va xalq qo'shiqlarini kuylash malakalarini shakllantirish bo'yicha amaliy hamda nazariy bilimlar berib kelinmoqda.[2]

O'zbekiston san'at va madaniyat instituti Milliy qo'shiqchilik kafedrasida talabalar "Ashulachilar ansambli"(An'anaviy xonandalik) fanidan guruhli tarzda amaliy mashg'ulotlar o'tkazib keladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 17- noyabr kuni imzolagan **"O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi Qarori mamlakatimizda an'anaviy san'atimiz hisoblangan maqom ijrochiligiga bo'lgan e'tiborning yuksak namunasidir[3].

Mazkur qarorda "Ayni vaqtda milliy o'zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimizni yuksak insoniy tuyg'ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san'atining keng imkoniyatlaridan etarlicha foydalanilmayapti.

Mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, maqom san'atini radio-televideniye, ommaviy axborot vositalari, internet tarmog'i orqali mamlakatimizda va chet ellarda targ'ib etish, maqom ustozlari, soha olimlari va mutaxassislari, iqtidorli va istiqbolli yosh ijrochilar faoliyatini moddiy

---

[1] http://naurok.mpedagog.ru/musia-madaniyati-darslarida-uvchilarga-maomlar-haida-tushunchalar-berib-borish-mavzusida-metodik-tavsiyalar-shar.html.

[2] Qodirov.D.Qobilova.D. An'anaviy ashula ijrochiligi.Uslubiy qo'llanma.TDPU.2018 yil.

[3] Mirziyoyev.Sh.M."«O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.2017 yil.17 noyabr.

va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ishlari e’tibordan chetda qolib kelmoqda. Yuqorida zikr etilgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish, o‘zbek maqom san’atini chuqur o‘rganib, o‘ziga xos ijro maktablari va an’analarni yangi bosqichda ravnaq toptirish, uning “oltin fondi”ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish va keng targ‘ib qilish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining davlat muassasasi shaklida O‘zbek milliy maqom san’ati markazi (keyingi o‘rinlarda – Maqom markazi) faoliyatini tashkil etish haqidagi taklifi ma’qullansin.

2.Quyidagilar:

-O‘zbekistonda maqom san’atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablar va an’analarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o‘rganish va qayta tiklash;

- O‘zbek maqom san’ati mumtoz va zamonaviy ijro namunalarining “oltin fondi”ni yaratish;

-Xalqimiz, xususan, yosh avlodni maqom san’ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish;

-Mumtoz musiqa merosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish, maqom san’atining ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ilmiy-nazariy negizlari, milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlarini yurtimiz olimlari va chet ellik mutaxassislar ishtirokida chuqur o‘rganib, yangi ilmiy tadqiqotlar yaratish;

-Maqom san’atining ko‘p asrlik ijro yo‘llarini puxta o‘zlashtirib, ularni yangicha usullar bilan boyitib, yosh avlod vakillariga o‘rgatib kelayotgan maqomchilar, maqomshunos ilmiy-pedagog olimlar va mutaxassislar, Maqom markazi xodimlari faoliyatini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;

-Yurtimizda maqom san’ati bo‘yicha xorijiy etuk ijrochilarning o‘zaro tajriba

almashuvi, mahorat darslari hamda turli xalqaro maqom anjumanlari va tanlovlarini tashkil etish;

4. Madaniyat vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Moliya vazirligiga:

-O‘zbekiston davlat konservatoriyasining Musiqiy sharqshunoslik kafedrasi negizida “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasini tashkil etish, viloyatlardagi pedagogik oliy ta’lim muassasalarining musiqiy ta’lim yo‘nalishida maqom san’atini maxsus fan sifatida o‘qitishni joriy etish;

-Mazkur ta’lim muassasalariga malakali mutaxassislar, professor-o‘qituvchilarni jalb etish, ular uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, tegishli darslik, o‘quv qo‘llanma va ilmiy-uslubiy adabiyotlar bilan ta’minlash;

-Maqom san’atining ijodiy, ilmiy-uslubiy va ijro an’analarini puxta o‘zlashtirish va munosib davom ettirish maqsadida, ta’lim muassasalariga mohir maqomchi san’atkorlarni biriktirish va shu asosda “ustoz-shogird” maktablarini tashkil etish vazifasi topshirilsin”, -deb ta’kidlab o‘tilgan.

Prezident Qarorida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, universitetda musiqa ta’limi yo‘nalishi o‘quv rejasiga ikkinchi yarim yillikdan boshlab “qo‘shimcha fanlar” blokiga “Maqom san’ati” fani kiritildi.

Mazkur sohaga davlatimiz tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar, fanlarni o‘qitishga ajratilayotgan soatlar, yoshlarimiz iste’dodini va iqtidorini qo‘llab-quvvatlash, ular iqtidorini xalqaro festival va tanlovlarda, respublikada o‘tkazilayotgan ko‘rik-tanlovlarda, ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ib qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni og‘ishmay amalga oshirishimiz zarur va muhimdir. Ashulachilar ansambli fanining ham ana shu vazifalarni amalga oshirishga bo‘lgan beminnat xizmati katta. Fan orqali talabalar ashula ijrochiligi maktabi bo‘yicha avval nazariy bilimlar bilan qurollantiriladi, so‘ngra amaliy mashg‘ulotlar orqali kuylash bo‘yicha ijro mahoratlari, malakalari shakllantiriladi.

Mazkur fandan o‘quv adabiyotlar – darslik, o‘quv qo‘llanma va uslubiy tavsiyalar yaratish oldimizdagi dolzarb vazifalardan sanalganligi bois, barcha ijodiy-ilmiy salohiyat va imkoniyatlarimizni ishga solib “Ashulachilar ansambli” fanidan

barcha talablarga javob bera oladigan adabiyot (o‘quv qo‘llanma) yaratishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

# I –BOB. Ashulachilar ansambli fanining maqsad va vazifalari

O‘zbek ashulachilik maktabi ijrochiligi ko‘pmingyillik tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Bu sohada nomi ellarga mashhur va ma’lum bo‘lgan zabardast hofiz va xonandalar etishib chiqdilar. Ashulachilik san’ati an’analari avloddan-avlodga, ustozlardan shogirdga o‘tib yashab kelmoqda. Xonandalik kasbi bilan yakka tarzda shug‘ullanib elga tanilgan ustozlar shogirdlar tayyorlashga katta ahamiyat berib, bu mashg‘ulotlarni ayrim hollarda yakka tarzda, ayrim holatlarda esa guruhli tarzda tashkil qilib, ko‘plab iqtidorli yoshlarni etishtirib berdilar. Ular: Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To‘ychi hofiz, Yu.Rajabiy va ko‘plab ustozlar yoshlarga ijrochi lik sir- asrorlarini o‘rgatib borganlar.



Hoji Abdulaziz Abdurasulov (o‘rtada) shogirdlari davrasida. 1928- yil, Samarqand

Yoshlarga ashulachilik san’ati malakalarini o‘rgatishning bu shakli mamlakatimizda ashulachilar ansamblining shakllanishiga zamin bo‘ldi.

Hozirgi vaqtda respublikamizda ko‘plab musiqaga ixtisoslashgan oliy o‘quv yurtlarida ashulachilik san’atiga katta e’tibor berib kelinmoqda. Jumladan ashulachilar ansambli faoliyatini tashkil qilish, yoshlarimizni ushbu murakkab san’at turi bilan yaqindan tanishtirish, maqomlarimiz, mumtoz ashulachilik, katta ashula janrlarini yosh iqtidor egalariga o‘rgatish, ashulachilar ansambllarini tashkil etish uslubiyoti haqidagi nazariy va amaliy bilimlarni ularga singdirish oldimizda turgan sharafli vazifalardan hisoblanadi.

“Ansambl” so‘zi - fransuzcha ensemble — birlik, uyg‘unlik, ohangdoshlik ma’nosini anglatib, musiqada a) ma’lum musiqa asarlarining bir necha xonanda va sozandalar tomonidan birgalikda ijro etilishi; b) sozanda va ashulachilarning kichikroq to‘dasiga mo‘ljallangan musiqa asari. Ijrochilar soniga qarab ansambllar

duet (2 kishi), trio yoki terset (3 kishi), kvartet (4 kishi), kvintet (5 kishi), sekstet (6 kishi), septet (7 kishi), oktet (8 kishi), nonet (9 kishi) va hokazolarga bo‘linadi[4].

Respublikamizda milliy musiqiy meros, mumtoz ashulalarni yanada mukammal chuqur o‘rganish, ashula va raqs ansambli tashkilotchisi mutaxassislarini tayyorlashga ehtiyoj katta.

Fanning maqsadi – xalq xonandalik merosini chuqur o‘rganib, ashulachilar ansambliga moslashtirish, jamoaviy ijro ko‘nikmalarini egallash, ovoz turlarini ajrata olish va his qilish, uning ijro uslublari, mumtoz ashulalarning shaklan tuzilishi, usul sanoqlari, usul o‘lchovi, milliy bezaklarning o‘ziga xos ijro yo‘llarini o‘rganish hamda guruhli ijrochilikning tarixiy xususiyatlarini o‘rganish, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Farg‘ona-Toshkent guruhli ijrochiligining o‘rni va ahamiyati, musiqa xususiyatlari, janr qonuniyatlari hamda ijro an’analarini imkon qadar to‘liq holda yoritishdan iborat[5].

Fanni o‘rganishda mutaxassislardan tashkilotchilik faoliyatida ansambl ish faoliyati natijalarini baholash va nazorat qilish, ansambl ijrochilik faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlarini aniq belgilab olish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iboratdir.

Fanning vazifasi – guruhli ijrochilikga doir turli davrlarda yaratilgan adabiyotlarni tahlil va tavsif etish. Guruhli ijrochilikning tarixiy jihatlarini o‘rganish, ularga aloqador manbalarni hozirgi ko‘rinishlari bilan taqqoslash orqali farqli jihatlarini ko‘rsata bilish.

## 1. 1. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Izoh: Amaliy mashg‘ulotlarning tarkibiy qismiga kiritilgan mavzular alohida holda bitta mashg‘ulot ko‘rinishida o‘tkazilmaydi. Aksincha, har bitta semestrda ijro etilishi rejalashtirilgan asarlarni o‘zlashtirish davrida kompleks tarzda qo‘llaniladi va ijro etilayotgan asarning har tomonlama mukammal o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi.

“Ashulachilar ansambli” fani bo‘yicha har semestrda kamida 4 ta musiqiy asar o‘zlashtiriladi. Ashulachilar ansamblida ijro etiladigan asarlar asosan xalq qo‘shiqlari va ashulalari, mumtoz qo‘shiq va ashulalar, o‘zbek bastakorlari asarlari, o‘zbek maqomlarining nasr qismidan namunalar bo‘ladi. Ashulachilar ansambli repertuaridagi asarlar – ashulachilar ansambli uchun, erkaklar ovozi, ayollar ovozi, yakkaxon xonanda va ashulachilar ansambli uchun bo‘lishi mumkin.

**1-modul. Jamoa ijrochiligining nazariy asoslari va o‘ziga xosligi -** borasidagi ma’lumotlar ashulachilar ansambli o‘qituvchisi tomonidan og‘zaki tarzda etkazilib, bunda ashulachilar ansamblining turlari, ularning tarkibi, boshqa ashulachilar ansambli va xor jamoalari bilan taqqoslash, ijro etiladigan asarlarning so‘zlari va nota matnlari, ansamblda xonanda va sozandalarning joylashish holati,

[4] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2000, 1-jild.
[5] O.Safarov, M.Mamirov, A.Haydarov. “Ashulachilar ansambli fan dasturi” - 2018.

ularning tasnifi va o‘ziga xos xususiyatlari, respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan professional va havaskor jamoalar, ularning tarkibi va ijro uslublaridagi farq kabi masalalar yoritiladi.

**2-modul. Yakka va jamoa ijrochiligining o‘zaro uyg‘unligi hamda o‘zaro ta’siri -** borasidagi ma’lumotlar og‘zaki tarzda etkazilish qatorida amaliy ijro davrida ham sinab ko‘riladi. Bunda o‘qituvchi ansambl tarkibidagi har bitta xonanda - talabadan unga tegishli asarning so‘zini bo‘g‘inlarda ohanglarga mosligini ijro ettirishi, keyin boshqalarning shu jumlani birgalikda ijro etishini talab qilishi orqali yakka ijro bilan guruhli ijroning farqi amaliy tahlil etilishiga erishiladi. Guruhli ijro davrida har bitta xonandaning o‘z ijrosini umumiy ijroga bo‘ysundirish, shu bilan bir qatorda, ijro qilish ko‘nikmalari malakalari tarbiyalanadi.

**3-modul. Musiqiy tovush sozi va sofligi**ga erishish uchun birinchi navbatda sozandalar cholg‘ulari sozlanadi. Bunda sozandalar ansamblidagi chang yoki nay cholg‘ulariga qarab cholg‘ular sozlanadi va tekshirib ko‘riladi.

**4-modul. Jamoa ijrochiligida tovush hosil qilish, intonatsiya va diksiya -** xonandalarga turli tovush birikmalarini qalam tiliga yaqin holda kuylatish. Bunda lablar, til harakatlari faolligiga, ularning to‘g‘ri yo‘naltirilishiga erishish lozim. Jamoa ijrochiligida matnni to‘g‘ri talaffuz etilishi muhimdir. Mashg‘ulotlarda matndagi so‘zlarning har bir bo‘g‘ini, har bir harfi, umuman, so‘zlarning ravon va aniq talaffuziga erishish talab qilinadi. So‘zlarni aytish jarayonida ovoz shakllantirish a’zolarining holatiga ko‘proq vaqt ajratish talab etiladi.

**5-modul. Ijro mahoratini oshirish usullari** - Ijro mahoratini o‘stiruvchi mashqlarni tavsiya qilish, asarlarda uchraydigan diapazon jihatdan va nola qilish jihatdan murakkab joylarni o‘zlashtirishni soddalashtirish, shuningdek, asarning tonalligida mashqlar qilish og‘iz bo‘shliqlarini ijro holatiga tayyorlash, tinimsiz ijro mahoratini o‘stirish maqsadida mashqlar qilish lozim. Avval asarni to‘liq ovozda emas, balki falset ovozda ijro qilish tavsiya etiladi. Bunda, har bitta talaba xonandaning ovoz imkoniyatidan kelib chiqqan holda, alohida vazifalar berilishi mumkin.

**6-modul. Musiqiy jumla, tovush qator va dinamik belgilar** - ijro etilayotgan asarlarni xona va bozgo‘ylar orqali shakli aniqlanadi va har xonani alohida, keyin bozgo‘ylarni qo‘shish orqali musiqiy jumla hosil qilinadi. Ushbu xona va bozgo‘ylar ashulaning rivojlanishiga qarab yigit va qizlar ovoziga taqsimlanadi. Ijro vaqtida forte, piano, metsso forte, metsso piano, pianissimo, fortissimo, sforsando, subito piano, kreshendo va diminuendo kabi dinamik belgilarga rioya qilish talab etiladi. Bunda sozandalar ansambli bilan birgalikda ashulachilar ansambli yoki yakkaxonlarning ovoz nyuansi o‘qituvchi tomonidan boshqariladi.

**7-modul. Erkaklar ovozi ansambli, ayol xonandalar ansambli, aralash ashula ansambllari – e**rkaklar ovozi uchun yozilgan va diapazoni jihatidan bas, tenor, alt ovozlari xos asarlar hamda jumlalar kuylanadi. Ayol xonandalar ansamblida o‘ziga xos asarlar kuylanadi. Bunda asardagi so‘zning ma’nosi, ovoz diapazoni va ovoz templarining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda shakllanadi. Aralash ashulachilar ansamblida asosan yigit va qizlarning to‘liq ijro va yakkanavozlar hamda hamnafaslarning ijrosi ko‘zda tutiladi.

**8-modul. Guruhli ijroda cholg‘uchilar ansambli bilan uyg‘unlik –** ashulachilar ansamblida guruhlarga bo‘linib ishlash mumkin. Bunda mashg‘ulotlar umumiy holda bo‘lib, yigitlar ovozi va qizlar ovozi hamda yakkanavozlarga bo‘linadi. Ovozlarning taqsimlanishiga ko‘ra cholg‘uchilar ansambli bilan birgalikda yigitlar yoki qizlar ovozini alohida ishlab ular o‘rtasidagi uyg‘unlik aniqlanadi.

**9-modul. Ovoz sozlash mashqlari –** tanlangan asarning tonalligidan kelib chiqqan holda ovozlar sozlanadi. Unda asarda uchraydigan musiqiy bezaklar: molish, nolish, titrama qochirimlarga mos ravishda ovoz imkoniyatlaridan foydalanish va to‘g‘ri sadolantirish tushuniladi.

**10-modul. Ovozlarni imkoniyatlariga ko‘ra turlarga ajratish –** talabalarning ovoz imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ular bas, bariton, tenor, alt, metso soprano, soprano ovozlariga ajratiladi. Shuningdek, ovozlarga asarlardagi ijro etiladigan ohanglar talabalarning ovoz imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda taqsimlanadi.

**11-modul. Tik turib kuylash va o‘tirib kuylash holatlari –** ashulachilar ansamblida tanlangan asarga qarab ashulachilar ansambli to‘liq tik turgan holda ijro etadi. Agar, sozandalar ansambli va yakkanavoz bilan bo‘lganda ijroda o‘tirib kuylash holati kuzatiladi.

**12-modul. Mavzuni shakllantirish xususiyatlari –** Tanlangan asar ustida ishlar bosqichma-bosqich olib boriladi. Yangi tarqatilgan asar muallifi va asarning o‘ziga xos tomonlari haqida pedagog tomonidan og‘zaki ma’lumotlar beriladi. Ustoz-shogird an’anasi tarzida ustoz talabalarga kuylab beradi va talabalar bilan birgalikda so‘z matnlariga qaragan holda asarning dastlabki holatini ijro qilib, so‘ng bosqichma-bosqich asarni oxirigacha ijro qiladi.

**13-modul. Musiqiy asar ustida ishlash bosqichlari –** sozanda ansambli asarning musiqiy bo‘laklarini ijro etishida bir xildagi shtrixlar, nola, qochirimlar, molish, nolish, titrama qochirimlarga ahamiyat bergan holda ijro etishi lozim bo‘ladi. Bunda tanlangan asarning shtrixlarini har bir xona va bozgo‘ylarda to‘g‘ri qo‘llashi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**14-modul. Ijodiy hisobot, konsert chiqishlarga tayyorlash va o‘tkazish** – har bir kurs ashulachilar ansambli tanlangan asarlarni meyorida ijro qilgandan so‘ng

uni konsert sahnalarida ijro qilish imkoniyati beriladi. Bunday jarayon har oʻquv yilining yakunida kafedra mudiri boshchiligida ijodiy hisobot konserti tarzida tashkil etiladi.

**15-modul. Sahna madaniyati va xususiyatlari** - ijodiy va hisobot konsertlari, shuningdek boshqa tadbirlarda ashulachilar ansamblining chiqishida sahna madaniyatiga rioya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur. Bunda, sahnaga kirib kelish, joylarni egallash, sahnada stulda oʻtirish, olqishlarga javob berish, ijrodan boʻsh vaqtda stulga oʻtirish oʻquv mashgʻulotlarida oʻrgatilishi zarur.

Talabalar mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning amaliy guruhli ijrochilik xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

•Ashulachilar ansambli fani boʻyicha ma'lumotlar jadvalini kengaytirish yoʻllarini oʻrganish;

•Ashulachilar ansambliga oid manbalarni toʻplash va ularni ijro qilishga erishish;

•Amaliy guruhli ijrochilik koʻnikmasini mustahkamlash boʻyicha ish olib borish;

•Hududiy musiqiy uslublar boʻyicha asarlarni janrlar asosida toʻplash;

•Vazn asoslari, nota va she'r matni ustida ish olib borish;

Mustaqil ish bajariladigan mavzular boʻyicha metodik savolnomalar tuzish, savollarga foydalanishga tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalangan holda ogʻzaki tarzda javob berish, har bir mavzu boʻyicha muammoli masalalarni hal qilish yoʻllarini bayon qilish, tavsiyalar berish va boshqalar.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning mazmuni: talabalarning ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlar kompleks mavzulari va bitiruv dasturlari bilan uzviylikda bajariladi.

### 1.3. An'anaviy ashulachilik san'ati "Hofiz" lik haqida

**"Hofiz"** arabcha soʻz boʻlib, «yodda saqlamoq» ma'nosini anglatadi. Hofiz - Ollohning 99 ismlaridan biri deb ham ta'riflanadi.

Mumtoz hofizlarimiz islomiy bilimlardan hamda badiiy she'riyatdan xabardor boʻlganlar. Shuning uchun ham ular ijro etgan qoʻshiqlar nihoyat ta'sirchan boʻlib, tinglovchilarni oʻzlariga rom eta olgan. Mumtoz shoirlarimizning beqiyos ma'noga ega boʻlgan gʻazallarini kuyga solib, ijro etgan qoʻshiqlari uchun «Hofiz»

degan nomga musharraf bo‘lishlari ham qandaydir ramziy ma’no kasb etishi tabiiydir. Bu o‘rinda Majzubi Namangoniyning quyidagi satrlari ibratlidir:[6]

**Dema tanbur nolasin qo‘l tashlaganda tordin**
**Bilki, kelmish bu tarona san’ati Jabbordin.**

Satrlarda musiqa inson jismiga jon bilan kirganligini, bunda ilohiy qudrat borligini islom ulamolari ham e’tirof etishgan. Ulug‘ alloma Alixonto‘ra Sog‘uniy «Tarixi Muhammadiy» kitobida shahodat berilishicha, payg‘ambarimiz Rasululloh (S.A.V.) Makkadan Madinaga hijrat qilib shaharga kirishlarida yosh joriya qizlar childirmalar chalishib, quyidagi qo‘shiq va alyorlarni aytishgan ekan:

**To‘lin oy chiqdi bizlarga Vido tog‘ini ustidin,**
**Kerakdur shukrini aytmoq, bu dunyo boricha bizdin,**
**Kelibsiz, xush kelibsiz, ey yubormish Tangrini nuri**
**Qabul etmak erur bizdin, xudo amri kelur sizdin.**

**Bani najor ahlining yosh qizlari bo‘lurmiz,**
**Muhammadning kelganin baxtimiz deb bilurmiz.**
**Xush keldingiz bizga siz, qadamingiz muborak,**
**Oyoq bosgan izingiz ko‘zga surma qilurmiz.**

Shundan ko‘rinadiki, qo‘shiq, alyor, lapar aytish Payg‘ambarimiz (S.A.V.) davridan bizga meros bo‘lib qolgan.

O‘tmishdan maqom va an’anaviy mumtoz ashulalarning dunyoga kelishida va ijro etilishida barcha davrlarda yashagan xalq bastakorlari va hofizlarining ijodlari davr bilan hamohang bo‘lgan. Bunga mashhur bastakor va ijrochilar Borbad Marvaziy, Abu Xafz Sug‘diy, Abu Bakr Rubobiy, Abul Abbos Baxtiyor, Abdulqodir Marog‘iy, Darvishali Changiy, Paxlavon Muhammad singari bobokalonlarimizning ijodlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy ijodida ham musiqa san’ati katta o‘rin tutgan. Quyida shoirning «Hofiz» radifli she’ridan misol keltiriladi:

**Chekti bulbul kibi ming lahz ila doston Hofiz,**
**Yo‘q aningdek yana bu davrda xushxon Hofiz.**

---

[6] Mannopov S. “O‘zbek xalq musiqa madaniyati”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: ”Yangi asr avlodi”-2004.

**Hofiz etgan kibi xalq lutfi oni Qurhonda,**
**Bo'ldik oning dog'i har holida Qurhon Hofiz.**

**Sendadir nahmayi Dovud ila inhofi Masih,**
**Bordurur yo'q esa davron farovon Hofiz.**

**Ey Navoiy, dema laxniga nedin bo'lding sayd,**
**Xalq saydiga koni o'yla xush ilhom Hofiz.**

G'azal satrlarida Navoiyning hofiz ahliga bo'lgan chuqur hurmat-ehtiromi, xonanda san'atini ulug'lash, xushxon hofizlarning sifatlari ifodalanadi. Bolaligidan cholg'uchi bo'lgan Dovud payg'ambar musiqa san'atining piri hisoblanadi. Shu sababdan ushbu g'azalda «Nahmayi Dovud» iborasi qo'llanilgan.

O'zbek xalq musiqasining janrlariga asoslanib yaratilgan asarlarni ijro etuvchilar qadimdan turlicha nomlangan: xonanda, hofiz, ashulachi, qo'shiqchi, yallachi, katta ashulachi, laparchi, talqinchi, maqomxon, savtxon, baxshi, shoir, zokir, mug'anniy, mutrib, yirovchi, go'yanda singarilar.

Bu ijrochilar bir necha guruhga bo'linadilar, chunonchi, maqom ijrochilariga maqomxon, hofiz, xonanda, savtxon deyilsa, doston, musiqa ijrochilariga baxshi, shoir, dostonchi, yirovchi deyilgan. Xalq orasida keng tarqalgan janr ijrochilari - yallachi, laparchi, ashulachi, qo'shiqchi singari nomlar bilan atalib kelingan.

Shu o'rinda aytish kerakki, barcha maqom ijrolari va mashhur ashulalar turli davrlarda qaysidir bastakor tomonidan yaratilgan. Bu ijrolar xalqona bo'lganligi sababli xalq orasiga singib ketgan va xalqning ma'naviy boyligiga aylangan. Shu bois bizning davrimizda ham yaratilgan an'anaviy qo'shiqlarimizning mashhurlari bastakorlar tomonidan yaratilib, xalq orasida mashhur bo'lib ketishining sababi ham shundadir. Masalan, Yunus Rajabiyning «Ne navo», «Kuygay», To'xtasin Jalilovning «Kokiling», «O'ynasin», Komiljon Jabborovning «Etmasmidim», Imomjon Ikromovning «So'lim», Saidjon Kalonovnig «Ey sarvi ravon», Doni Zokirovning «Ey sabo», Orifxon Hotamovning «Xoh inon, xoh inonma», Rahmatjon Tursunovning «G'amzasin» singari yuzlab qo'shiqlar bunga misoldir.

## II BOB. O‘zbek ashulachilik maktabining paydo bo‘lish  tarixi



Ashulachilik san’ati eng qadimgi davrlarda xalq san’ati shaklida paydo bo‘lib, keyinchalik sinfiy jamiyatga o‘tish va ijtimoiy tabaqalanish natijasida uning kasbiy shakli ajralib chiqa boshladi.

O‘rta Osiyoda eramizdan avvalgi dastlabki ming yillikning birinchi yarmida, ibtidoiy jamoa tuzumi o‘zining so‘nggi bosqichini o‘tab, uning o‘rniga sinfiy jamiyat yuzaga kelganligi nazarda tutilsa, unda professional ashulachilik ilk asoslari bundan ikki yarim ming yil avval shakllana boshlagan deyish mumkin.[7]

Sinfiy jamiyat sharoitida xalq ashulachilik san’ati rivojida bir-biri bilan bog‘liq uchta asosiy yo‘nalish paydo bo‘ldi:

a) qo‘shiqchilikka asoslangan xalq musiqasi;

b) yozuvsiz an’anaviy kasbiy musiqa;

v) qo‘shiqchilik muammoolari bilan shug‘ullanuvchi ilm.

Ushbu yo‘nalishlar keyinchalik ashulachilik san’atida birinchidan, professionalizmning paydo bo‘lishiga olib kelgan bo‘lsa, ikkinchidan, mazkur sohaning nazariy-ilmiy jihatdan rivoj topishi uchun dastlabki poydevor rolini o‘ynadi.

O‘rta Osiyoda bronza davrining oxirlari va ilk temir davridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy o‘zgarishlar muqaddas “Avesto”  kitobida o‘z aksini topgan.

“Avesto” matnlari marosimiy ijro doirasida va unga quloq tutgan jamoa uchun badiiy idrok nuqtai nazaridan ham o‘ziga xos qo‘shiqlar bo‘lganligini alohida ta’kidlash muhimdir. Aytish lozimki, “Avesto” matnlari ayni qo‘shiq sifatida maxsus qiroat shakllariga bo‘ysundirilgan. Qiyosan shuni ta’kidlash lozimki, Qur’oni Karimning etti xil qiroat usuli mavjub bo‘lgan.

“Avesto”ning matnlari qo‘shiq sifatida yoki unga maxsus moslab tuzilganligi quyidagi xulosalarga kelishga asos beradi:

---

[7] Hamidov H. O‘zbek an’anaviy qo‘shiqchilik madaniyati tarixi.Toshkent:’O‘qituvchi’-1996.

a) O‘rta Osiyo va umuman Sharq xalqlarida ”Avesto”gacha bo‘lgan davrda ham qo‘shiqchilik san’ati mavjud bo‘lgan va uning an’analari bu muqaddas kitobda o‘z aksini topgan;
b) “Avesto” muqaddas asar bo‘lganligi uchun ham qadimda O‘rta Osiyo va Sharq xalqlarida din va qo‘shiqchilik bir-biriga mos ravishda va ayni paytda bir-birini to‘ldiruvchi madaniy-mafkuraviy omil sifatida yuzaga kelgan.

Ayni paytda, qadimgi qo‘shiqchilik san’atida nufuzli kasbiy xislat, ya’ni professionalizm ko‘rinishlari uchrab, ular alohida ijodiy jarayon sifatida shakllana bordi. Bularning barchasi o‘zbeklar diyori eng qadimgi davrlarda ham yuksak ma’naviyatga ega bo‘lganligi, shu bilan birga, qo‘shiqchilik san’ati juda rivojlanganligi, umuminsoniyat sivilizatsiyasining muhim ma’naviy o‘choqlaridan biri bo‘lganligidan dalolat beradi.

Mumtoz adabiyotimiz va allomalarimiz asarlarini mutolaa qilganda “Surudi Borbad”, “Borbad ohangi”, “Borbad usuli”, “Borbadona tarona” singari so‘z va iboralarga duch kelamiz. Shunda “Borbad kim ekan?”, “Bu qanday ohang bo‘ldi?” kabi savollar aqlimizni band qilgan. Manbalarga ko‘ra, Eron shohi Xusrav Parviz saroyida Borbad Marvaziy degan etuk musiqashunos bo‘lib, u Nekiso Changiy, Tabariy, Ozodvar Changiy, Geso‘i Novagar, Sarkash va Sarkab kabi musiqa ilmining namoyandalariga ustozlik qilgan.

Ma’lum bo‘lishicha, Borbad nafaqat etuk musiqashunos, balki bastakor, raqqos, hofiz va shoir bo‘lgan. U taxminan 589-yilda Turkmanistonning Marv shahrida dunyoga kelgan. Bu paytda Marvda ilm-fan, madaniyat, san’at va adabiyot, hunarmandchilik rivojlangan. XI-XII asrlarda Marvda Saljuqiylar hamda Xorazmshohlar davlatining markazi sifatida muhtasham kutubxona, ilmiy markaz, madrasalar bo‘lgan. Anvariy, Abdulloh, Abdurahmon, Muhammad Solih Muzaffar, Muhammad Kisoi Marvaziy kabi o‘nlab san’atkorlar yashagan.

Serqirra va betakror iste’dod sohibi bastakor Borbad ana shu madaniy markazdagi, so‘ng Arab va Ajam mamlakatlaridagi madrasalarda ta’lim olgan. O‘shandayoq xalq kuylarini mahorat bilan chalib, qo‘shiq aytishda nom chiqargan.

Zamonasining hukmronlari Borbadni oʻz saroylariga jalb etmoqchi boʻladilar. Ammo yosh hofiz Eron shohi Xusrav Parviz saroyiga borishga jazm etadi. Borbad saroydagi ortiqcha bazm-dabdabalar, behuda yurish-turishlarga qaramay, ijodiy ishlar bilan jiddiy shugʻullanadi, yosh hofiz va musiqachilar tarbiyasiga alohida e'tibor beradi.

Borbad yaratgan kuy va taronalarning koʻpi bizgacha oʻzgarishsiz etib kelgan.



Musiqashunoslarning aniqlashicha, borbat cholgʻu asbobini ham u ixtiro qilgan. Uning "Zerafkand", "Gulnoʻsh", "Oromishi-jon", "Dargʻam" kabi kuy va taronalarini arab va turk sozanda hamda mashshoqlari hanuzgacha ijro etadilar. Arab mamlakatlarida Borbad Bahlbad, Borid, Pahlapaz va Fahlbaz taxalluslari bilan keng shuhrat qozonadi. U musiqiy majmualaridagi barcha qoʻshiq matnlarini oʻzi ijod qilgan. Sharq musiqiy bilimi donishmandlarining uqtirishicha, "Yazdon ofarid", "Sabz andar sabz", "Partaviy farxor", "Ganji Bodovard", "Kini Siyovush", "Bogʻi Shahriyor", "Rohravi Shabdiz" singari mavsum va marosim qoʻshiqlari shular jumlasidandir.Filologiya fanlari doktori, professor Hamidjon Homidiyning "Koʻhna Sharq dargʻalari" kitobida yozilishicha, Borbad hafta kunlariga nisbat berib "Husravoni" ohanglar toʻplamini, yilning 30 kuniga qiyoslab 30 lahn, ya'ni maqom yoʻlidagi kuylarni, yilning 360 kuniga bagʻishlab 360 ta taronani yaratgan.

Borbad bastalagan, bugungi "Shashmaqom" ohanglari silsilasidagi 1-Xusravoni, 2-Zerafkand, 3-Nuhuft, 4-Navroʻzi Buzurg, 5-Navroʻzi Ajam, 6-Navroʻzi Xoro maqom yoʻllarida uning an'analari davom etmoqda. Tojik olimi Asqarali Rajabov Borbad ijodi oʻtmish musiqashunoslari tomonidan yuksak baholanganini e'tirof etadi. Aziz Sha'boniy "Eron musiqasi bilan tanishish" kitobida Borbadning Sharq musiqasi tarixida yorqin siymo ekanini ta'kidlab, uni Sharq xalqlari musiqiy ilmi, notasi, soz-u ovozining asoschisi, deya e'tirof etgan.

Shunday qilib, Borbadgina maqom ohanglari silsilasidagi biz yuqorida keltirgan 6 ta toʻplamni yaratgan boʻlib, bu esa oʻz navbatida Forobiy tomonidan

ilk tartiblangan 12 maqomning asosi bo‘lsa ajab emas. Hozirgi kunda ham Shashmaqom ijrolari asosan 5 xil uslub (ritm) ajratib turgan bir ladga xos “Mug‘ulcha”, “Talqin”, “Qashqarcha”, “Soqiynoma”, “Ufar” va ba’zi maqomlarda “Mustahzod” hamda “Tarona”lardan iboratligi fikrimizni isbotlaydi[8].

Turonlik uch buyuk san’atkor – Borbad, Romtin va Noqusni VI-VII asrlar O‘rta Osiyo madaniyati va san’atininggina emas, balki barcha Sharq xalqlari san’atining buyuk vakillari deb hisoblash mumkin.

IX asrdan boshlab hozirgi O‘zbekiston hududida professional qo‘shiqchilik san’atining nazariy-uslubiy va amaliy masalalarini ishlab chiqish kuchaydi.

Uyg‘onish davrining buyuk qomusiy olimi Abu Nasr Farobiy o‘zining sermahsul ijodi davomida qo‘shiqchilik ilmi bilan juda jiddiy shug‘ullangan.

O‘rta Osiyo tarixida Temuriylar davri qariyib besh yuz yildan ziyod jahon olimlarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Sohibqiron Amir Temur davrida O‘rta Osiyoning mustaqil bir davlat ostiga birlashtirilishi, mamlakat ichida tinchlik o‘rnatilishi mamlakatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi.



Bu davrda O‘rta Osiyoda maydonga kelgan buyuk sivilizatsiya buyuk tarixiy shaxslarni-faylasuf va donishmandlarni, shoir va san’atkorlarni, me’mor va sohibi hunarlarni etishtirdi, ular o‘z navbatida jahon madaniy taraqqiyotini boyitishga hissa qo‘shganlar.

Amir Temur va uning saltanati vorislari — temuriylarning deyarli hammasi hunar va san’at ahliga hurmat bilan qaraganlar, ularning mehnati va san’atini qadrlaganlar, shu bois, ular podshohligida madaniy hayot va muhit taraqqiy etgan. Ular davri nafaqat o‘zbek xalqining, balki butkul Yaqin va O‘rta Sharq ellarining,

[8] http://qashqadaryogz.uz/index.php/ruknlar/madaniyat/7936-ma-om-asoschisi-borbad-marvazijmi

ayniqsa, musiqa san’ati uchun jadal ravnaq topgan kamolot cho‘qqisiga erishgan, chinakam Uyg‘onish davri bo‘lgan deyiladi.

Chunki bu xalqlar yagona davlatni tashkil etib, o‘zaro samarali madaniy aloqalar o‘rnatibgina qolmay, ayni vaqtda Osiyo va YYevropaning eng yirik mamlakatlari bilan ham ma’naviy bog‘lanish hosil qilganlar[9].

Musiqaning boshqa san’atlar qatorida muhim o‘rin egallashi uchun zamin Temuriylar hukmdorligi mobaynida xonanda va sozandalar rasmiy-diplomatik, harbiy va boshqa tantanalarning doimiy qatnashchilariga aylanib, xalq tomoshalari, ommaviy bayramlarning ularsiz o‘tmasligi bo‘lgan. O‘zbek xalqi musiqasi qatori harbiy-rasmiy musiqa turlari, mumtoz maqom san’ati, mintaqaning boshqa turkiy hamda arab, forsiyzabon xalqlarining musiqaviy folklori rivoj topdi. Eng muhimi, musiqiy anjomlar jasorat va mardlik timsollariga aylangan. “Amr qildimki, qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g‘anim lashkarini engsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsinlar: faxrli hitob, tug‘ va nog‘ora berib, uni bahodir deb atasinlar ”, — deb yozadi Amir Temur.



Amir Temurning o‘zi musiqaning his-tuyg‘ularga ta’sir imkoniyatlaridan boxabar bo‘lib, amaliyotda undan mohirona foydalangan. Hech bir saroyda o‘tkaziladigan tantana musiqasiz bo`lmagan. Harbiy yurishlarda ham musiqiy asboblarga bo‘lgan ixlosini unutmagan. Uning harbiy amaliyot tarixiga kiritilgan o‘zining qator kashfiyotlari bor. Masalan, mo‘jaz shahar yoki qishloqqa hujum boshlashdan oldin, u erga ehtiyotkorlik bilan karnaychi va nog‘orachilar kiritilgan. Erta tongda behosdan bu asboblarning yangrashi aholini dovdiratib, harbiylarga katta yordam bergan.

Temuriylar davrida, saroylarning bosh darvozalari tepasiga maxsus nog‘oraxonalar qurish odatga kirgan, bu hol musiqa san’atiga bo‘lgan e’tiborning

---

[9] Raximova Z. M. Temuriylar davri ilmida musiqaning san’at turiga aylanishi // Молодой ученый. — 2016. — №15.3. — С. 11-14. — URL https://moluch.ru/archive/119/33002/ (дата обращения: 17.08.2018).

yana bir yorqin dalilidir. Ma'lumki, saroy musiqiy guruhlari asosan karnaychi va nog'orachilardan iborat bo'lgan, etakchilarni "mehtar" deb atashgan. Ular ommaviy bayram va tantanalarda faol qatnashganlar.

Temur davriga xos bo'lgan ma'naviy ko'tarinkilik musiqa san'atining deyarli barcha jabhalari uchun keng imkoniyat tug'dirib berdi: sozandalik va xonandalik, musiqa ta'limi, bastakorlik ijodi, musiqa ilmi - bularning barchasi kamol topdi. Asrlar davomida shakllangan an'anaviy "ustoz-shogird" ta'lim tizimi keng quloch yozdi.

Musiqa ustozini hammadan ustun qo'ygan, "ustozlar ustozi" deb ulug'lagan Alisher Navoiy (o'zi ham musiqiy ilmga ega bo'lgan, ayrim musiqiy asarlar ham yaratgan) o'zining "Sab'ai sayyor" asarida:

**San'atim anda soz cholmoq ishi,**
**Bilmayin men kibi ishimni kishi.**
**Ilmi advori fanni musiqiy,**
**Mendan ul ilm ahli tahqiqiy.**

Shu bois Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatida musiqaning o'ziga xos o'rin egallagani tasodif emas, bundan tashqari, Navoiy tahallusining o'zi ham nufuzli musiqiy atama "navo" so'zidan o'zak olgandir.



Musiqa asoslarini alifbo saboqlari bilan birga olgan, ustozi o'z davrining yirik musiqashunosi va bastakori Xoja Yusuf Burxon bo'lgan. Navoiy o'z asarlarida ustozining ijodini maqomlar shakllanishiga bevosita aloqasi borligini yozadi. Chunki "Isfahon" kuyi, aniqrog'i, maqom (parda tizimi), Amir Temur va temuriylar davridagi "Duvozdahmaqom" turkumi tarqibidagi uchinchi edi. Navoiyning musiqa madaniyatini izchil e'tirof etishiga uning Xoja Yusuf Burxon qo'lida ta'lim olgani, umri davomida musiqa san'ati namoyandalari bilan doimiy muloqotda bo'lganligi ijobiy ta'sir etgan. "Qator sozlarda yaxshi cholur erdi..." Allomaning Qomusiy "Xamsa"sini, besh ko'shiq deb idroq etish mumkin.

Ya'ni:

**"Hayrat - ul abror"-** falsafiy-axloqiy mazmunga ega bo'lgan qo'shiq;

**"Farhod va Shirin"** - jasorat va vatanparvarlik qo'shig'i;

**"Layli va Majnun"** - betakror sevgi qo'shig'i;

**"Sab'ai sayyor"** - vafodorlik qo'shig'i;

**"Saddi Iskandariy"-** axloqiy qo'shiq deb atalishi mumkin.

Umuman olganda, Alisher Navoiyning she'rlarini qo'shiq deb ham faraz qilsa bo'ladi, chunki ularning aksariatiga shoir zamondoshlaridan tortib, bugungi kun ijodkorlariga qadar musiqa yaratishgan, ya'ni ularni musiqalashtirishgan.

Alisher Navoiyning musiqa ijodiyotiga bevosita aloqadorligini Zahiriddin Bobur ham e'tirof etgan. Alisher Navoiy naqshlar (ashula-cholg'u asarlari) hamda peshravlar (cholg'u asarlari) muallifi bo'lganligi "Boburnoma"da keltirilgan. Shoirning tuzilish jihatidan murakkab bo'lgan bunday asarlariga imkoni eta olishi nafaqat Sharq, balki G'arb madaniyati tarixida ham kamdan-kam uchraydi. Shu davrdagi 24 usuldan bir qanchasi Ulug'bek, 12tasi Husayn Boyqaro, 7tasi esa Alisher Navoiy qalamlariga mansub, deb topilgan.

"Majolis - un nafois"da Navoiy musiqa bilan shug'ullangan shoirlarning nomlarini keltirgan: xorazmlik olim va shoir Xo'ja Abudal Vafoiy Xorazmiy XV asrda musiqa haqida risola yozgan, Paxlavon Muhammad, Xo'ja Abdullo kabi san'atkorlarning musiqa taraqqiyotiga qo'shgan hissalari e'tirof etiladi. Bu asarda Navoiy o'z zamonasidagi eng mashhur sozanda va bastakorlardan Xo'ja Yusuf Burxonni ham esga olib o'tadi. "Holati Paxlavan Muhammad" asarini o'z davrining buyuk bastakori o'n ikki maqomning takomillanishida katta hissa qo'shgan Muhammadning musiqa ijodiga bag'ishlagan. Bu davrda Navoiyning homiyligi orqasida o'z san'atlari bilan shuhrat topganlar, juda ko'p naqsh va peshrovlar yaratganlar.

Temuriylar zamonida yashab ijod qilgan yana bir yirik musiqashunos Alisher Navoiyning ustozi Abdurahmon Jomiydir. Jomiy musiqiy asarlar va "Risolayi musiqiy"ning muallifidir. Jomiyning risolasi nazariy mazmunga ega bo'ldi, ikki qismdan iborat: "Ilmi ta'lif", "Ilmi iko'". Asarning birinchi qismida, musiqaning

kelib chiqishi, “musiqa” so‘zining mazmuni, san’atlarning burchi kabi muammolar yoritiladi.

Jomiyning fikricha, musiqaning tarkibiy qismlarini o‘rganish “yanada go‘zal va nafis san’at” yaratish uchun kerakdir. Risolaning ikkinchi qismida o‘sha davr mutaxassislari orasida keng tarqalgan usullar batafsil yoritilgan.

Risolada 20dan ortiq usullar haqida ma’lumot bor. Jomiyning yangi usullar yaratishda “chegara yo‘qligi”, “ixtiyor etgan kishi yangi usul yarata olishi” haqida fikr yuritilgan. Bu risola Alisher Navoiy iltimosi bilan yozilgan degan ma’lumot ham bor. Mazkur risola ijrochi, bastakor, olimlardan o‘z shaxsiy tajribalarini ishga solishga undar ekan. Temur va temuriylar davrida musiqiy ijod va ijroning shiddat bilan rivojlanib borishi musiqiy risolanavislikka ham ta’sir etmay qolmadi.

Shu davrga oid qator risolalar saqlanib qolgan, ular musiqa ilmining yuqori saviyasidan dalolat beradi, musiqaning muhit timsollari tizimi, o‘rganilayotgan davrning musiqa bilan bog‘liq barcha xususiyatlari haqida ma’lumotlar mavjud. Masalan, Zaynulobiddin al-Xusayniyning “Qonuni ilmi va amali musiqiy” risolasi Alisher Navoyiga bag‘ishlangan. Risolada muallif xalq cholg‘u asbobi dutorni ilk bor ilmiy ta’riflaydi va uni xotin- qizlar orasida keng tarqalganligini aytadi.

Najmiddin Kavkabiy yirik olim va musiqachi bo‘lib, ikki risola “Risolayi musiqy”, “Risolayi dar bayoni Duvazdohmaqom”ning muallifidir. Kavkabiyning fikriga ko‘ra, musiqa va ashula nafis san’at bo‘lib, ilohiy sirlarga egadir. Shuning uchun uni idrok etish hammaga ham nasib etavermaydi. Kavkabiy ashula va kuylarni tasniflash bobida musiqaning murakkab nazariy muammolarini nasriy uslubda ifodalash kabi kashfiyotlar yaratdi.

Temuriylar davrining nufuzli manbalaridan yana biri XVI-XVII asrlarda yashab ijod etgan ko‘p qirrali olim Darvish Ali Changiyning “Tuhfat- us surur”, yana bir nomi “Risolayi musiqiy” asaridir.

O‘z ichiga jami 12 asr voqeligini qamragan bu asarda davrning an’anaviy muammolari qatori 350ga yaqin bastakor, xonanda, sozanda va ularning homiylari, Temur va temuriylar haqida ham juda ko‘p ma’lumot berilgan. Amir Temur va temuriylar davri musiqa asboblari turli-tumanligi va serqirraligi bilan ajralib turadi.

Masalan, ud (yog‘ochdan foydalanilgan daraxt nomiga ko‘ra) sozini arablar nafaqat Sharqqa, balki G‘arbga ham tarqatishgan (lyuto, lyutnya va boshqalar shu asbobdan kelib chiqqan). Bu asbob haqida “Boburnoma”da ham aytilib o‘tilgan: “... Bobur to‘rt-besh kun isitmalab, so‘ng yaxshiroq bo‘ladi, uning ko‘ngli mayin bir kuy istab, Nurullo tamburchini taklif qiladi. Nurullo tamburchi qoshimda soz choladur edi, yana bir soz ham bor edi. Bobur uning ijrosida dardli ashula va maqom kuylarini tinglagan. Uning ixtiyoridagi ikkinchi sozni ud deb taxmin qilish mumkin, chunki o‘sha zamon sozlari ichida ud hiyla e’tiborli bo‘lib, saroy a’yonlariga xizmat qilishda undan tez -tez foydalanib turishgan. Bundan tashqari ud, maqom kuylarini chalishga qo‘l kelgan va Bobur holatiga ham mos tushgan. Nurullo tamburchi mohir sozanda bo‘lgan bo‘lishi kerak, chunki yuksak didli, musiqa ilmidan voqif shoh oldida ikki hil sozda kuy chalish har kimning qo‘lidan kelavermaydi”.

Musiqiy amaliyot butkul ijodiy jarayonning shiddat bilan rivojlanishi, avloddan-avlodga o‘tib sayqallana borgan musiqa ilmining ravnaqi bu jabhalarning har biri uchun alohida va barchasi uchun birday allomalarning maydonga kelishiga zamin hozirlaydi.

Amir Temur saroyida mashhur musiqachi Xo‘ja Abdulqodir Marog‘iy ijod etgani ma’lum. Marog‘iy bastakor sifatida 200 dan ortiq asar yaratgan. Ular qatorida ko‘p qismli turkum asarlar, shuningdek usullarning yangi talqinlari - “Zarb-al fath”, “Chohor zarb”, “Mayatayn” maqom bo‘limlaridan “Tasnifi Xo‘ja” va boshqalar.

O‘rta asrlar an’anasi shahar aholisining kasb-koriga ko‘ra alohida jamoa (mahalla) bo‘lib yashashni taqozo qilardi. Xalq ichida tanilgan san’atkorlar hokimlar farmoniga ko‘ra yoki o‘ziga qulaylik yaratish maqsadida kasbdoshlari bilan bir jamoa bo‘lib yashashni afzal ko‘rar edilar. Shunga binoan “sozandalar mahallasi”, “xonandalar mavzesi”, “bastakorlar ko‘chasi” joriy etildi. Bu kasb sohiblarining alohida obro‘ va nufuzga sazovor bo‘lganlari atrofida maxsus ijod, ijro va ilmiy mavqega ega ilmiy maktablar shakllandi.

Sohibqiron Amir Temur va uning bir necha pog‘onadagi vorislari davrida musiqa san’atining barcha (bastakorlik, ijrochilik, ilm va maxsus ta’lim kabi) jabhalari o‘z tarixidagi eng yuksak taraqqiyot pallalariga ko‘tarilganini biz, har bir

qilingan ishi, erishgan muvaffaqiyatlari orqasidan qilgan ommaviy sayl-u tomoshalarida ko‘rsak bo‘ladi.

Temur va Temuriylar davrida madaniyat va musiqa san’ati gullab-yashnagan davr bo‘ldi. Mashhur qo‘shiqchi va san’atkorlardan Abdulqodir al-Marog‘iy, Sohib Safiuddin, Nasriyn, Qutb qiron saltanatining ko‘zga ko‘ringan al-Mousiliy, Ardasher san’at namoyandalari bo‘lib, o‘zlari al-Changiy ham she’rlar yozishgan, butun xalq hurmatiga sazovor bo‘lgan zotlardir. Abdulhay al-Bag‘dodiy hamma qo‘shiqchi san’atkorlar ustozi edi. To‘y tomoshalarda karnaychi, surnaychi, qo‘shiqchilar sardori edi.[10]

O‘zbek ashulachilik san’atida “Duvozdah” (O‘n ikki maqom) ijrochilik maktabi IX-XII asrlarda rivojlangan bo‘lsa, xonliklar davriga kelib alohida maqom ijrochilik maktablari paydo bo‘ldi. Buxoroda Shashmaqom, Xorazmda Xorazm va dutor maqomlari, Farg‘ona va Toshkentda Chormaqom yuzaga keldi.

O‘zbek xalq musiqasining janrlariga asoslanib yaratilgan asarlarni ijro etuvchilar qadimdan turlicha nomlangan: xonanda, hofiz, ashulachi, qo‘shiqchi, yallachi, katta ashulachi, laparchi, talqinchi, maqomxon, savtxon, baxshi, shoir, zokir, mug‘anniy, mutrib, yirovchi, go‘yanda singarilar.

Bu ijrochilar bir necha guruhga bo‘linadilar, chunonchi, maqom ijrochilariga maqomxon, hofiz, xonanda, savtxon deyilsa, doston, musiqa ijrochilariga baxshi, shoir, dostonchi, yirovchi deyilgan.

Xalq orasida keng tarqalgan janr ijrochilari - yallachi, laparchi, ashulachi, qo‘shiqchi singari nomlar bilan atalib kelingan.

An’anaviy ashula ijrochiligi tarixiga nazar tashlasak, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o‘lkamizda bu muqaddas san’atning butun bir ijrochi avlodi etishib chiqqanligining guvohi bo‘lamiz. Ota Jalol Nosirov, Ota G‘iyos Abdulg‘ani, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Sodirxon hofiz Bobosharifov, Zohidxon hofiz, Madali hofiz, Mulla To‘ychi

[10] www,amir_temur_va_temurijlar_davrining_intellektual_salohiyati.

Toshmuhammedov, Matyoqub Xarratov singari zabardast hofizlar shular jumlasidandir.

O‘tmishda hofizlarimiz ovoz maromiga qarab «Gulligi», «Binnigi», «Ishkambi», «Xonaqohiy» deb atalmish nafas olish, chiqarish va ijro yo‘llaridan foydalanishgan. O‘sha davr hofizlarining ovozlari o‘ktam, baquvvat bo‘lganligi sababli ular ko‘proq «Ishkambi» yo‘lida ijro etganlar. Bu yo‘lda ijro etish g‘oyatda murakkab bo‘lib, shinavandalar tomonidan juda qadrlangan. Chunki hofiz tovushini ichkaridan tejamkorlik bilan qorin bo‘shlig‘idan chiqarib qo‘shiq aytadi. Shuning uchun ham «Ishkambi» yo‘li chuqur nafas olishga asoslanishi, tiniqligi hamda jarangdorligi bilan «Gulligi», «Binnigi» kabi ashula yo‘llaridan farq qiladi.

Ustoz hofizlar o‘z ijrochilik mahoratlarini oshirish uchun aks-sado beruvchi maxsus gumbazli binolarda mashg‘ulot o‘tkazganlar, shu tariqa ovozlariga sayqal berishgan. «Ishkambi» yo‘lidan farq qiluvchi «Xonaqohiy» yo‘li bo‘lib, unda hofiz qo‘shiq so‘zlarini aniq talaffuz etib, tinglovchiga g‘azal mazmunini ifodali qilib etkazgan.

Ustoz hofizlarimiz dasturlaridan har xil marosimlarda ijro etiladigan ashulalar ham o‘rin olgan. Masalan, Sodirxon hofiz ashulalarni sozsiz, ikki kaftini qulog‘iga qo‘ygan holda, alamli «Yakka faryod» tarzida, «Xonaqohiy» yo‘lida ijro etib kelgan. O‘z ashulalarini yil fasllari va hatto, kunning ma’lum paytlariga ko‘ra tanlab aytgan. Bahor tonglarida - «Amin nasrulloyi», «Qiyiq», «Qora tong»ni, peshindan keyin «Gulyori Shahnoz»ni, kechqurun «Sarparda», «Rok baland», «Dilxiroj» va boshqalarni kuylagan.

Bundan tashqari, ustoz hofizlarimiz ashula ijro etish bilan birga maqomlarni o‘zlashtirib, betakror muallif sifatida maqomlarni yangi sho‘balar bilan boyitganlar. Masalan, maqomdon ustoz Ota Jalol Nosirov «Shashmaqom»ning mushkulot qismlarini tartibga solgan, ayrim maqom sho‘balarini kengaytirgan, rivojlantirgan va qo‘shimcha qismlar bastalagan. Jumladan, ulardan biri «Savti Jaloliy» deb ataladi. Marg‘ilonlik Madali hofiz esa «Abdurahmonbegi», «Qalandar», «Tanovar» kabi ijro yo‘llarini yangi talqinlari bilan to‘ldirib, san’atimiz xazinasini yangi ijrolar

bilan boyitdi. Shu tariqa, umrboqiy maqomlarimizga ustoz hofizlarimiz ijrosida qo‘shimcha jilo berilib, yanada to‘ldirilib ijro etib kelinmoqda.

Bizning davrimizga kelib ham bu xayrli ishlar davom etdi. Masalan, mashhur hofiz va bastakor Fattohxon Mamadaliyev «Nasrulloyi» musiqa yo‘llariga so‘z solib, uning talqinchasini, uforisini, soqinomasini yaratdi. «Miskin»ning beshta yo‘lini, «Chorgoh»ning beshta yo‘lini, «Umrzoqpolvon ushshoqi»ning soqinamolarini qo‘shib, ushshoqlarning qadimiy ijrolarini tikladi. «Buzruk»ning surnay yo‘llarini talqin qildi. Izlanishlar natijasida xalq an’anaviy ijrochiligi bir necha ijro yo‘llari bilan boyidi, ulardan biri turkum sifatida «Savti Fattohxon» nomi bilan ijrochilarimiz va olimlarimiz tomonidan tan olindi.

XX asrning 20-30-yillariga kelib an’anaviy ashulachiligimizga ikkinchi bir avlod kirib keldiki, bu ulug‘ hofizlarimiz san’atimiz xazinasini o‘zlarining mumtoz qo‘shiqlari bilan boyitdilar. Ularning muborak nomlarini hurmat va ehtirom bilan zikr etib o‘tish joizdir.



Xorazm vohasidan Matpano ota Xudoyberganov, Kurji ota Avazmatov, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Jumaniyoz Xayitboyev, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Buxoro, Samarqanddan Ota G‘iyos Abdulg‘ani, Mixail Tolmasov, qori Karomat, Tillaboy hofiz, Usta Shodi, Tojixon hofiz, Boruh Zerkiyev, Toshkentdan Shorahim Shoumarov, Inog‘om va Ilhom hofizlar, Abdulqahhor, Sultonxon, Yunus Rajabiy, Boboxon va Akmalxon So‘fixonovlar, Xo‘janddan To‘raxo‘ja hofiz, Abduqayum hofiz, Karimjon hofizlar, Farg‘ona vodiysidan Hamroqul qori To‘raqulov, Erka qori Karimov, Bolta hofiz Rajabov, Mamadbobo Sattorov, Sherqo‘zi Boyqo‘ziyev, Haydarali Hikmatov, Xolqora hofiz, Berkinboy Fayziyev, Abdulla Fayzullayev, Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Ortiqxo‘ja Imomxo‘jayev, Akbar Haydarov, Boborahim Mirzayev, Ashurali hofiz, Umrzoq polvon Saydaliyev singari hofizlar o‘zlaridan oldin ijro qilib o‘tgan ustozlarning ashulachilik san’atini davom ettirishib, an’anaviy ijrochiligimizda har birlari bir-

biriga oʻxshamagan ajoyib ijro uslublarini ham yaratdilar, shu bilan birga, oʻzlari bastalagan asarlari bilan qoʻshiqchiligimiz xazinasini boyitdilar.

Bu borada, ayniqsa, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Matpano Xudoyberganov, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Joʻraxon Sultonov, Yunus Rajabiy ijodlari bunga misol boʻla oladi. Sodirxon hofiz ijro etgan «Ushshoqi Sodirxon» nomi bilan mashhur boʻlib ketgan. Hoji Abdulaziz bastalagan «Guluzorim» qoʻshigʻi, Joʻraxon Sultonov bastalagan va oʻzi ijro etgan «Guluzorim qani», «Naylayin» qoʻshiqlari an'anaviy merosimiz qatori musiqiy xazinamizdan mustahkam oʻrin oldi.

Shu oʻrinda aytish lozimki, ashulachilik san'atimiz rivojiga oʻzbek bastakorlari va sozandalari oʻzlarining ulkan hissalarini qoʻshib kelmoqdalar.



Yunus Rajabiy, Toʻxtasin Jalilov, Imomjon Ikromov, Komiljon Jabborov, Saidjon Kalonov, Muhammadjon Mirzayev, Muxtorjon Murtazoyev, Faxriddin Sodiqov, Abduhoshim Ismoilov singari yuzlab bastakorlar yaratgan qoʻshiq va kuylar xalq mulkiga aylanib qoldi.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, an'anaviy qoʻshiqchilik, yalla, lapar, oʻlan ijrochiligi rivojiga ayol hofizalarimizning qoʻshgan hissalari ham beqiyosdir. Ayollar ishtirokida oʻtadigan yigʻin va majlislarda ayol hofizalar xizmat qilishgan. Mashhur yozuvchimiz Abdulla Qodiriy «Mehrobdan chayon» romanida Qoʻqon xoni Xudoyorxon saroyidagi hofizalar toʻgʻrisida aniq ma'lumot beradi. Nusrat hofiz, Misqol hofiz, Tosh hofiz, Margʻilonlik Zeboxon, Botirboshi xola, Tillo hofiz, Tojixon hofiz, Xon ogʻacha, Misoq ogʻacha, Ulugʻ oʻyunchi, Rajabxon hofizlarning nomlari zikr etiladi. Keyinchalik ham bu an'analar davom ettirilib, Lutfixon aya, Adolatxon aya, Hadyaxon Hamdamova, Halimaxon Nosirova, Tamaraxonim, Saodat Qobulova, Zaynab Polvonova, Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, Rahimaxon Mazohidova, Habibaxon Oxunova, Olmaxon Hayitova singari zabardast hofizalarimizning qoʻshiqchilik boʻstonidagi xizmatlari beqiyosdir. Ularning an'analarini hozirda etuk, talantli hofizalar davom ettirmoqdalar.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib an’anaviy ashulachiligimiz guldastasi navbatdagi avlod qo‘liga o‘tdi. Orif hoji Alimahsumov, Ochilxon Otaxonov, Orifxon Hotamov, Muhammadjon Karimov, Odiljon Yusupov, Fattohxon Mamadaliyev, Tavakkal Qodirov, Murodjon Ahmedov, Ro‘zimat Jumaniyozov, Rasulqori Mamadaliyev, Faxriddin Umarov, Tolibjon Badinov, Quvondiq Iskandarov, Eson Lutfullayev, Alijon Hasanov, Ne’matjon Qulabdullayev, Otajon Xudoyshukurov, Bobomurod Hamdamov, Tojiddin Murodov, Kamoliddin Rahimov singari mashhur hofizlar shular jumlasidandir.

Buyuk istiqlolimiz sharofati bilan an’anaviy ashulachilik san’atimiz rivoj topmoqda. Ulug‘ ustozlar Jo‘raxon Sultonov, Mahmurjon Uzoqov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Komiljon Otaniyozov, Fattohxon Mamadaliyev, Odiljon Yusupov, Tavakkal Qodirov, Otajon Xudoyshukurov nomlari bilan o‘tkazilayotgan respublika va vohalar yosh xonandalari ko‘rik tanlovlari, «Sharq taronalari» xalqaro musiqa anjumanida hofiz va xonandalarimizning erishayotgan muvaffaqiyatlari, «O‘zbekiston - vatanim manim» respublika qo‘shiqlar ko‘rik- tanlovining an’anaviy tarzda o‘tkazilishi qo‘shiqchilik san’atimizning kelajak avlodlar qo‘liga topshirishda ko‘prik bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ustozlar an’anasini davom ettirishib, qator san’atkorlar muvaffaqiyatli ijod qilmoqdalar. Ular ustozlar maktabiga suyangan holda o‘zlariga xos ijro yo‘llari va uslublari bilan ashulachilik xazinasiga sezilarli hissa qo‘shmoqdalar.

## 2.1.Ashula va mumtoz ashula ijrochiligi.

### Ashula

Yakka xonanda yoki xonandalar guruhiga mo'ljallangan, mumtoz o'zbek musiqa merosida markaziy o'rin egallagan ashula yo'li. Asosan lirik ruhdagi g'azal va she'rlar zaminida yuzaga keladi. Ashulalar soz (doira, dutor, tanbur), ansambl jo'rligida yoki jo'rsiz ijro etiladi. Ashula o'zbek musiqa folklorida katta o'rin egallagan qo'shiq janridan kuy diapazonining kengligi, shaklan rivojlanganligi, mavzu va mazmuni teranligi bilan farqlanadi. Ashulaning badiiy mazmunida barmoq vaznidagi she'rlardan foydalanilsada, aruz vaznidagi g'azal va she'riy shakllar asosiy o'rin tutadi. Binobarin, ashulaning ichki tuzilishi ham turlichadir. Barmoq vazniga asoslangan ashulalar ko'proq «band-naqarot» shakli ko'rinishida bo'lsa, g'azallarga bitilgan ashulalar tuzilishi nisbatan murakkab va rivojlangandir. Odatda, bunday ashulalarning kuylari quyi pardalardan boshlanib o'rta va yuqori pardalarda rivojlanadi, so'ngra dastlabki turg'un tovushda nihoyasiga etadi. Aksariyat ashulalar o'ziga xos avjlarga ega.



Ashula janri tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi: ko'pincha professional musiqachi (bastakor-hofiz)lar ijodiyotining mahsuli bo'lib, bizgacha og'zaki ravishda etib kelganligi tufayli qator ashulalar ko'plab variantlarga ega. Ashulaning eng rivojlangan mukammal ko'rinishlari Buxoro va Xorazm maqomlarining nasr (ashula) yo'llari, Toshkent va Farg'ona vodiysida keng tarqalgan maqom yo'llari katta ashula janrida namoyon bo'lgan. Ashulalarda o'zbek xalqining ruhi, xarakteri, ma'naviy dunyosi o'zining badiiy etuk va to'laqonli ifodasini topgan.[11]

An'anaviy xonandalik ijrochilik maktabiga mumtoz ashula va mumtoz yallalar, katta ashula, maqom ashulachilik namunalari kiradi.[12] O'zbek mumtoz musiqasini tashkil etuvchi aytim-ashula janrlar tarkibiga mumtoz ashula va mumtoz yallalar kiradi. Har biri o'ziga xos mavqei, mazmuni, kuy-ohang tizimi, shakli va ijro uslublari bilan ajralib turadi.

---

[11] http://wiki.arxiv.uz/Ashula

[12] http://ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/national-list/domain-2/332-mumtoz-ashula-yalla



**Mumtoz ashula** – lirik xarakteridagi rivojlangan kuy va shaklga ega boʻlgan yirik aytim-ashula yoʻli. Ashula mumtoz musiqaning etakchi janrlaridan boʻlib, oʻzining kuy rivoji, vazmin lirik yoki ogʻir xarakteri, hayajonli va dardli mazmuni, diapazon kengligi, usul-ritmining sezilarli darajada murakkabligi va ijro uslubi mukammalligi bilan ajralib turadi. Sharq mumtoz (Lutfiy, Fuzuliy, Alisher Navoiy, Jomiy, Haziniy, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Ogahiy, Munis kabi) va oʻzbek (Chustiy, Sobir Abdulla, Poʻlat Moʻmin, Erkin Vohidov, Kamtar, Normurod Narzullayev kabi) shoirlarning aruz vaznida yozilgan gʻazal, ruboiy, muhammaslari ashula janrida keng qoʻllanib kelingan. Falsafiy ma'noga ega boʻlgan, shuningdek, alam, ayriliq va hasratni ifodalovchi ishqiy-lirik va ayrim nasihatgoʻy mazmun koʻproq ashula mavzusiga xosdir. Ashulada soʻz va kuy uzviy bogʻliqdir, bu holat asarning butun mazmunini, mohiyatini tashkil etadi. Chunki undagi umumiy mantiqiy bogʻliqlik, vazn, qofiya, ohang, musiqiylik tinglovchida zavq-shavq uygʻotadi, hayajonli kayfiyat paydo qiladi.

Ashula janr sifatida folklor va mumtoz musiqa ijodiyoti keng tarqalgan, ammo she'r matnlari (folklor namunalarida xalq soʻzlari), kuy rivoji va ijro uslublari bilan ajralib turadi, masalan, "Tanovar" – folklor yoʻnalishida "Qora soch", "Sumbula", "Endi sendek" mumtoz ashula namunalari "Adolat tanovari", "Yovvoyi tanovar" va b. (bular bir ohang asosida shakllangan).

Mumtoz ashulalar musiqiy matnining rivojlanishi hamda kuy tuzilmalarining nisbatan davomliroqligi va kengroq diapazonligi, baland avji mavjudligi bilan xalq ashulalaridan sezilarli darajada farqlanadi. Ularning rivojlanish jarayoni daromaddan boshlanib tobora avjlangan holda rivojlanadi. Shu tufayli ashula shaklidagi asar mumtoz va bastakorlik ijodiyotlarida keng oʻrin olgan, uning lokal variantlari mavjud, jumladan, Buxoroda xalq ashula va muhammas, Xorazmda suvora va naqsh, Fargʻona vodiysida ashula yoʻllari, katta ashula, yovvoiy ashula deb yuritiladi. Diniy va pand-nasihat mavzudagi (Mashrab, Ahmad Yassaviy, Ogahiy, Xaziniy, Furqat, Huvaydo, Maxtumquli) mumtoz ashula yoʻllari – munojot, na't, qalandar, xonaqoi, hamd, manzuma deb yuritiladi. Bunday ashulalar shaklan va mazmunan yanada murakkabroq va mukammalroq boʻlib, mumtoz musiqamizning salmoqli qismini tashkil etadi.

O‘zbek bastakorlari ham mumtoz ashula janri asosida asarlar yaratganlar. Bu ashulalar yakkanavoz ijrosida, cholg‘u ansambli jo‘rligida aytilib kelingan. "Tanovar", "Munojot", "Girya", "Adashganman", "Yolg‘iz", "Qomating", "Qurd", "Ol xabar" kabi mumtoz yo‘lidagi ashulalar, "Kuygay" (Yu.Rajabiy), "Sensan sevarim" (O.Hotamov), "Naylayin" (J.Sultonov), "Ey, chehrasi tobonim" (F.Sodiqov), "Diyorimsan" (K.Jabborov), "Bir ishva bilan" (M.Murtazoyev), "Guluzorim" va "Qurbon o‘lam" (A.Abdurasulov), "Qachon bo‘lgay" (M.Mirzayev) va b. bastakorlarning ashulalari xonanda (professional va havaskor)lar repertuaridan mustahkam o‘rin olgan. Yirik namoyandalar – K.Otaniyozov, J.Sultonov, M.Uzoqov, F.Mamadaliyev, R.Mamadaliyev, O.Xudoyshukurov, H.Boltayev, B.Dovidova, M.Tojiboyev, M.Yo‘lchiyeva va b.

O‘zbek ijrochilik amaliyotida ashula turkumlari ham mavjud, jumladan, "Tanovar I–V", "Qalandar I–V", "Eshvoy-Eshvoy kurd-Eshvoy turkman", "Qalandari-Samandariy", "Dilxiroj-Sinaxiroj" va b.

**Yalla** - keng tarqalgan ashula-raqssimon janr bo‘lib ishqiy-lirik mazmuni bilan yakkanavoz (xonanda yoki yallachi) tomonidan cholg‘u ansambli jo‘rligida ijro etiladi. Mumtoz yallalar xalq yo‘lidagi yallalarga nisbatan keng diapazonli rivojlangan kuyi, jozibali va o‘ynoqi xarakteri bilan farq qiladi. Xalq yallalari tor diapazonli bo‘lib, uning she’riy matnidagi har bir bandi (asosan xalq she’riyati qo‘llangan) va raqs harakatlari yakkaxon yallachi, naqorati esa guruh tomonidan cholg‘u jo‘rligi (ko‘proq doira yoki dutor)da aytilib kelingan. O‘ynoqi xarakteridagi kuy hammani raqsga chorlaydi (yalla xalq tilida – bu "o‘ynab kuylash qo‘shig‘i" ma’nosini bildiradi), jumladan, "Yallama yorim", "Ho-ho yalla", "Qizgina" kabi xalq yallalari.

Mumtoz yallalar mumtoz she’riyat va ijrochilik madaniyati rivoji bilan chambarchas bog‘liq holda taraqqiy topgan (o‘zbek mumtoz va zamonaviy shoirlarning she’rlari so‘z matni sifatida qo‘llangan). Har bir yallada she’rlar soni kuy va hajmiga mutanosib bo‘lib, asarning kuy tuzilishi, rivoji va shaklini ta’minlaydi. Kuylari jozibali xarakterida bo‘lib, ularning rivojlanishi muayyan ohang, usluban ufar sifat ohanglar takroriga asoslangan, o‘ziga xos raqsbop o‘lchovli ritm-usulida aytiladi. Yallada zuhur etilgan raqsbop holati musiqiy omillar vositasida yana ham yorqin tus olgan, uning jonli va raqsbop usuli o‘zigaxoslikni ta’minlaydi. Yallalarning ta’sirchanligi – hamma vositalarni bir-biri bilan chambarchas holda mahorat va xushkayfiyat bilan ijro etilishidadur.

Mumtoz yallalar yakkanavoz tarzida cholg‘u ansambli jo‘rligida aytilgan; mumtoz va bastakorlik ijodiyotida keng o‘rin olgan.




O‘zbek ijrochilik san’atida Ma’murjon Uzoqov, Tavakkal Qodirov kabi xonandalar repertuarlarida yallalar salmoqli o‘rin olib, keng omma orasida targ‘ib etilgan, jumladan, "Qalam qoshliging" (yoki "Jonon bo‘laman"), "Mustahzod" (M.Harratov ijodi), "Dog‘man", "Surating", "Parvo etib ket", "Yakka bu Farg‘onada", "Ko‘zlaring" (M.Mirzayev ijodi) va boshqalar.




Namanganda yalla turkum (Katta yalla va kichik yalla)lari mavjud bo‘lib, yallachi ayollar tomonidan doira jo‘rligida to‘y marosimlari va bazmlarda ijro etilgan. Ijrochilik amaliyotida ashula va yalla turkumlari ham mavjud, jumladan, "Yor istab" va "Mustahzod", "Farg‘ona ruboyisi" va boshqalar.

Hozirgi kunda yallalar estrada yo‘nalishida ham ijro etilmoqda. Hamma xonandalar reperturadan mumtoz ashula va mumtoz yalla keng o‘rin olgan.

## 2.2. Katta ashula



Katta ashula qadimiy musiqa janrlaridan biri bo‘lib, uning kelib chiqishi hozirgi kunda mutaxassislar o‘rtasida ko‘plab bahs va munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Ba’zi musiqashunoslar bu janrni “diniy mazmundagi so‘zlar bilan aytilgan musiqalar bilan bog‘liq” desa, boshqalari “katta ashulachilik she’rlarni baland ovozda, yuqori pardada kuylash orqali vujudga kelgan”, degan fikrni bildiradilar.[13] Mutaxassislar orasida ushbu san’atni qadimda kambag‘alchilik davrlarda paydo bo‘lgan, uni musiqiy sozlarni sotib olishga qurbi etmagan baland ovozli xonandalarning san’ati, deb talqin etuvchilar ham yo‘q emas. Ayrim san’atkor yoshlarimiz katta ashula deganda, g‘azalning biror bir kuyga tartibsiz ravishda solingan, usulsiz ravishda badihali kuylanadigan ohang deb nomlashga urinishyapti. Achinarlisi shundaki, ko‘pchilik bu qorishiqni katta ashula deb qabul qilmoqdalar. Aslida esa, katta ashula ma’lum mezon va qonuniyatlarga asoslangan, asrlar osha shakllanib ustoz xonandalar tomonidan asrab-avaylab rivojlantirib kelinayotgan mustaqil va etuk o‘zbek mumtoz musiqasining janrlaridan biridir. Katta ashula Farg‘ona vodiysida shakllangan va ashula ijrochiligining alohida yo‘nalishi hisoblanadi. Shu bilan birga katta ashula, ijro amaliyotida charxlanib, o‘z davrining mohir san’atkorlarini tarbiyalagan va ashula ijrochiligi san’atiga xos

[13] /meros.uz/object/katta-ashula

bo‘lgan bir qator unsurlarni mukammal tarzda o‘zida mujassam etgan katta maktabdir. Zotan, uning ijrochilik mezonlari ham xonandalardan katta iste’dod, ovoz, idrok, zukkolik, badihaviylik va mahorat talab etadi. Bu nafis san’atning bilimdonlari, yaxshi biladigan, mukammal egallagan ustozlardan o‘rganish, shunga munosib targ‘ib etish va shu yo‘lda yangi namunalarni ijod etish juda ahamiyatlidir. Eng muhimi zamonaviy ijrochilarni tarbiyalash, katta ashulachilarning yangi avlodini tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir.

Katta ashula san’ati ma’lum tarixiy jarayonlarni boshdan kechirgan, xalqning ijtimoiy, siyosiy hamda ma’naviy ehtiyojlari o‘laroq, hayotida o‘z izini qoldirib kelayotgan betakror aytimlar sirasiga mansub.

Ma’lumki, katta ashulalar o‘zining ijodiy yo‘llarida ikki uslubda ijod etilib kelingan. Birinchisi maqom pardalariga mos va muayyan qoidalari asosida yuzaga kelgan katta ashulalar, ya’ni musiqiy til bilan aytganda maqom pardasida ijro etilgan. Ikkinchisi, bastakorlar tomonidan turli uslublarga moslashtirib yaratilgan katta ashulalardir.

Darhaqiqat, katta ashula janri musiqiy merosimiz namunalari ichida alohida o‘rin tutadi. Bunday deyishimizga sabab, janr xususiyatidan kelib chiqib, bu xonandalik san’ati bilan bog‘liq va musiqiy sozlarsiz ijro qilinadigan mukammal janrdir. Katta ashulachilar musiqiy soz o‘rniga qo‘llariga likopchalarni ushlab aytganlari uchun, amaliyotda likopiy ashula ham deyiladi.

Amaliyot davomida ashula nomiga “yovvoyi” atamasining qo‘shib aytish ham rasm bo‘lgan. Buning sababi ham asarda doira yoki boshqa bir musiqiy cholg‘uning ishtirok etmasligidir. Shunga qaramay xonandalar muayyan usulni ijro davomida saqlab turadilar. Masalan, “Yovvoyi Chorgoh” musiqiy namunasi. Yovvoyi so‘zi asar usuliga nisbat berilsa, chorgoh atamasi esa maqomot safidagi ma’lum pardalar majmuasini anglatadi.

Aniq tushunchaga ega bo‘lish uchun bu asarni chuqurroq tahlil qilib ko‘ramiz. Katta ashula uslubida ijro etiladigan “Yovvoyi Chorgoh” uch xonanda tomonidan ijro etilib kelingan. (Vaziyat taqozo etganda ikki hattoki to‘rt ijrochi tomonidan ham ijro etilishi mumkin). Dastlab daromad va miyonhatida aniq usul likoplarda bildirilib, uchchala xonandalar birga ijroni boshlaydilar.

“Yovvoyi chorgoh” katta ashulasi tarkiban usulga asoslangan va asoslanmagan ichki tarkibdan tashkil topgan. Bu bo‘laklar ashulaning ichki qoidalari zaminida xos qilib ijro etiladi. “Yovvoyi Chorgoh” o‘ziga xos daromad bilan boshlanadi va bu daromad ashulaning falsafiy mag‘zi hisoblanadi. Shu bois daromad o‘ta bosiqlik bilan va katta salobat bilan ijro etiladi. Asarnipng o‘rta avj va dunasr qismlarida dastlab, usulsiz qismida ovozi nisbatan pastroq bo‘lgan xonanda bir xatini ijro etadi, xat yakuniga etmay turib uning oxirgi harflaridan ovozi nisbatan yuqoriroq bo‘lgan xonanda ikkinchi xatni ulab ketadi. Xuddi shu ko‘rinishda uchinchi xonanda ikkinchi xonandaning so‘zlarini ulab, keyingi xatni ijro qiladi va to‘rtinchi xatdan boshlab uchchala xonanda yana birgalikda davom ettiradilar.

Asar ijrosi avjiga kelganda yana usulsiz qismi boshlanadi. Endi ovozi eng baland bo‘lgan xonanda ijroni davom ettiradi. U yuqori pardalarni chiroyli qochirimlar

bilan olib kelib, ovozi nisbatan pastroq bo‘lgan xonandaga ijroni topshiradi. U ham o‘z navbatida birinchi xonandaning ovozini keyingi xatga ulaydi. Uchinchi xonanda ham shu tariqa davom ettiradi va yana birgalikdagi ijro usuli bilan purovard qismi yakunlanadi.

“Yovvoyi chorgoh”ning nafaqat ladlari va pardalari maqomlardan olingan, balki musiqiy yo‘llari ham aynan maqomlardandir. Asarning maqomlardagi chorgohlardan farqi faqatgina ijro uslubida namoyon bo‘ladi. Chorgoh pardalari majmuasining musiqiy sozlarsiz ijro turi aynan shunday bo‘lishi kerak. Keyingi davrlarda katta ashulaning cholg‘u asboblar bilan jo‘r bo‘lib aytish ham rasm bo‘la boshladi. Lekin, cholg‘u sozlari jo‘rnavozlik xususiyatini kasb etadi.

Hozirgi kunga qadar katta ashula janrining qayerda va qachon kelib chiqqani haqida aniq dalillar topilgan emas. Mutaxassislar va xonandalarning turli manbalardagi katta ashula haqidagi fikrlari musiqashunos olim Rustam Abdullayevning “Katta ashula janri va ijrochilari” deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasida keltirilgan. Jumladan, sharq musiqashunosi Belyayev “katta” deganda asarning so‘zlari ochiq va ma’nolari kattaligiga urg‘u beradi, Uspenskiy va qo‘qonlik hofizlar esa katta ashula “Samo’” ma’nosiga yaqin bo‘lib, shunday musiqalardan kelib chiqqanini ta’kidlaydi. Mashhur katta ashula ijrochilaridan Akbarali Boboyev, Mamadali Yusupov, Sobirjon Azizov, Saidali Hoshimovlar bu san’atni katta xonalarda hamda ochiq havoda musiqiy sozlarsiz ijro etilgani uchun katta ashula deyishgan. Maqsud Hamidov, Inomjon Isroilov, Odiljon Yusupov, Mamadaziz Umarov, Erkin Haydarov, Orif hoji Alimahsumov va boshqa xonandalar bu janrning ijrochi ovozlari kuchli ampulada katta bo‘lishi lozimligi, har–bir eshituvchini mahliyo qilishi bilan ushbu nom berilgan degan fikrni bildirganlar. Muxsinjon Mirzaxo‘jayev, Temurbek Baratovlarning nazarida esa katta ashula janrining she’rlari qadimda juda chuqur, purma’no, diniy bo‘lganligi, avjlari ham juda yuqoriligi sababli katta atamasi qo‘shilgan. Bu janrga nisbatan yana “patnis ashula”, “patnisaki ashula” nomlari ham qo‘llaniladi. Bunday nomlanish aslida xonandalar likopcha yoki temirli patnislarni qo‘llarida ushlab aytganlari sababli yuzaga kelgan. O‘zbek musiqasi tadqiqodchilari va katta ashula ijrochilari bu janrning barcha sifatlarini hisobga olgan holda ya’ni musiqiy yo‘lning uzunligi, she’riy matnning ma’nodorligi va boshqa hislatlari uning nomlanishiga mos ekanligini ta’kidlaydilar.

Endi esa katta ashulalardan biri bo‘lgan “Yovvoyi Ushshoq” asarini tahlil qilishga harakat qilamiz. Asar ijrosi davomida doira yoki boshqa biron bir musiqiy cholg‘ulardan foydalanilmaydi, shuning uchun ham uning nomlanishiga “yovvoyi” atamasi qo‘shilgan. Katta ashulalarda garchi doira sozi ham ishtirok etmasa–da xonandalar usulni, ya’ni ritmni ijro davomida saqlab turishadi.

“Yovvoyi Ushshoq”ning daromad qismi ikki xonandaning navbatma-navbat ijrosi bilan boshlanadi. Miyonxat va dunasr qismlari ham ikki xonandaning bir birini to‘ldiruvchi g‘azal baytlari bilan davom ettiriladi.

Bu ko‘rinish uch marotaba takrorlanadi va so‘nggi takrorlanishi eng yuqori avji bilan ijro etiladi. Asar pirovard ya’ni yakunlovchi qismi bilan tugallanadi.

Ma’lumki, “Ushshoq” atamasi oshiq so‘zining ko‘plikdagi ma’nosidir. Bu ruhiyat asarning ijrosi jarayonida muttasil davom etib turadi.

Katta ashulalarning kelib chiqish tarixini mutaxassislar turlicha tahmin qiladilar. Manbaalarning birida: “Katta ashulalarning she’rlari faqat aruz vaznidadir. Shuning uchun bu janrning kelib chiqishi arablar istilosidan keyingi davrga to‘g‘ri keladi. Chunki, aruz vazni bizga arablardan kirib kelgan. Undan oldin faqat barmoq vaznidagi she’rlar bo‘lgan”, - deb yozilgan. Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Nima uchun katta ashula faqatgina vodiy xonandalik maktablarida mavjud? Axir qadimda Samarqand, Buxoro va Xorazmda musiqa san’ati rivojlanganroq edi–ku? Ayniqsa, Buxorodagi buyuk madrasa va xonaqohlardagi musiqiy ta’limot va ilm peshvolari o‘sha davlarda yagona sanalar edi–ku? Shuni aytishimiz mumkin–ki, katta ashula janriga o‘xshash ya’ni, cholg‘u sozlarsiz ijro etiladigan janrlar mamlakatimizning boshqa vohalarida ham mavjud. Misol uchun Xorazm dostonlaridagi rechitativ, ya’ni, nutq bilan aytiluvchi qismi, Buxoro mavrigisi va Buxorcha janrlarining boshlanish, doira usulisiz qismi, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalaridagi mavjud aytim ya’ni eslash, yod olish kabi kuylash janrlari mavjud. Ammo Toshkent–Farg‘ona katta ashula janri bu borada nisbatan mukammal va o‘ziga xosdir. O‘zbek milliy musiqasi benihoya boy va go‘zaldir. Uning nodir janrlaridan biri bo‘lgan katta ashulachilik san’ati o‘ziga xos tarixga ega.

Ma’lumki, katta ashula janrining kelib chiqishi haqida mutaxassislar turli dalillarni aytadilar. Manbaalardan birida yozilishicha, katta ashula ikki va undan ortiq xonandalarning musobaqasi orqali shakllangan. Ko‘rik-tanlovning o‘ziga xos shartlari bo‘lgan: birinchidan, katta ashula ijrochilari boshlaydigan pardalarini va o‘z ovoz ko‘lamlarini aniq bilishlari lozim, aks holda avj qismiga eta olmay qiynalib qolishlari mumkin. Bu xonandalardan eshitish qobiliyatining o‘tkirligini talab etadi. Ikkinchidan, aniq doira usulisiz ashula aytish xonandalar uchun badihago‘ylikda va ovozlar go‘zalligini namoyon qilishda yanada erkinlik yaratib beradi. Bu xonandalardan kutilmagan nola va qochirimlar orqali yurak dardini ko‘rsatib bera olishni talab etadi. Uchinchidan xonandalar ashulaning so‘zlarini esidan chiqarib qo‘ysalar, barcha xonandalarda uchraydigan holat, boshqa so‘zlarni aytish va yamlash orqali sozlarini balandroq chalib, ovozlarini pastroq chiqaradilar. To‘g‘ri ma’noda, sozning orqasiga berkinadilar. Katta ashulada esa buning hech iloji yo‘q. Demak, so‘zlarni yodda saqlash ham tanlovning muhim jihatlaridan biridir. Bundan tashqari, aruz vazni tuzilmasini ya’ni ritorikasini yuqori ovozda ma’lum qonuniyatlar bilan to`la–to‘kis ijro etish ham asosiy vazifalardan biri bo‘lgan. Uning musiqiy pardalari o‘zgarishi, maqomlar pardalariga moslanishi keyinchalik paydo bo‘lgan omillardandir.

Bastakorlar tomonidan yaratilgan katta ashulalarda she’rning ma’no–mohiyatiga mos ravishda pardalar va musiqiy yo‘l tanlanadi. Ijrochilar esa ba’zan birgalikda yoki yakka holda ijro etishi ham mumkin. Katta ashulalarning ichida shundaylari borki, bu asarlarni ikki xonanda ijro etmasa bo‘maydi, chunki ularning so‘zlari va musiqiy matni bir ijrochi uchun qiyinchilik tug‘diradi. Masalan: Jo‘raxon Sultonov ijrosidagi “Oh kim”, “Ko‘kardi Chaman”, “Ey sanam”, “Yodimga tushdi”, Mamurjon Uzoqov ijrosidagi “Yolg‘iz”, “Dog‘man”, “Ko‘p nozu itob etma”, “Yor istab” va bu ashulalar ketidan ularga mos pardali ashulalarni musiqiy sozlar

jo‘rligida ham ijro etganlar. Orif hoji Alimahsumov ijrosida “Ko‘p erdi”, “O‘xsharsiz”, “Ey dilbari janonim”, Fattohxon Mamadaliyev ijrosida “Topmadim”, “O`zbekistonim” kabi katta ashulalarni esa yakka holda ijro qilsa bo‘ladi.

Ma’lumki, O‘rta Osiyo xalqlarida ovoz orqali ijro etiladigan janrlar juda ko‘p. Ayni paytda ko‘p uchramaydigan folklor qo‘g‘irchoqbozlik, dostonchilik o‘sha davrlarda doira bilan va umuman cholg‘u sozisiz ijro etiladigan dostonlar ham mavjud bo‘lgan. Shuningdek, mumtoz shoirlarning o‘tkir g‘azallarini o‘quvchi xonandalar hozirgacha saqlanib kelgan qo‘shiq, lapar, yalla, aytishuv janrlari, uch voha maqomining aytim yo‘li saqlanib qoldi va ijodiy izlanishlarga sabab bo‘ldi. Mutaxassislarning aytishicha, katta ashulalar faqat aruz vaznidagi she’rlar bilan ijro etiladi. Shu sababli aruz vazni haqida ma’lumot to‘plashga intildik va shunga amin bo‘ldikki, “aruz” aslida arabcha so‘z bo‘lib, she’riy vaznning turidir. Arablar bosqini davrida bizdagi mavjud asarlar, kutubxonalar yoqib yuborilgan. Hatto ilgarigi kitoblardan nom–nishon qolmagan. Aruz vaznini qayerdan qay tariqa paydo bo‘lganligini hech kim aniq isboti bilan aytib bera olmadi.

Aruz vazni, so‘z ritorikasi katta ashula ijrosida muhim ahamiyatga ega. Ammo shunday katta ashulalar ham borki, ularning she’riy vaznlari aruz emas. Ya’ni barmoq vazni yoki boshqacha aytganda terma shaklida yozilgan she’rlarga ham ijro etilgan. Bu holat esa katta ashulalar faqatgina aruz vaznida aytiladi, degan fikrni inkor etadi. Bizga she’riyatning aruz vazni kirib kelishidan oldin barmoq va shunga o‘xshash nisbatan sodda she’riy vaznlar rasm bo‘lgan. Albatta, bunday vazndagi she’rlarga ham katta ashulalar bog‘langan. Afsuski, bu ko‘rinishdagi katta ashulalar hozirgi kunga qadar saqlanib qolmagan. Barmoq vaznida ijro etilgan katta ashulalarni tiklash maqsadida yosh xonandalar izlanishlar olib bormoqdalar.

Katta ashula janri eng noyob san’at turi sifatida YUNESKO tomonidan tan olingan. Bu janrning maqom singari san’atning murakkab turi ekanligi hamda dunyoning boshqa hech qaysi davlatida yo‘qligi sabab bo‘ldi. Bu katta ashula janrining ijrosi qiyin va murakkab bo‘lganligi uchun har qanday xonanda uni ijro eta olmaydi.

## III BOB. O‘ZBEK MUMTOZ ASHULACHILIK SAN’ATI DARG‘ALARI

### OTA JALOL NOSIROV
### (1845-1928)



O‘zbek musiqa madaniyatining atoqli arbobi, Shashmaqom ijrosining bilimdoni, Ota Jalol Nosirov maqomdon ustoz sifatida san’atkorlar va shinavandalar orasida o‘z davrida mashhur bo‘lib, hozirgacha uning muborak nomi e’zozlanadi. Buxoroda birinchi musiqa maktabining ochilishi, Samarqandda musiqa bilim yurtining tashkil topishi, shashmaqomning yozib olinishi va saqlab qolinishi uning nomi bilan bog‘liqdir. Usta Shodi, Domla Halim, Levicha hofiz, Boboqul Fayzullayev, Hoji Abdulaziz kabi maqom xonandalari Ota Jalol Nosirovdan ta’lim olishgan[14].

Ota Jalol Nosirov 1845- yili Buxoro shahrining Eshon pir mahallasida tavallud topgan. Uning oilasi musiqaga moyil bo‘lib, akasi Mulla Xayrullo mahoratli maqom ijrochisi, uning o‘g‘li Karomat esa, usta kamonchilardan edi. Ana shu muhit uning musiqa bilan shug‘ullanishiga sharoit yaratib beradi. U sakkiz yoshidan musiqa bilan shug‘ullanadi va o‘sha davrning Tillaboy, Mirzo Hidoyat, Abdurahmonbek, Mir bobo singari mashhur xonanda va sozandalaridan saboq oladi. Natijada 20 yoshidayoq shashmaqomni to‘liq o‘zlashtirib oldi. Uning dovrug‘ini eshitgan Amir Muzaffarxon saroyga taklif etib, saroy hofizi etib tayinlaydi. Amir Olimxon davrida esa «Miroxo‘r» unvoni beriladi.

1920- yilda Buxoroda «Sharq musiqa maktabi» ochilib, bir qancha hofiz va sozandalar jalb qilinadi va Ota Jalol Nosirov o‘zi bosh bo‘lib shashmaqomni o‘rgata boshlaydi. 1923-yili V.A. Uspenskiy Ota Jalol Nosirov va Ota G‘iyos Abdug‘aniyevlardan Shashmaqomning barcha turkumlarini yozib oladi. Shashmaqomning o‘sha davrda notaga olinishi va 1924-yilda nashr qilinishi katta voqea sifatida baholanadi va keyingi notalashtirish jarayonlariga yo‘l ochib beradi.

Ota Jalol Nosirov faqat xonanda va sozanda, balki bastakor sifatida ham ijod qilganligi manbalarda ko‘rsatiladi. Ustoz Shashmaqomning mushkilot qismlarini tartibga solgan ayrim sho‘balarini kengaytirgan va qo‘shimcha qismlar bastalagan. Segoh maqomi ijrosiga savt usuli bilan bir necha qismli sho‘ba bastalagan. Ushbu sho‘ba ijrosi «Savti jaloliy» deb nomlanadi.

1925-yilda Ota Jalol Nosirov Samarqandga taklif etiladi. Bu erda yoshlarga maqom ijrolarini va yo‘llarini o‘rgatadi, konsertlarda ishtirok etadi. Hoji Abdulaziz,

---

[14] http://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/ota-jaloliddin-nazirov-1845-1928/

Yunus Rajabiy, Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Shorahim Shoumarovlar bilan ijodiy muloqotda bo‘ldi va ular ustozdan Shashmaqom yo‘llarini o‘rganadilar va maslahatlar olib turadilar. Ota Jalol Nosirov ijrochilik uslubidan bahramand bo‘lgan o‘nlab shogirdlar, keyinchalik maqom ijrochiligi san’atining rivojiga katta hissa qo‘shdilar.

Ota Jalol Nosirov musiqa madaniyatimiz tarixidan Shashmaqom bilimdoni va targ‘ibotchisi, mashhur hofiz va sozanda ko‘plab maqom ijrochilarining ustozi sifatida o‘zidan o‘chmas nom qoldirgan ulug‘ san’atkordir.



## HOJI ABDULAZIZ ABDURASULOV (1854-1936)

Hoji Abdulaziz Abdurasulov mashhur hofiz va bastakor sifatida shuhrat qozongan bo‘lib, Samarqand shahrida ko‘k masjid mahallasida to‘quvchi oilasida tavallud topgan. Uning musiqaga bo‘lgan havasi yoshlikdan boshlanib, tanburchi Hoji Rahimqulga shogird bo‘lib tushadi va maqom yo‘llarining ijrochisi Boruh hofizdan ashulalar o‘rganadi va birga kuylay boshlaydi[15].

Keyinchalik Shashmaqomni mukammal o‘rganish maqsadida Buxoroga borib, mashhur maqomdon ustoz Ota Jalol Nosirovdan saboq oladi. Abdulaziz ikki marta Makkaga haj safariga boradi va safar davomida turli millat kuy va qo‘shiqlari bilan tanishadi. Hoji Abdulaziz tanburni juda yaxshi chertsa-da, ashulalarni ko‘proq duetlar jo‘rligida ijro etardi. Uning dasturlaridan yuzlab ashulalar o‘rin olgan bo‘lib, hofizlikdan tashqari bastakorlik bilan ham shug‘ullanardi. U yaratgan «Guluzorim» «Bozurgoniy», «Beboqcha» «Qurbon o‘lam» ashulalari el orasida mashhur ijro sanaladi.

1909-yilda uning ijrosida Riga «Grammafon» firmasi «Iroq», «Nasrulloyi», «Ushshoqlar»ni yozib olgan. 1928-yilda Samarqand musiqa va xoreografiya institutiga ishga olinadi va u erda bo‘lg‘usi mashhur sanhatkorlar M.Ashrafiy, T.Sodiqov, M.Burxonov, D.Zokirov va boshqalar uning ijodidan bahramand bo‘ladilar.

Ustoz san’atkor maqom ijrolarini boyitib, jumladan «Ushshoq»ni «Samarqand ushshoqi», «Qashqarchai ushshoq» yo‘llarini va yana bir necha ijrolarini yaratadi. Ustoz juda ko‘p shogirdlar etishtiradi.

Mashhur san’atkor Yunus Rajabiy shunday eslaydi:

-Poytaxt Samarqand shahridagi paytlarda, Rizqi Rajabiy, Imomjon Ikromov va yana bir qancha san’atkorlar Hoji akaning uylarida yashab qo‘shiq o‘rganardik. Men  Hoji aka aytgan qo‘shiqlardan ta’sirlanib ertalabgacha uxlay olmasdim va birorta kuyni dilimga joylash uchun sekin hirgoyi qilib takrorlardim. Bordi-yu, biror joyni xato qilsam bormi, Hoji aka yotgan joyida menga qayrilib, «Hoy Yunusvoy, undoq emas, mana bundoq bo‘ladi» ,- deb o‘zlari aytib berardilar.

---

[15] Mannopov S. “O‘zbek musiqa madaniyati”. O‘quv  qo‘llanma. Toshkent : “Yangi asr avlodi”-2004.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijrosida qator qo‘shiqlar gramplastinkalarga, radio tasmalariga yozib olingan. Ustoz hofiz sakson yoshda ham 1933-yil fevral oyida bo‘lgan O‘zbekiston san’atkorlarining birinchi slyotida qo‘shiq aytish baxtiga muyassar bo‘lgan. Shu kuni hoji Abdulaziz Abdurasulov va domla Halim Ibodovga «O‘zbekiston xalq hofizi» faxriy unvoni berildi. Ustozning tabarruk nomi mustaqillik yillarida ham e’zozlandi, Prezidentimiz Farmoni bilan «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berildi. Uning nomida Samarqand shahrida yosh xonandalarning respublika ko‘rik- tanlovi o‘tkazib turiladi.



## MADALI HOFIZ RAHMATULLO O‘G‘LI

## (1867-1930)

Farg‘ona an’anaviy ijrochiligining mohir bilimdoni Madali hofiz Shahrixon shahrida tug‘ildi. Otasi asli kosib bo‘lib, diniy ilmlarni puxta egallagani uchun Rahmatillo Qori nomi bilan mashhur edi. O‘g‘li Madalibekni ham kosiblikka berdi. Lekin qo‘shiqqa bo‘lgan havas uni mashhur tanburchi hofiz Nurohun akaga ergashtirdi.

Zamondosh shoirlar Oraziy, Hayratiylar bilan hamkorlik qiladi. O‘sha davrda Marg‘ilonda gullab-yashnagan madaniy muhit uni o‘ziga chorladi va shu erdan uylanib, muqim yashab qoldi. Bu erda Yusuf qiziq, Matholiq hofiz singari san’at darg‘alari bilan yaqindan tanishdi. Uning ovozi shu qadar baland bo‘lgan ekanki, «Madali hofiz Marg‘ilonda qo‘shiq aytsa, simda (Farg‘onada) eshtiladi»,- degan ibora xalq ichida mashhur bo‘lgan.

Muqimiy, Zavqiy, Xaziniy, Pisandiy, Rojiy kabi mashhur shoirlar bilan ijodiy hamkorlik qiladi. Ularning g‘azallari zamirida qator qo‘shiq va yallalar yaratadi. Ayniqsa, Muqimiy g‘azallari bilan aytiladigan «Abdurahmonbegi» qo‘shiqlar majmuasi hozirgacha sevib kuylanadi. Hofiz «Chormaqom»ning mashhur ijrochisi sifatida xalq orasida mashhur bo‘lgan.

Madali hofiz «Qalandar»lar, «Tanovor»lar, qo‘shiq va yallalarni to‘plab o‘zi ijro qildi va shogirdlarga o‘rgatdi. Hatto Mulla To‘ychi Toshmuhammedov ham Madali hofizning oldiga kelib qo‘shiqlar o‘rganib ketar ekan. Buning dalili sifatida Mulla To‘ychi hofiz Madali hofizga shoir Xislatning «Armug‘oni Xislat» bayozini sovg‘a tariqasida berib ketgan ekan. Bu bayoz hozirgacha ustozning farzandlarida saqlanib keladi.

Madali hofiz o‘zbek qo‘shiqchilik san’atiga yalla yo‘llarini olib kirdi. «Shashmaqom»ning «Buzruk» maqomidagi «Savti sarvinoz» hamda «Segoh» sho‘balarining muallifi sifatida, Madalibek nomi «O‘zbek xalq musiqasi» kitobida ko‘rsatib o‘tilgan.

1912-yilda «Robert Kens» firmasi ekspeditsiyasi davrida hofizning «Abdurahmonbegi» qo‘shiqlar majmuasini plastinkaga yozib oladi. Bu plastinka hozirgacha hofizning o‘g‘li, taniqli bastakor Mamasiddiq Madaliyevda saqlanadi.

Madali hofiz har bir qo‘shiqni talabchanlik bilan mohirona ijro etgani va shogirdlaridan ham shunday talab qilgani uchun «Noyob» degan tahallusga ega bo‘lgan edi. Madali hofiz oltmish uch yil umr ko‘rib, Marg‘ilon shahrida vafot etdi. O‘zining vasiyatiga ko‘ra Xo‘jamahoz mozoriga dafn etilgan.

## TOShMUHAMEDOV TO‘YChI HOFIZ



Tavallud topgan sana: 1968- yil
Vafot etgan sana: 1943- yil
Tug‘ilgan joy:Toshkent
Yo‘nalishlar: Qo‘shiqchilar

To‘ychi Hofiz Toshmuhamedov (1868 – 1943) mashhur o‘zbek qo‘shiqchisi, hofiz, xalq musiqasi va maqom bilimdoni, Farg‘ona va Toshkent ijro san’ati namoyandasi. Mehnat Qahramoni (1927), O‘zSSR xalq qo‘shiqchisi (1927). Mulla To‘ychi 1868-yil Toshkentda kosib-to‘quvchi oilasida tug‘ilgan. Bolaligidan To‘ychi otasiga ustaxonada yordam bergan, uning vafotidan so‘ng madrasada mardikorlik qilgan, so‘ngra mahallada oshpazlik qilgan. O‘rta maktabni tamomlagan[16] (1878 – 1884). Narzixan hofiz, Madumar hofiz va Abduqahhor hofizlarni o‘z ustozi deb bilgan. Keyinchalik mahoratli ijroda ulardan ham o‘zib ketgan.

Tez orada, Mulla To‘ychi O‘zbekistonning sevimli xonandalaridan biriga aylanib, xalqda To‘ychi hofiz nomi bilan mashhur bo‘ladi. 1905-yil Moskvadan kelgan mutaxassislar Mulla To‘ychi Toshmuhammad ijrosida 20 dan ziyod xalq musiqa ijrosini yozib olishadi, ular orasida: “Ilg‘or” (ikki qismi), “Yangi kurt”, “Avji kurt”, “Suvora” (ikki qismi), “Hisrav” (ikki qismi). Xalqda bu plastinkalar “Mulla To‘ychi plastinkalari” nomi bilan atalgan.

1912- yil u vaqtlar mashhur bo‘lgan To‘ychi hofizga bag‘ishlangan “Armug‘on Hislat” jamlanmasi omma e’tiboriga havola etiladi. U o‘zbek shoiri Hislat tomonidan tashkil etilgan (1882—1945).

“Armug‘oni Hislat” jamlanmasi o‘z ichiga har xil shoirlarning asarlarini olib, unda 100 dan ziyod she’rlar mavjud. Ularning ko‘pi Mulla To‘ychi repertuariga tegishli. Jamlanma muallifi hofiz kuyga solgan qo‘shiqlarni ham saqlab qolgan.

Agar Oktyabr inqilobidan avval xonanda kichik davralarda ishtirok etgan bo‘lsa, sovet davrida uning iqtidori keng ommaga namoyon bo‘lgan: u katta konsertlarda ishtirok etadi. 1923-yil Toshmuhamedov musiqachilar guruhi bilan Moskvadagi Butun Rossiya qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasida ishtirok etishadi. Ushbu guruhga o‘z davrining taniqli artist va musiqachilari kirgan: Yusuf Qiziq Shakarjonov, Abduqodir Ismoilov, Ahmadjon Umurzoqov, To‘xtasin Jalilov va boshqalar. To‘ychi hofizni keyinchalik Moskvaga chaqirib, uning ijrosidagi o‘zbek xalq qo‘shiqlarini yozib olishadi.

[16] https://arboblar.uz/uzkr/people/tashmukhamedov-tujchi-khafiz

1928-yildan umrining oxirigacha Mulla To‘ychi Toshmuhamedov O‘zbekiston radio qo‘mitasida qo‘shiqchi-solist bo‘lib faoliyat yuritadi. 1927-yil O‘zbekistonda Mulla To‘ychining ko‘p yillik ijro faoliyati keng nishonlanadi, qo‘shiqchiga Mehnat Qahramoni va xalq qo‘shiqchisi unvoni beriladi. 1931-yil Mulla To‘ychi taniqli qo‘shiqchilar Dumilla Halim Ibadov va Hoji Abdulaziz Rasulovlar bilan I respublika san’at ishchilari yig‘ilishida Navoiy so‘zlariga yozilgan “Iroq” dostoni va bir nechta xalq qo‘shiqlarini ijro etishadi.

Moskvada bo‘lib o‘tgan o‘zbek san’atining birinchi dekadasida Mulla To‘ychi Butunittifoq radiosiga taklif etiladi va magnitofonga “Bayot” hamda “Ushshoq” maqomlari yozib olinadi. Maqomlar va yirik shakldagi qo‘shiqlar ijrosi uchun mahoratli tayyorgarlik, yaxshi ovoz, boy musiqiy xotira talab qilingan: u juda katta hajmdagi kuy, usul va matnni eslab qolishi kerak bo‘lgan.Toshmuhamedov xalqda shuhrat qozongan.

V.A.Uspenskiy tomonidan Toshmuhamedov ijrosida maqomlar yozib olingan: “Chorgoh”, “Bayot”, “Ko‘chabog‘i”, “Suvora” va boshqalar. Ushbu yozib olingan asarlar “O‘zbek vokal musiqasi” to‘plamidan joy olgan. “Hurmat belgisi” ordeni va medallar bilan taqdirlangan. Qashqardaryo musiqali drama teatrining nomi ajoyib xonanda Mulla To‘ychi Toshmuhamedov sharafiga nomlangan. Toshkentdagi granplastinkalar zavodi ham Toshmuhamedov nomi bilan atalgan.



## *DOMLA HALIM IBODOV*

**(1878-1940)**

An’anaviy qo‘shiqchilik san’atimizning yorqin namoyandalaridan biri Domla Halim Ibodov Buxoro shahrida to‘quvchi oilasida dunyoga keldi. O‘n yoshidan taniqli xonanda va sozanda Usta Sharof rahbarligida doira chertib, xalq qo‘shiqlarini ijro eta boshladi.

Ustoz unga sekin-asta «Shashmaqom» namunalaridan tanishtira boshladi va mashhur san`atkorlar Ota Jalol va Ota G‘iyoslar bilan yaqindan tanishishiga yordam berdi. O‘n sakkiz yoshidayoq Buxoroda etuk xonanda bo‘lib elga tanildi. U maqom namunalarini jozibali ovozi bilan ijro etar, shinavandalar qalbida zavq-shavq uyg‘otardi. O‘zi ustoz bo‘lib yoshlarga ashula, doira usullaridan dars berardi. 1923-yilda Moskvada birinchi qishloq xo‘jalik ko‘rgazmasida Yusufjon qiziq Shakarjonov, Mulla to‘ychi Toshmuhammedov, Ahmadjon Umrzoqov, Shorahim Shoumarov, G‘ulom Zafariy, Abduqodir Ismoilov, To‘xtasin Jalilovlar bilan birgalikda qatnashib zo‘r muvaffaqiyatlarga erishdi. Safardan qaytgach, mashhur xonanda haqida mana shunday misralar ham bitildi:

***Moskvaga Domla Halim qildi safar,***
***Qo‘shiq bilan unda topti ko‘p zafar.***

1928-yilda Samarqandda musiqa va xoreografiya instituti ochilishi munosabati bilan Domla Halim Ibodov bu erga taklif qilinadi va musiqashunos N.N.Mironov undan «Shashmaqom»ning ko‘pgina namunalarini yozib oladi.

Samarqandda u atoqli bastakor va xonanda Hoji Abdulaziz Abdurasulov bilan birga hamnafas bo‘lib, juda ko‘p konsertlarda, sayillarda ishtirok etdi.

Domla Halim Ibodov 1931-yildan boshlab O‘zbekiston radiosida ishlay boshladi. U ijro etgan «Savti Sarvinoz», «Qashqarchai ushshoq» «Iroq», «Nasrulloi», «Mo‘g‘ulchai dugoh», «To‘lqin», «Navro‘zi Sabo» singari ashulalar hozirgacha oltin fondda saqlanadi. 1933-1934-yillarda musiqashunos Ye.E.Romanovskaya Domla Halim ijrosida qator kuy va qo‘shiqlarni, maqom yo‘llarini yozib oladi. Ustoz qator anjumanlarda, jumladan, 1932-yilda Respublika san`at qurultoyida, 1936-yilda san’atkorlarning I Respublika konferensiyasida, 1937-yilda Moskvada birinchi o‘zbek dekadasida qatnashib, zo‘r muvaffaqiyatlarga erishdi.

U juda ko‘p iqtidorli shogirdlarga ustozlik qildi. Yunus Rajabiy, Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqov, Mutal Burxonov, Mardon Nasimov, Doni Zokirov, Sharif Ramazonov, Nabijon Hasanov, Olimjon Halimov (hofizning o‘g‘li, O‘zbekiston xalq artisti, bastakor) lar shular jumlasidandir.

Domla Halim Ibodov san’atimiz oldidagi bebaho xizmatlari uchun «O‘zbekiston xalq hofizi» faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan. Endilikda uning nomi bilan atalib kelinayotgan Buxorodagi san’at bilim yurti ustoz orzu qilgan xayrli ishlarni ado etib kelmoqda.

Ustoz san’atkor, musiqiy madaniyatimizning atoqli namoyandasi Domla Halim Ibodov 1940-yilda vafot etdi. Ustozning mo‘tabar nomi, mazmundor hayotining sahifalari musiqiy san’atimiz tarixi zarvaraqlarida jilolanib, mangulik kasb etib turibdi.

## MUHIDDIN QORI YOQUBOV

## (1894-1957)



Muhiddin Qori Yoqubov o‘zbek madaniyatining atoqli arboblaridan biridir. Mashhur san`at namoyondasining hayoti va ijodini yaxliticha olib qaralsa, xalqimiz hayoti, orzu-umidlari, intilishlari, xalq san’atining rivoji bosqichlari bilan uzviy bog‘liqligini kuzatamiz. Bu jarayonda hamisha oldingi safda bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz. U san’at taraqqiyoti yo‘lida borlig‘ini sarflagan, madaniyat va san’atimizning tashkilotchilaridan biridir.

Muhiddin Qori Yoqubov Farg‘ona muzofotining Yormozor qishlog‘ida tavallud topdi. Uning otasi ziyoli odam bo‘lib, o‘g‘lini islomiy va zamonaviy bilimlar egasi bo‘lishiga harakat qildi va Farg‘ona shahrining madaniyat maskanlariga ko‘proq jalb qildi. Yoshligidanoq Yevropa madaniyatini o‘zida aks ettirgan Farg‘ona shahrining madaniy hayoti bilan qiziqdi va to‘garaklarga, jumladan, musiqa to‘garaklariga qatnasha boshladi. Nota yozuvini o‘rganadi, damli sozlar orkestrida musiqa asboblari chalishni o‘rganadi.

1916-yilda M. Qori Yoqubov Farg‘onada bir guruh havaskor yoshlardan iborat cholg‘u asboblar to‘garagini tashkil qildi. Bu to‘garakda milliy cholg‘u asboblari bilan

bir qatorda, yYevropa musiqa asboblarini chaladigan mahalliy yoshlar ham bor edi. 1918-yilda Hamza Hakimzoda Niyoziy bilan tanishadi va bu uchrashuv uning hayotida muhim ahamiyatga ega boʻldi. Ular birgalikda teatr truppasini tashkil etadilar va «Boy ila xizmatchi», «Fargʻona fojeasi», «Tuxmatchilar jazosi» p`esalarini sahnalashtiradilar va ulardagi bosh rollarni M. Qori Yoqubov ijro etadi.

1923-yilda musiqa va ijrochilik san’atini rivojlantirishdagi, madaniy hayotdagi yutuqlarni keng tashviqot qilishdagi xizmatlari uchun unga «Turkistonning birinchi xalq hofizi» unvoni beriladi. Oʻsha davrda M. Qori Yoqubov «Sharq kechalari» deb nomlangan konsert dasturi bilan turli shaharlardagi konsertlarda qatnashar va «Ushshoq», «Figʻon», «Bayot», «Koʻchabogʻ», «Chorgoh», «Dugoh», «Eshvoy», «Yoʻl boʻlsin» ashulalarini aytib olqishlarga sazovor boʻlar edi. 1925-yili Tamaraxonim bilan Parijda jahon san’at koʻrgazmasida ishtirok etadi. Soʻng Berlinga taklif qilinib, mashhur Betxoven zalida konsert beradi. Oʻsha yili Berlindagi «Fosishe, seytug» gazetasi oʻzbek san’atkorining ijrosiga shunday baho bergan edi:

- Oʻzbek xonandasi Muhiddin Qori Yoqubovning ijrosi ayniqsa katta taassurot qoldirdi. Bu san’atkorlar YYevropaning katta shaharlariga tashrif buyurdi. Koʻzlagan maqsadi oʻz xalqining noyob san’atiga qiziqish uygʻotishdir. Uning repertuarida hali notaga yozib olinmagan ikki yuzdan ziyod asriy qoʻshiqlar mavjuddir. U Parijdan Berlinga kelib mahalliy aholi oldida oʻz qoʻshiqlarini ijro etdi. Uni nihoyatda qizgʻin va hayajonli kutib oldilar.

Muhiddin Qori Yoqubov 1926-yili Margʻilonda oʻzbek etnografik ansamblini tashkil etadi va mashhur san’atkorlarni birlashtirib, barcha viloyatlarda, sobiq ittifoqning oʻnlab shaharlarida, jumladan, Moskva shahrida ijodiy safarda boʻladi. Soʻngra Moskvada 3 yil mashhur rejissyor Mayerxolpd studiyasida ta’lim oladi. 1929-yilda Muhiddin Qori Yoqubov tashabbusi bilan Davlat etnografik ansambli birinchi Oʻzbek musiqali teatriga aylantirildi. Ushbu teatrga H.Nosirova, K.Zokirov, L.Sarimsoqova, B.Mirzayev, Tamaraxonim, M.Turgʻunboyeva, M.Ashrafiy singari san’atkorlar jalb qilindi va shu yoʻsinda oʻzbek milliy operasini yaratishga zamin tayyorlandi. Keyinchalik shu sahnada «Er targʻin», «Boʻron», «Layli va Majnun», «Mahmud Tarobiy», «Ulugʻ kanol», «Farhod va Shirin», «Ulugʻbek» kabi operalarda etakchi partiyalarni ijro etdi.

Oʻzbekiston Davlat filarmoniyasining tashkil etilishida ham Muhiddin Qori Yoqubovning xizmatlari katta boʻldi. 1936-1947-yillarda filarmoniyaning direktori va badiiy rahbari boʻlib ishladi, juda koʻp san’atkorlarni bu dargohga jalb etdi, yosh ijodkorlarga ustozlik qildi. Oʻzi ham sahnaga chiqib «Ililla yorim», «Gʻayra-gʻayra», «Bilakuzuk», «Olmacha anor», «Suv boʻyida» kabi xalq qoʻshiq, lapar va hajviy aytishuvlarini mohirlik bilan ijro etdi. Hozirda bu jamoa uning nomi bilan ataladi. 1937-yilda Muhiddin Qori Yoqubovga «Oʻzbekiston xalq artisti» faxriy unvoni berildi.

Sobiq shoʻro siyosati shunday buyuk san’atkorni ham oʻz domiga tortadi va umrining soʻnggi bir necha yilini qamoqda oʻtkazadi. Qamoqdan qaytib kelgach, dardga chalinib, 1957-yil 2-fevralda vafot etadi. Mustaqillik sharofati bilan oʻzbek san’atining bu fidoyisiga Prezidentimizning Farmoni bilan «Buyuk xizmatlari

uchun» ordeni berildi. Butun umrini xalq san’ati rivojiga bag‘ishlagan bu fidoyi san’atkorning nomi tarix zarvaraqlarida hamisha nur sochib turadi.

**LUTFIXON AYA SARIMSOQOVA (1896 – 1991)**



Lutfixonim Sarimsoqova O‘zbek teatr san’atining yorqin yulduzlaridan biri, Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri aktrisasi.[17]

1896-yilda Farg‘ona viloyati Rishton tumanidagi Rishton qishlog‘ida tug‘ilgan. Mehnat faoliyatini 1925-yil boshlagan, Qo‘qonning mahorat sahnasida ishtirok eta boshlagan. Andijon va Farg‘ona teatrlarida ishlagan.

1934-1939 - yillar – aktrisa O‘zbek musiqali teatr truppasida.

1941-1973- yillar – Muqimiy nomidagi O‘zbek musiqali teatri aktrisasi (Toshkent).

1931- yildan kinoda suratga tusha boshlagan (“Amirlikning qulashi”(1955), “O‘g‘lonlar olg‘a yurishadi”(1959), “Sen etim emassan”(1962) va boshqalar).

Lutfi Sarimsoqovaning ijodi xalq hayoti bilan bog‘liq. U ko‘plab o‘zbek ayollarining timsollarini gavdalantirib, farzandining baxti uchun kurashuvchi chuqur ona timsollarini yaratgan, masalan, teatrda: “Ikki kommunist” – Kumush xola, “Gulsara” – Oysara, “Nurxon” – Kimyo, kinoda: “Qasam” – Azimning onasi, “Asal” – Asalning onasi, “Sardor chaqirig‘i” – Rustamning onasi, “Qutlug‘ qon” – Yo‘lchining onasi, “Mahallada duv-duv gap” – Mehrixon, “Uchrashuvlar va vidolashuvlar” – Hafizning onasi, eng katta shuhratni “Sen etim emassan” filmidagi Fotima opa roli olib kelgan. Shuningdek, o‘tkir fe’l-atvorli rollarni ham maromiga etkazib o‘ynagan. Eng yaxshi rollari orasida, shuningdek, Shirin, Yosuman (Xurshidning “Farhod va Shirin”), Maysara (Hamzaning “Maysaraning ishlari”), Lutfixon aya xonanda sifatida yuzdan ortiq ashula, laparlar ijro etgan. Ular “Uyg‘on bolam”, ”Alla bolam” va boshqalar.

Lutfi Sarimsoqova 1991- yil 14 - yanvar kuni Toshkentda vafot etgan.

**Mukofot va sovrinlari**

- O‘zbek SSR xalq artisti (1937)
- SSSR xalq artisti (1967)
- Lenin ordeni
- Qizil Mehnat Nishoni ordeni
- Oktyabr inqilobi ordeni
- “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni (O‘zbekiston) (2001 — o‘limidan so‘ng)
- Medallar
- O‘zbekiston SSR Oliy Kengash rayosatining faxriy yorliqlari.

[17] kh-davron.uz/.../hamidulla-akbarov-lutfixonim-sarimsoqova

Ijodi

**Teatrdagi rollari**

- 1928 — “Ikki kommunist” K. Yashin — Kumush xola.
- 1933 — “Layli va Majnun” Xurshid, T. Sodiqov musiqasi — Layli.
- 1935 — “Gulsara” K. Yashin va M. Muhamedovlar, T. Jalilov musiqasi — Oysara.
- 1937 — “Farhod va Shirin” Xurshid, V.A. Uspenskiy musiqasi. — Shirin, jodugar Yosuman.
- 1938 — “Arshin mol olan” U. Gadjibekov musiqasi. — Zebo, Jahonxola, Gulchehra.
- 1940 — “Maysaraning ishi” Hamza — Maysara.
- 1942, 1952 — “Nurxon” K. Yashin — Kimyo.
- 1953 — “Muqimiy” S. Abdulla — Risolat.
- “Ravshan va Zulxumor” K. Yashin — ariya ona.
- “Malikai Turandot” K. Goss — Adelma.
- “Ikki janoning quli” K. Goldon — Smeraldina.
- “Hujum” V. Yan — Tursun.
- “Halima” G. Zafar — ona.
- “Paranji sirlari” Hamza — Mastura.
- “Qurbon Umarov” S. Abdulla — Xalcha.
- “Oftobxon” K. Yashin — Xayri xola.
- “Farg‘ona tong otguncha” M. Ismoiliy— Xadicha xola.
- “Oltin ko‘l” — Jamol opa.

**Filmografiya**

- 1931 — Ozod (tugallanmagan) — Ozod, yigiruvchi.
- 1937 — Qasam — Azimning onasi.
- 1940 — Asal — Asalning onasi, bog‘bonning xotini.
- 1941 — Sardor chaqirig‘i — Rustamning onasi.
- 1941 — Biz g‘alaba qozonamiz (qisqa metrajli) — Zumrad.
- 1943 — Nasriddin Buxoroda — saroy xizmatchisi.
- 1943 — Vatan hadyasi — ona.
- 1954 — Opa-singil Rahmonovlar — Sharofat bibi.
- 1954 — Yangi uy — Xolniso.
- 1955 — Maydon ortida uchrashamiz — Mafiratxon.
- 1955 — Amirlikning qulashi — qari dehqon ayol.
- 1956 — Qutlug‘ qon — Yo‘lchining onasi.
- 1958 — Maftuningman — lavha.
- 1958 — Orol baliqlari — kolxoz raisining xotini.
- 1958 — O‘g‘lonlar olg‘a yurishadi — telba.
- 1959 — Ikkinchi chechak — Qumri xola.
- 1960 — Mahallada duv-duv gap — Mehrixon.
- 1962 — Sen etim emassan — Fotima opa.
- 1964 — Osiyo ustidagi to‘fon — Jamolning onasi
- 1964 — Xayrli kun.
- 1964 — Tushda kechgan umrlar — qariya.
- 1965 — Zehn — lavha.
- 1966 — Oppoq turnalar — Mehriniso.

- 1968 — Vatan o‘g‘lonlari — muzeyga tashrif buyuruvchi.
- 1969 — Uning ismi — Bahor — sovchi.
- 1969 — O‘tgan kunlar — lavha.
- 1971 — Sevgi dramasi — Umarning onasi.
- 1973 — Uchrashuvlar va vidolashuvlar — Hafizning onasi.
- 1976 — Umidimiz qushlari — Amirning buvisi.
- 1990 — Tangalik bolalar — lavha.

**Xotira**

- 1976-yil aktrisaning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan “Lutfixon aya” nomli hujjatli film suratga oligan.
- Madaniyat saroyi hamda Rishtondagi 52-sonli o‘rta maktabga Lutfixonim Sarimsoqova nomi berilgan

## YUNUS RAJABIY

## (1897-1976)



Yunus Rajabiy deganda o‘zining butun salobati, ijodi, o‘zidan qoldirgan ulkan musiqa merosi bilan, o‘zbek milliy musiqasiga bebaho hissa qo‘shgan buyuk san’atkor ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Musiqiy madaniyatimizda uning alohida o‘rni bo‘lib, o‘z ijodiy va ilmiy ishlari natijasida akademik darajasiga ko‘tarilgan ulug‘ san’atkordir. Yunus Rajabiy o‘zining ijodiy faoliyatini o‘zbek xalq ashula, qo‘shiq, cholg‘u kuylari va maqom yo‘llarini notaga yozib olishga bag‘ishladi. Natijada to‘qqiz tomlik «O‘zbek xalq muzikasi» to‘plami, «Shashmaqom»ning olti tomligi, «Musiqiy merosimizga bir nazar» risolasi chop etildi.

Yunus Rajabiy 1897-yilda Toshkent shahrining Chaqar mahallasida tavallud topdi. Dastlab eski usul maktabida savodini chiqargach, musiqaga bo‘lgan ishtiyoq uni shu yo‘lga boshlaydi. Mashhur hofiz va sozanda Shorahim Shoumarov unga birinchi ustozlik qiladi va dutor chalib qo‘shiq aytish yo‘llarini o‘rganadi. 1919-yilda Toshkent xalq konservatoriyasi milliy cholg‘u asboblari bo‘limiga o‘qishga kirib, milliy sozlar ijrochiligi bilan bir qatorda nazariy darslarni ham o‘zlashtiradi. Ustozi Shorahim Shoumarov bilan birgalikda birinchi musiqali sahna asari bo‘lgan «Farhod va Shirin» spektakliga musiqa bastalaydi. 1923-yili Samarqandga borib yashab, dastlab o‘zbek pedagogika bilim yurtiga musiqa rahbari, so‘ngra 1925- yilda teatrda ansambl rahbari bo‘lib ishlaydi. Mashhur hofiz va bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov uning Samarqanddagi ijodiy faoliyatida muhim rol o‘ynadi va maqom yo‘llarini yangicha talqinda o‘zlashtira boshladi va o‘zi ham kuy, qo‘shiqlar yarata boshlaydi. Yunus Rajabiy 1927-yilda tashkil qilingan birinchi o‘zbek radiosi milliy cholg‘u ansamblining asoschisi va musiqa rahbari bo‘ldi. Uning tashabbusi bilan

o‘zbek milliy cholg‘u asboblarini takomillashtirish ishlari boshlanadi va natijada o‘bek xalq cholg‘u asboblari tovush sadolanishida, tashqi qiyofasida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. O‘zbek radiosi qoshida xalq milliy cholg‘u ansambli zaminida o‘zbek xalq cholg‘u orkestri tuzildi. Bu dargohda 50 yil ijodiy mehnat qildi. Keyinchalik 1960-yilda esa hozirgacha o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirayotgan maqom ansamblini tuzdi va «Shashmaqom»ni mushkilot va nasr bo‘limlarini magnit lentasiga tushirdi. Bu maqom ansambli hozirgacha ustozning ijrochilik maktabi ruhida faoliyatini davom ettirmoqda.

Ustoz Yunus Rajabiy ijodining solnomasiga nazar tashlasak, ijodiy faoliyati davomida «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Muqanna», «O‘g‘il uylantirish», «Qasos» singari 10 dan ortiq musiqali dramalar, «Koshki», «O‘lmasin», «Ne navo», «Qadah», «Paxta», «Farg‘onacha», «O‘yin bayoti», «Kuygay» singari 200 dan ortiq kuy va qo‘shiqlar yaratganligining guvohi bo‘lamiz. U kompozitor B.Brovsin bilan hamkorlikda yaratilgan «Yolg‘iz va hammamiz» va «Farg‘onacha» simfonik asarlarining ham muallifidir. Uning hofizlik ijrochiligi ham xalqimiz tomonidan juda qadrlangan va «Ushshoq», «Koshki», «Kuygay», «Bayot» ashulalarining betakror ijrochisidir. Ustoz Yunus Rajabiyning serqirra ijodiy faoliyati respublikamiz musiqa madaniyatining yangicha ruh bilan shakllanishi va taraqqiyoti borasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ustoz o‘zidan yuzlab shogirdlarni qoldirdi. Tolibjon Sodiqov, Doni Zokirov, Dadaali Soatqulov, Nabijon Hasanov, Saidjon Kolonov, Orif Qosimov, Faxriddin Sodiqov, Nazira Axmedova, Turg‘un Karimov, Ortiqxo‘ja Imomxo‘jayev, Mahmud Yunusov, Turg‘un Alimatov, Orif hoji Alimahsumov, Siroj Aminov, Is’hoq Kattayev, Eson Lutfullayev singari mashhur hofiz va sozanda bastakorlar Yunus Rajabiy ijrochilik maktabining vakillaridir. Maqomdon xonandalar, xalq cholg‘u va ashula ansambllari, musiqali drama teatrlari artistlari uning ajoyib dilrabo qo‘shiq va kuylarini ijro etmoqdalar, asarlarini sahnalashtirmoqdlar. Uning asarlari efirda, zangori ekranlarda yangramoqda. Yunus Rajabiy oilaviy sulolasi o‘zbek san’atining rivojiga muhim hissa qo‘shmoqdalar.

Ustoz Yunus Rajabiy bir qancha davlat mukofotlari, «O‘zbekiston xalq artisti» faxriy unvoni, vafotidan so‘ng 2000-yilda «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlandi. 1966- yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasiga a’zo qilib saylangan. Akademik ilmiy unvoniga ega. 1976-yil 23- aprel kuni 79 yoshida vafot etgan. Uning xotirasi abadiylashtirilib, Toshkent shahridagi metro bekatlarining biriga, o‘zi yashagan ko‘chaga, respublika radiosi maqom ansambliga, Jizzax viloyat teatriga uning nomi berilgan. Yunus Rajabiy uy muzeyi ishlab turibdi. U erda har xil madaniy tadbirlar o‘tkaziladi.

## JO‘RAXON SULTONOV

## (1903-1965)



Jo‘raxon Sultonov deganda hofizlik va bastakorlik san’atining sarbonlaridan biri, maftunkor ovoz sohibi, ijrochilikda o‘ziga xos maktab yaratgan san’atkor ko‘z oldimizga keladi.

Jo‘raxon Sultonov 1897-yilda Marg‘ilon shahrining «Poshsho Iskandar» mahallasida tavallud topdi. Uning otasi Sultonboy hoji tabiatan dilkash, she’riyat va musiqadan xabardor odam edi. Onasi Saodatxon aya ziyoli oiladan bo‘lib, o‘g‘li Jo‘raxonni mehr bilan tarbiyaladi. O‘sha davrda Marg‘ilondagi choyxonalar madaniyat, ma’rifat o‘chog‘i vazifasini ham bajarar edi. Sultonboy hoji o‘g‘li Jo‘raxonni choyxonaga olib kelib Yusufjon qiziqqa shogirdlikka topshiradi. Natijada Madali hofizdan tanbur chalib yalla aytish yo‘llarini, Bolta hofiz bilan Mamatbobo hofizdan patnisaki ashula yo‘llarini o‘rgana boshladi. «Shafoat», «Dargohingga kelibman», «Xayr-ul bashar», «Shoyad», «Yovvoyi chorgoh» singari patnisaka ashulalarni birga ijro eta boshladi. (Bu erda shuni aytish joizki, Jo‘raxon Sultonov ustozi Mamatbobo hofiz bilan, ashulachilikda yovvoyi yo‘llarni kashf etgan hofizdir. Yana ular jo‘rovoz bo‘lib aytish uslubini yaratishdi).

1918-yilda «Sanoyi nafisa» tuzilib uning haqiqiy ijodiy faoliyati boshlanadi. 1926-yilda Muhiddin Qori Yoqubov rahbarligida o‘zbek davlat etnografik ansambli tashkil etildi va qator nomdor san’atkorlar qatori Jo‘raxon Sultonov ham taklif qilinadi. 1928-yilda esa Marg‘ilonda tashkil etilgan musiqali drama teatriga direktor etib tayinlandi. Ma’murjon Uzoqov, Boborahim Mirzayev, Zokirjon Ergashev singari yosh san’atkorlarga ustozlik qildi. Shogirdi Ma’murjon Uzoqov bilan jo‘rovozlikda ijod qildilar va bu hamkorlik 30 yil davom etdi.

Jo‘raxon Sultonov 1932-yilda Toshkentga ko‘chib kelib o‘zbek musiqali teatrida, keyinchilik respublika radiosida ishlaydi. 1937-yilda Moskvada o‘tgan o‘zbek dekadasi, keyinchalik katta Farg‘ona kanali qurilishi hofizga chinakam shuhrat keltirdi. «Ey nozanin», «Bu gulshan», «Ofarin», «Ming qadam» singari qo‘shiqlar o‘sha davrning mahsulidir. 1939-yilda ko‘plab san’atkorlar qatori Jo‘raxon Sultonovga «O‘zbekiston xalq hofizi» faxriy unvoni beriladi. Urush yillarida ijod qilgan «Naylayin», «Otga mindim» qo‘shiqlari «Vatan o‘g‘lonlari» va «Frontga sovg‘a» filmlarida o‘z aksini topgan.

Urushdan so‘ng avval estrada teatrida, keyinchalik 1958-yilgacha respublika radiosida yakkaxon ashulachi bo‘lib ishladi. O‘sha davrlarda uning dasturidan «Chor zarb», «Chaman yalla», «Ohkim», «Sayri gulzor», «Besh parda suvora», «Sodirxon ushshoqi», «Savti suvora», «Guluzorim qani», «Xanuz», «Bo‘lmish», «Patnisaki chorgoh», «Ey, dilbari janonim», «Bormikan», «Bog‘aro», «Sitora» singari asosan o‘zi bastalagan mashhur ashulalar o‘rin olgan edi. Jo‘raxon Sultonov juda ko‘p shogirdlar etishtirdi. Barcha san’atkorlar uni e’zozlab «Usta» deb atashardi.

Davralarda o‘zining bilimdonligi, zukkoligi, so‘zga chechanligi, shirin askiyalari bilan hammani o‘ziga jalb qila olardi. Jo‘raxon Sultonov og‘ir kasallikdan so‘ng 1965-yil 19-oktyabrda Marg‘ilon shahrida vafot etdi. Ta’ziyaga shunchalik ko‘p xalq to‘plandiki, ta’ziyani etti joyda o‘qishga to‘g‘ri keldi. Hofizning o‘zlari vasiyat qilgan Mashad qabristoniga dafn qildilar.

Ustozning nomlariga o‘zlari yashagan ko‘cha, musiqa maktabi qo‘yilgan. Marg‘ilon shahrida yosh xonandalarning Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov nomidagi respublika ko‘rik-tanlovi o‘tkazib turiladi. 2001- yilda Prezidentimizning Farmoni bilan ustozga «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berildi. Bu ishlarning barchasi xalqimizning ulug‘ san’atkoriga bo‘lgan ehtiromi va hurmatidan dalolatdir.

## MA’MURJON UZOQOV

## (1904-1963)



Marg‘ilonning mashhur Mashad mahallasida Mahmurjon Uzoqov bo‘zchi Uzoqjon aka xonadonida tavallud topdi. Uzoqjon aka san’atga juda ishqiboz bo‘lib, tez-tez qo‘shni «Chorchinor» mahallasi guzaridagi choyxonada bo‘ladigan san’atkorlarning yig‘inlariga yosh o‘g‘li Ma’murjonni ham birga olib borardi. Shu tariqa uning yosh qalbida qo‘shiqqa, san’atga mehr uyg‘ona boshladi. Onasi Zebuniso opa ham doira chalib, xalq yalla va laparlarini mohirlik bilan ijro etar edi. Tezda ustozlar nazariga tushadi va Hasan qoridan dutor chalishni, Xudoybergan hofizdan qo‘shiq aytishni o‘rgana boshlaydi. 1928-yilda Marg‘ilonda o‘zbek musiqali teatri tashkil etiladi va Jo‘rajon Sultonov uni ishga taklif qiladi. Ma’murjon Uzoqovning keyingi o‘ttiz yillik ijodiy faoliyati shu ulug‘ san’atkor bilan bog‘lanib qoldi. Jo‘raxon aka tanburda, Ma’murjon aka dutorda jo‘rovoz bo‘lib qo‘shiq ayta boshlaydilar. Ular hamnafaslikda qo‘shiq aytishib juda katta dovrug‘ qozonadilar. 1932-yilda Jo‘raxon Sultonov bilan birga Toshkentga keldi va shu erda yashay boshladi. 1939-yili xalq hashariga aylangan katta Farg‘ona kanali qurilishi san’atkorlarning ham o‘zaro bellashuviga aylanib ketdi. Hujjatli kinolentalarda muhrlangan tasvirlarda Jo‘raxon Sultonov bilan birga ijro etgan qator qo‘shiqlarni ko‘rish mumkin. Shu yili ko‘p hofizlar qatori Ma’murjon Uzoqovga ham «O‘zbekiston xalq hofizi» faxriy unvoni berildi. So‘ngra Muqimiy teatriga taklif qilindi va qo‘shiq aytish bilan birga «Tohir va Zuhra» da jarchi, keyinchalik esa Tohir rolini ijro etdi.

Ma’murjon Uzoqovning urushdan keyingi ijodiy faoliyati o‘zbek estradasi va respublika radiosi bilan bog‘lanib qoldi. Mashhur sozanda va bastakor Muhammadjon Mirzayev Ma’murjon akaning ijodida hofizlik qirralarining yangicha shakllanishida katta ta’sir ko‘rsatdi. Ijodiy hamkorlik natijasida

«Surating», «Ko‘zlaring», «Ey chehrasi tobonim», «Yo‘lingda», «Yor istab», «Mustahzod», «Ayrulmasin», «Fig‘onkim», «Sho‘xi parivashga», «Namoyon qil», «Yakka bu Farg‘onada», «Yolg‘iz», «Nasihat», «Ey sabo», «Jonim mening», «Bir kelib ketsun», «Jonon bo‘laman deb» singari qo‘shiq va yallalar dunyoga keldi. Bu qo‘shiqlarni hofiz jon dilidan kuylar, bu qo‘shiqlar faqat uning dovudiy ovozi uchun yaratilganday edi.

50-60- yillar orasida Ma’murjon Uzoqov qo‘shiqchilik olamida yangi sahifa ochdi va o‘zbek qo‘shiqchilik san’atining haqiqiy yulduziga aylandi. 1959-yilda Moskvada bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston adabiyoti va san’ati dekadasida jo‘shib qo‘shiq kuylagan Ma’murjon akaning dovudiy ovozidan ta’sirlangan moskvalik taniqli musiqashunos professorlardan biri konsertdan keyin hofizning huzuriga kelib, «Ustozingiz kim?» deb so‘raydi. «Ustozim Jo‘raxon aka!» degan javobni eshitgan professor hayratlanib, «Italiya qo‘shiqchilik maktabini bitirgan bo‘lsangiz kerak, deb o‘ylabman» degan ekan.

Mahmurjon Uzoqovning vafoti haqidagi shov-shuvlar hozirgacha qalblarni larzaga solib keladi. 1963-yil 23-iyul kuni Marg‘ilon bog‘ida, do‘stlari, shogirdlari, shinavandalari davrasida qo‘shiq kuylab turganida uning hayoti mangulikka yuz tutdi. Mashad qabristonida shogirdining qabriga tuproq tortayotgan ustozi Jo‘raxon Sultonov biroz to‘xtab, «Ma’murjon o‘lim meni navbatim edi, afsus sen erta ketding. Men sendan mingdan-ming roziman, mendan ham rozi bo‘lgin», deb faryod chekkanida marosimga yig‘ilgan butun xalq uvvos solib yig‘lab yubordi.

O‘zbekiston xalq hofizi Ma’murjon Uzoqovning muborak nomi xalqning qalbidan bir umrga joy olgan. Uning nomi abadiylashtirilib o‘zi yashagan ko‘chaga, mahalla, musiqa maktabiga berilgan. Har ikki yilda Marg‘ilon shahrida Mahmurjon Uzoqov va Jo‘raxon Sultonov nomidagi respublika yosh xonandalar ko‘rik-tanlovi o‘tkazib turiladi. Prezidentimizning Farmoni bilan «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlanishi buyuk hofiz umrining davomi bo‘lib, muborak nafasining so‘n-masligidan dalolatdir.

## HALIMA NOSIROVA

## (1913-2002)



O‘zbek qo‘shiqchiligi va opera san’atiga bebaho hissa qo‘shgan san’atkorlardan biri Halima Nosirovadir. Halima Nosirova ayniqsa o‘zbek opera san’atida alohida maktab yaratdi va bu noyob san’at rivojiga ulkan hissa qo‘shdi.

Halima Nosirova 1913-yilda Qo‘qon yaqinidagi tog‘lik qishlog‘ilarda tavallud topdi. Otasi Muhammadnosir aka kosib bo‘lsa-da, qo‘shiq va she’rlardan xabardor bo‘lib, yosh Halima qalbida san’atga havas uyg‘otdi. Otasining bevaqt vafotidan so‘ng qiyin ahvolda qolgan oila onasi Xosiyatxon va opalari Xojar va Oyshalar bilan Qo‘qon shahriga ko‘chib kelishadi. Yosh Halimani bolalar uyiga topshirishadi. 1929-yilda Toshkentdagi xotin-qizlar bilim yurtiga o‘qishga qabul qilinadi. Shu erda Ali Ardobus rahbarlik qilayotgan badiiy havaskorlik to‘garagiga dugonalari Shohida Maxsumova, Nazira Aliyevalar bilan qatnay boshlaydi. Tezda ustozlarning nazariga tushgan Halima Nosirova 1925- yilda bir guruh yosh san’atkorlar bilan Bokudagi teatr bilim yurtiga o‘qishga yuboriladi. Ish faoliyatini hozirgi milliy akademik teatrda boshlaydi. Qator obrazlarni yaratadi. So‘ngra Moskva Davlat konservatoriyasi qoshidagi o‘zbek opera studiyasida ta’lim oladi. 1929-1939- yillar mobaynida o‘zbek musiqali drama teatrida ijod qildi va xilma-xil obrazlarni yaratdi. 1939-yildan boshlab to kuchdan qolgunga qadar A. Navoiy nomidagi o‘zbek opera va balet akademik teatrida ijod qildi va ushbu qutlug‘ dargohda o‘z ijrochilik maktabini yaratdi. «Layli va Majnun», «Gulsara», «Karmen», «Bo‘ron», «Maysaraning ishi», «Zaynab va Omon», «Xorazm qo‘shig‘i», «Ulug‘bek» singari o‘nlab operalardan bosh obrazlarning qo‘shiqlarini kuyladi. Halima Nosirova o‘zbek milliy ashula va qo‘shiqlarining betakror ijrochisidir. Uning ijrosida «Ushshoq», «Chorgoh», «Bayot» singari xalq ashulalari alohida o‘ziga xos uslub bilan ijro etiladi.

-Men o‘zbek kuy va ashulalarini, maqomlarini sevimli hofizlarimiz va ustoz sozandalarimiz Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Hoji Abdulaziz, Muhiddin Qori Yoqubov, Domla Halim Ibodov, Yusufjon Qiziq, Usta Olim Komilov, Abduqodir Ismoilov, Ahmadjon Umurzoqov, Madrahim Sheroziydan o‘rgandim, - deydi Halima Nosirova.

San’atkor tushunchasida qo‘shiq insonning mehnatida, hayotida, taqdirida doimiy yo‘ldoshdir. Xalqning sevimli san’atkori Halima Nosirova Katta Farg‘ona, Toshkent, Log‘on, Chirchiq kanallari, Kattaqo‘rg‘on suv ombori, Farhod GES qurilishlarida, Mirzacho‘l, Qarshi, Jizzax cho‘llarini o‘zlashtirishda, dahshatli urush yillarida xalq ruhini ko‘tarishda o‘z san’ati bilan faol qatnashdi.

Halima Nosirova «O‘zbekfilm» kinostudiyasida suratga olingan «Asal», «Frontga sovg‘a», «Maftuningman» filmlarida obrazlar yaratdi va kino sohasiga

ham hissa qo‘shdi. Halima Nosirovaning yorqin san’ati va iste’dodidan tahsirlangan bir qancha xorijiy tanqidchilar uning san’atiga yuksak baho berganlar. Suriyada chiqadigan «Lison ash shaab» va Hindistonda bosiladigan «Steystmen» gazetalari o‘zbek qo‘shiqchisining nihoyatda yoqimli va jozibador, dillarni rom qiluvchi ovozi haqida 1956-yilda samimiy satrlarni yozgan. Uning bulbulsifat ovozi o‘zbek san’atkori timsolida Hindiston, Birma, Livan, Misr, Eron, Xitoy, Kanada kabi o‘nlab mamlakatlarda yoyilgan. Halima Nosirova hayotligidayoq ikki ajoyib narsasi bilan o‘ziga haykal o‘rnatdi. Biri chinakam xalqchil san’ati, ikkinchisi shogirdlari, izdoshlari bilan ulug‘ baxtga erishganligidir.

Uning san’atdagi xizmatlari munosib baholangan bo‘lib, «O‘zbekiston xalq artisti» faxriy unvoniga sazovor bo‘ldi. Mustaqillik sharofati bilan «Buyuk xizmatlari uchun» ordenini ko‘kragiga taqish baxtiga muyassar bo‘ldi.

O‘zbek san’atining ulug‘ namoyandasi, betakror ovoz sohibasi Halima Nosirova 90 yosh umr ko‘rib, 2002 - yilda Toshkent shahrida vafot etdi.

## MAVLUDA A’ZAMOVA

Mavluda A’zamova 1913-yilda Toshkentda ziyoli oilasida tavallud topgan. O‘n yoshga kirganda ota-onasidan etim qolgan va bolalar uyida tarbiyalangan. O‘sha paytlarda «Ko‘k ko‘ylak» guruhi nom qozongan payt edi. Yosh Mavluda A’zamova o‘sha guruhga qatnashib asta-sekin san’at dargohiga kirib keldi. U to‘garaklarga qatnashishi bilan birga yangi tashkil qilingan «Namuna» maktabida Shohidaxon Ma’zumova bilan birga o‘qishni davom ettirgan. Keyinchalik bu maktab Nodira nomi bilan yuritilgan. Maktabda o‘qib yurgan vaqtlarida ko‘plab tadbirlarda, bayram konsertlarida muntazam qatnashib kelgan.

Yosh Mavludadagi iqtidorni sezgan Imomjon Ikromov unga xonandalikdan ustozlik qila boshlaydi. U xalq teatrida Ziynat Fatxulinning «G‘unchalar» pesasida Gulnor obrazini yaratadi va uni muvaffaqiyat bilan ijro etadi. Qayd etish lozimki, Mavluda A’zamova birinchilar qatorida ayol obrazini sahnada yaratib o‘ynagan san’atkor bo‘lib tarixda qoldi. U paytlarda xalq orasida san’atga qarashlar boshqacha bo‘lgan. Shuning uchun ayniqsa qizlar, ayollar teatrda juda kam bo‘lgan. Ayol obrazlari esa erkaklar tomonidan o‘ynalgan.

Mavluda A’zamova 1943-yili radio qoshidagi o‘zbek xalq ansambliga ishga keladi va bu erda ustozlarining sa’y harakatlari bilan ashulani dutor jo‘rligida, o‘zi chalib aytishini o‘rgana boshlaydi. Bu harakatlari unga juda katta muvaffaqiyat olib keldi. Ayniqsa, urush yillari Mavluda A’zamova aytgan «Ofarin», «Yigitlar», «Munojot», «Istadim», «Diloromimni sog‘indim», «Cho‘li Iroq» ashulalari uning ijodi gullab-yashnashida birinchi bosqich bo‘ldi.

1951-yili Mavluda A’zamovaning xizmatlari munosib taqdirlanib, unga hukumatimiz tomonidan O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan artist unvoni berildi.

Mavluda A’zamova o‘z xalqiga sidqidildan xizmat qilgan fidoiy san’atkor edi.

Mavluda A’zamova yuragida o‘ti bor, shiddatli, uslubi qaytarilmas, o‘z yo‘liga ega qo‘shiqchi bo‘lgan. Mavluda A’zamova qo‘shiqchilik san’atida barhayot siymo bo‘lib, abadiy qoladi.

## MUKARRAMMA AZIZOVA

Mukarramma Azizova 1913-yilda Namanganlik kulol Aziz Fozilov oilasida dunyoga keldi. Uning yoqimli ovoz sohibasi ekanligi oʻrta maktabda oʻqib yurgan kezlarida maʼlum edi. Boʻlajak xonandaning yoqimli, shirali ovozi musiqa toʻgaragi rahbari Rafiq Moʻminovning eʼtiborini jalb qildi.

Yosh Mukarramma 7 yillik maktabni tugatib, oʻqituvchilar tayyorlash kursida oʻqiydi va boshlangʻich sinflarga dars bera boshlaydi. Shu paytda ham u oʻz oʻquvchilari bilan birga maktab musiqa toʻgaragiga qatnashib yurardi. 1928-yili Namanganga Moskvadan oʻzbek studiyasi uchun oʻquvchi yoshlarni qabul qiluvchi maxsus komissiya keladi va yosh Mukarrammani studiyaga oʻqishga taklif qilishadi.

U Moskvada konservatoriya qoshidagi oʻzbek studiyasida Mironov kabi tajribali sanʼatkorlardan musiqa bilimidan tarbiya oladi. Uning teatr sahnasidagi ilk qadamlari aynan Moskvada boshlanadi. U kursdoshlari bilan birga Moskvadagi teatrda qoʻyiladigan spektakllarning ommaviy sahnalarida qatnashadi.

Ozgina boʻlsada sahna hayotini koʻrgan Mukarramma Azizova Oʻzbekistonga qaytgach, dastlab Andijon teatrida, 1931-yilda esa Namangan teatrida ish faoliyatini boshlaydi. Uning hayoti ham, ijodi ham teatr bilan bogʻlanib qoladi. Tez orada u teatrda oʻndan ortiq qahramonlar obrazlarini yaratadi va koʻplab turli xarakterdagi obrazlarda bosh rolni ijro etadi.

Musiqiy dramalardan «Nurxon»da Nurxon, «Gulsara» (K.Yashin, T.Sodiqov, R.Glier)da Gulsara, «Farhod va Shirin» (Xurshid, V.Uspenskiy, G.Mushel)da Shirin obrazlarini talqin etdi. Dramatik spektakllardan A.Qahhorning «Shohi soʻzana»sida Hafiza, S.Rahmonovning «Yurak sirlari»da Sanobar, N.Gogolning «Uylanish» spektaklidagi Anna Andreyevna shular jumlasidandir. Mukarramma asta-sekin xonandalik sirlarini oʻzlashtirib, amaliyotda qoʻllay boshlaydi.

Mukarrama Azizova oʻzining betakror ovozi, jozibali va purmaʼno ijrosi, sanʼat dargohidagi obroʻ-eʼtibori bilan bora-bora «Namangan bulbuli» nomiga sazovor boʻldi. Uning ijrosidagi «Dutorim», «Alla», «Boʻston etib ket», «Koʻzim» kabi qoʻshiqlar, «Iroq», «Chorgoh», «Segoh», «Ushshoq» kabi oʻnlab mumtoz ashulalar tinglovchilar qalbida katta taassurot qoldirdi.

Musiqiy sanʼatimiz hayotida Mukarramma Azizovani mahoratli ashulachi va dramatik aktrisa sifatida hurmat bilan yodga oladilar. Uning oʻzbek sanʼati rivoji uchun mehnatlari qadrlanib, 1955-yilda unga Oʻzbekiston SSR xalq artisti unvoni beriladi.

## FOTIMA BORUXOVA

Taniqli opera va mumtoz qoʻshiq xonandasi Fotima Boruxova 1916-yilda Andijon shahrida xizmatchi oilasida tugʻildi. Yoshligidan qoʻshiq aytishga boʻlgan havas uning xonandalik sohasiga mehr qoʻyishiga sabab boʻladi. Ota-onasi sanʼatsevar kishilar boʻlgan va ular qizlaridagi sanʼatga boʻlgan qiziqishga befarq boʻlmay, unga qoʻllaridan kelganicha yordam berishgan. Fotima Boruxova radio

orqali tinglagan har bir musiqiy namunani qunt bilan o‘zlashtirar, mashhur xonandalar uslubida ijro etishga harakat qilardi.

Fotima Boruxovaning bu harakatlari ijrolarida namoyon bo‘la boshlaydi va u xonandalik kasbini egallashga ahd qiladi. U o‘sha davrdagi rahbariyat tavsiyasi bilan 1940-1942-yillarda Moskva konservatoriyasi qoshida tashkil etilgan o‘zbek opera studiyasiga o‘qishga yuboriladi.

Bu dargohda u akademik xonandalik sirlarini o‘zlashtiradi. Jahon klassik musiqasi namoyandalarining asarlarini o‘rganib o‘z yurtiga qaytadi. 1942-1944-yillarda Yo‘ldosh Oxunboboyev nomidagi Andijon musiqali drama teatri artisti bo‘lib ishlay boshlaydi.

Moskvada o‘rgangan xonandalik saboqlarini endi teatr sahnasida namoyish etadi. Shu davrda eng ommalashgan «Qurbon Umarov», «Gulsara», «Tohir va Zuhra» musiqali dramalarida bir qator rollarni mahorat bilan ijro etadi. Lekin, uning ijrochilik uslubi ko‘proq akademik ijroga moyilligi sababli 1945-yildan boshlab poytaxtdagi Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta opera va balet teatrida ijodiy faoliyatini davom ettiradi.

Fotima Boruxovaning akademik va an’anaviy ijro uslublarini yaxshi bilgani ushbu dargohda samarali mehnat qilishiga zamin bo‘ladi. U o‘ziga xos ovozi, betakror ijrosi bilan jamoa orasida hurmat qozondi, ustoz darajasida 1957-yilgacha faoliyat olib bordi.

Fotima Boruxova shu yillar davomida juda ko‘plab musiqali dramalarda obrazlar yaratdi. Bu rollari orqali juda ko‘plab muxlislar qalbidan joy oldi. Jumladan, T.Jalilov, K.Yashinning «Oyxon»ida Oyxon, «Farhod va Shirin»da Shirin, Sh.Xurshid, T.Jalilovlarning «Zebiniso»sida Zebiniso, M.Ashrafiy, S.N.Vasilenkolarning «Bo‘ron» operasida Zebiniso, T.Sodiqov, R.M.Glierlarning «Layli va Majnun»ida Layli, N.Pogodin, H.Olimjonlarning «O‘zbekiston qilichi»da Sora, P.I.Chaykovskiyning «Pikovaya dama»sida Polina (1947-yil), M.Ashrafiy, S.Vasilenkolarning «Baxt vodiysi»da Ona, U.Hojibekovning «Ko‘r o‘g‘li»da Ona (1950-yil), T.Jalilov, B.V.Brovsinlarning «Tohir va Zuhra»sida Yulduz, A.Spandiarovning «Olmos»ida Folbin (1953-yil) kabi obrazlar F.Boruxovaning ko‘p yillik ijodiy mehnatlari mahsulidir.

Fotima Boruxova opera bilan birgalikda klassik qo‘shiqlarni, mumtoz ashulalarni maromiga etkazib ijro etgan. Juda ko‘plab mumtoz musiqiy namunalarni ustozlaridan o‘rganib magnit tasmalariga yozgan. «Mehnat ahli» (Halima Nosirova bilan birgalikda) «Kanalim», «Chaman ichra», «Yolg‘iz», «Ko‘rmadim», «Samarqand Ushshog‘i», «Toshkent Irog‘i», «Ey chehrasi tobonim» kabi ashulalar shular jumlasidandir.

Kuchli va baland ovoz sohibasining xizmatlari munosib taqdirlanib, unga 1950-yilda O‘zbekiston SSR xalq artisti unvoni berilgan.



## KOMILJON OTANIYOZOV
## (1917-1975)

Xorazm an’anaviy qo‘shiqchilik san’atining mashhur namoyandasi Komiljon Otaniyozov 1917-yil 20- iyulda Xorazm vohasi Shovot tumanidagi Bo‘yrachi qishlog‘ida tavallud topdi. Uning otasi Otaniyoz qori Oxun Polvonniyoz o‘g‘li Xivadagi Arabxon madrasasida mudarrislik qilgan bo‘lib, Niyoziy tahallusi bilan g‘azallar yozib bir necha devon chop ettirgan. Yosh Komiljon Matpano ota, Matyoqub Harratov, Hojixon Boltayev, Matkarim hofiz, Madrahim Sheroziy, Bola Baxshi singari ustozlardan saboq olgan, tez orada o‘zi ham mashhur hofiz bo‘lib taniladi. Xorazm maqomlarini, dostonlarini ijro etish bilan birga o‘ziga xos shunday yangi bir uslub yaratdiki, u yaratgan qo‘shiqlar hozirgacha hofizlarimiz tomonidan sevib kuylanadi, Uning qo‘shiqlar dasturi juda salmoqli bo‘lib, yuzlab qo‘shiqlarni o‘z ichiga olgan edi. «Xorazm segohi», «O‘lturg‘isi», «Chorgoh», «Feruz I-II-III», «Suvora», «Oshiq bo‘lmisham», «Na tilar mandan», «Salom sizga Xorazmdan», «Ayrilma», «Nasihat», «Xush keldingiz», «Sallamno», «Naylaram» singari qo‘shiqlari shular jumlasidandir. Uning dasturidan qoraqalpoq, turkman, tojik, qozoq, hind, ozarbayjon qo‘shiqlari ham keng o‘rin olgan bo‘lib, hofiz qo‘shiq aytish bilan birga didli g‘azallar ham bastalar edi. U 1952-1955- yillarda Toshkent davlat konservatoriyasida ta’lim oldi, bastakorlik yo‘llarini o‘rgandi. A. Stepanov, S. Hayitboyev bilan hamkorlikda «Aziz va Sanam», «Oshiq G‘arib», «So‘nggi xon» dramalariga musiqalar bastaladi. Komiljon Otaniyozov Ogahiy nomli Xorazm viloyat teatrida aktyor sifatida qator ajoyib obrazlar yaratgan. «Farhod va Shirin»dagi Farhod, «Tohir va Zuhra»dagi Tohir obrazlari ajib bir sayqal topgankim, hali-haligacha ko‘rgan odamlar havas bilan eslaydilar.

Komiljon Otaniyozov baland va keng qamrovli ovozi, yuksak ijrochilik madaniyati bilan o‘zbek qo‘shiqchilik san’atini olamga yoydi. U Xitoy, Hindiston, Birma, Afg‘oniston, Kombodja, Tailandda gastrollarda bo‘lib, yuzminglab odamlarni o‘z san’atidan bahramand etdi.

Komiljon aka juda ko‘p shogirdlar etishtirdi. Xorazm musiqa san’atining 50-60- yillardagi rivoji Komiljon akaning nomi bilan bog‘liq.

Ustoz juda ko‘p ashula va raqs ansambllarini tashkil etib, unga badiiy rahbarlik qildi. Komiljon Otaniyozovga O‘zbekiston, Turkmaniston, Qoraqalpog‘iston xalq artisti unvonlari berilgan. Uning jo‘shib kuylagan qo‘shiqlari hozirgacha muxlislar qalbini rom etib kelmoqda.

El suygan hofiz Komiljon Otaniyozov 58 yil umr ko‘rib 1975-yilda vafot etdi. Urganch tumanidagi Imorat buva qabristoniga, otasi Niyoziy yoniga dafn qilingan.

Uning nomi maktablarga, ko‘chalarga, filarmoniya, ansambllarga berilib abadiylashtirilgan. Mustaqillik yillarida Prezidentimiz Farmoniga binoan «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan.

## ZAYNAB POLVONOVA

Zaynab Polvonova 1918-yilda Qo‘qon shahrida qassob oilasida tug‘ilgan. Uning onasi ham, otasi ham san’atkor bo‘lmasalar-da, qo‘shiq shaydosi, san’atsevar insonlar bo‘lgan. Zaynab Polvonovaning yoshligidanoq mumtoz musiqa namunalariga ishtiyoqi baland edi. Ayniqsa, «Samarqand Ushshog‘i» ashulasini o‘rganishga bolaligidan harakat qilardi. O‘rta maktabni tugatgandan so‘ng tibbiyot texnikumiga o‘qishga kiradi. O‘qish davomida u saboq olish bilan birga qo‘shiq va ashulalarni kuylash bilan ham mashg‘ul bo‘ladi. 1939-yilda uning ashulachilik faoliyati Izboskan tumanida ilk bora «Kolxoz-sovxoz» nomi bilan tuzilgan musiqali teatrda boshlandi. Bu dargoh uning hayotidagi katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Chunki Zaynab Polvonova uchun teatrdagi ilk faoliyati katta san’at maktabi bo‘ladi. U bu erda san’at sohasidagi ilk qarashlarini, sahna sirlarini, ustoz sabog‘ini oldi. Zaynab Polvonova teatrda ko‘p rollar ijro etishga muyassar bo‘ldi. Ijro etgan rollari, yaratgan obrazlari uning faoliyatida juda katta ahamiyat kasb etadi. U «Gulsara»da Oysara, «Arshin mol-olan»da Jahon xola, «Halima»da Ruqiya opa kabi o‘nlab rollarni ijro etadi. Shundan so‘ng uning teatr sohasidagi faoliyati ancha ommalashadi. Uni Andijon va Qo‘qon teatrlarida ham xonanda sifatida ishlashga taklif etishadi. Shundan so‘ng Zaynab Polvonova boshqa viloyatlar teatrlarida ham faoliyat olib bora boshlaydi. Qo‘shiqchilik faoliyatini xalq laparlari bilan boshlagan Zaynab Polvonova keyinchalik o‘z repertuarini «Gulbargi», «Mehnat ahli», «Samarqand Ushshog‘i», «Hanuz», «Feruz», «Talqini Bayot» kabi mumtoz ashulalar bilan boyitadi.

1950-yillarda Zaynab Polvonova o‘z faoliyatini O‘zbekiston radiosida davom ettiradi. O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrida yakkaxon xonanda bo‘lib ishlaydi. Xalq musiqa namunalari bilan birgalikda u o‘zbek bastakorlarining asarlarini me’yoriga etkazib ijro etadi. Jumladan u Doni Zokirovning Navoiy g‘azaliga yozgan «Ko‘rmadim», Yu.Rajabiy musiqasi bilan «Gulbargi», F.Sodiqovning «To‘yona», N.Hasanovning «Ofarin», To‘xtasin Jalilovning «Aziz Vatanim» qo‘shiqlarini o‘rganadi va juda katta mahorat bilan ijro etadi. Shuningdek, o‘zbek kompozitorlaridan S.Yudakov ijodiga mansub qo‘shiqlarni ham kuylaydi.

Qayd etish lozimki, Zaynab Polvonova o‘tmishdan xalq an’anasida qo‘llanib kelingan ijro uslubi asosida faoliyat olib borgan. U respublikaning shahar va qishloqlarida berilgan konsertlarda o‘zi doyra chalib, qo‘shiq aytar edi. Bunday amaliy konsertlar, uchrashuvlar uning nomi xalq orasida ulug‘lanishiga asos bo‘ladi. Zaynab Polvonova Ma’murjon Uzoqov, Gabriel va Mixail Mullaqandov singari mashhur hofizlarning ijrochilik yo‘llarini qunt bilan o‘zlashtirib, o‘zining ijrochilik faoliyatida keng qo‘llagan xonanda edi.

U san’at olamiga vulqondek otilib kirib, o‘zining qaytarilmas baxmal ovozi bilan shinavandalar qalbida betakror ovoz haykalini yaratib ketgan. Uning ijrosida o‘ziga xos joziba, faqat Zaynab Polvonovaga xos bo‘lgan betakror talqin mavjud edi. Uning

ijrochilik uslubi an’anaviy musiqa ijrochiligi an’analarini oʻzlashtirishda yosh xonandalar uchun oʻziga xos maktabdir.



## BERTA DAVIDOVA

Berta Davidova 1922- yilning dekabr oyida Margʻilon shahrida David ota xonadonida tavallud topgan. Otasi dutorda juda yaxshi kuylar chalar edi. Ayniqsa, dutorda chalgan «Toʻrgʻay» xalq kuyi yosh Bertaga juda yoqar edi. Bertaning yoshligi ana shunday san’atsevar xonadonda oʻtdi.

1935- yilda 13 yoshida Toshkent tibbiyot texnikumiga oʻqishga kiradi. 1941-yili jahon urushi boshlanganda harbiy gospitalda hamshira boʻlib ishlaydi. Kunlarning birida bu erga Maqom ansambli konsert berishga keladi hamda musiqa namunalaridan ijro etib yaradorlarga konsert beradi. Yoshligidan qoʻshiqlar aytib yurgan Berta maqomchilarga qoʻshilib yaradorlarga qoʻshiq aytib berdi. Shunda ansambldagilar hayratda qoladi va ansamblda ishlashga taklif qiladilar.

Ayniqsa, Imomjon Ikromov jonkuyarlik qiladi va Berta Davidova 1943-yildan 1987-yilgacha 44 yil mobaynida Oʻzbekiston davlat teleradiosi qoshidagi Maqomchilar ansamblida faoliyat koʻrsatadi. 200 dan ortiq maqom namunalarini, maqom yoʻlidagi xalq ashulalarini, bastakorlar yaratgan qoʻshiqlarni magnit tasmasiga yozishga muvaffaq boʻladi.

1979-1980-yillardan boshlab talabalarga mumtoz musiqamizning ijrochilik sirlarini oʻrgata boshlaydi.

Berta Davidova maqom ijrochiligi san’atida oʻziga xos ijro talqinini topgan baxtli san’atkorlardan biri edi. Berta opaning muloyim va betakror sayqallar zanjiri bilan ifodalovchi talqini har qanday xonandani oʻziga rom etadi. Shu bois boʻlsa kerak, Berta Davidovaning ijrochilik usuli ayol xonandalaramaliyotida oʻrnak sifatida doimo ahamiyatli boʻlib kelgan.

Ayniqsa, mumtoz musiqa namunalaridan «Munojot» Berta Davidova ijrosida me’yoriga etkazib ijro etilganini yaxshi bilamiz.

Berta Davidovaning qilgan mehnatlarini taqdirlab hukumatimiz unga Oʻzbekiston xalq artisti unvonini berdi. Bu unvonni Berta opa sidqidildan qilgan mehnati orqali oqladi.

Berta Davidova ijro etgan ashulalar namunalari qayta ishlangan. «Munojot» (Navoiy gʻazali, I.Ikromov musiqasi), «Gul ochilur» (A.Bobojon she’ri, F.Sodiqov musiqasi), «Bogʻbon qiziman» (xalq soʻzi, N.Hasanov musiqasi), «Araz» (Munis Xorazmiy gʻazali, xalq kuyi), «Bilmading» (A.Mirkarimov soʻzi, M.Bafoyev musiqasi), «Saraxbori Oromijon» (Navoiy gʻazali), «Taronai Bayot» (Navoiy gʻazali), «Ufori iroq» (Ogahiy gʻazali), «Tanavvor II» (Muqimiy she’ri, xalq musiqasi), «Ufori ushshoq» (Navoiy gʻazali), «Dugoh» (S.Abdullo soʻzi, xalq musiqasi) «Qoʻzgʻolur» (Habibiy gʻazali, xalq kuyi) kabilarni sanab oʻtish mumkin.



## FATTOHXON MAMADALIYEV

## (1923-1999)

Fattohxon Mamadaliyev deganda an'anaviy ijrochilik bo'stonining nodir ovoz sohibi, el suygan san'atkor, qo'shiqchilik olamida o'ziga xos uslub va ijrochilik yo'lini yaratgan manzurnafas hofiz ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Ustoz ovozidagi mahzunlik, serjilo nolalar, sadolanish xususiyatlari eshituvchini befarq qoldirmaydi.

Fattohxon Mamadaliyev 1923-yilda Andijon viloyati Baliqchi tumani eski Xalqulobod qishlog'ida tug'ildi. Yoshlikdan qo'shiqqa, san'atga bo'lgan havas bilan ustozlar nazariga tushdi va skripka chalib qo'shiq aytishni o'rgana boshladi. Uning qobiliyatini seza bilgan taniqli hofiz va sozanda Umrzoq polvon Saydaliyev o'ziga shogirdlikka oladi va uning dovrug'i sekin-asta Xalqulobod atroflariga yoyila boshlaydi. Haqiqiy hofizlik davri esa Andijon shahriga kelib, muqim yashab va ijod qilgan davrdan boshlanadi. Andijon shahar madaniyat uyi qoshidagi maqom ansamblida qatnashchi va keyinchalik uzoq yillar badiiy rahbar bo'lib ishladi. Hamnafas do'sti Yo'ldoshali Kiyikov bilan qator qo'shiqlar majmuasini yaratdi. Ular hamnafaslikda ijro etgan ashulalar respublika radiosida yozib olingan.

Fattohxon Mamadaliyevning Toshkentga kelib yashashi uning ijodida muhim burilish yasadi. Yangi-yangi qo'shiqlar dunyoga keldi. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarining ilmiy ijrochilik tahlilini tuzib chiqdi va shogirdlariga o'rgatdi. Uning respublika teleradiokompaniyasi qoshidagi maqomchilar ansamblidagi faoliyati, davlat filarmoniyasidagi va Toshkent davlat konservatoriyasi an'anaviy ijrochilik kafedrasidagi ilmiy pedagogik faoliyati bilan uyg'unlashgan holda ijobiy natijalar berdi.

Fattohxon Mamadaliyevning yana bir katta xizmati shundaki, xalqimiz san'atining nodir durdonalaridan bo'lmish qator ijrochilik yo'llarini qaytadan tahlil qilib tikladi. Jumladan, «Nasrulloyi» musiqa yo'llariga so'z solib, uning talqinchasini, uforisini, soqinomasini yaratdi.

«Miskin»ning beshta yo'lini, «Chorgoh»ning beshta yo'lini, «Umrzoqpolvon ushshoqi»ning soqiynomalarini qo'shib ushshoqlarning qadimiy ijrolarini tikladi. «Buzruk»ning surnay yo'llarini talqin qildi. Izlanishlar natijasida turkum sifatida «Savti Fattohxon» deb ijrochilarimiz va olimlarimiz tomonidan tan olindi. Musiqashunos olim Ravshan Yunusov bilan hamkorlik natijasida yuqorida nomlari tilga olingan ijro yo'llarini ilmiy tahlil qildi va «Milliy musiqa ijrochiligi masalalari» risolasi chop etildi. Ustoz Yunus Rajabiy ulgurmagan ko'p ishlarni amalga oshirdi. Eng asosiysi, shu barcha izlanishlar natijasini shogirdlariga sabot bilan o'rgatdi va magnit lentasiga muhrladi.

Fattohxon Mamadaliyev ijro etgan «Etmasmidim», «Jononim mening», «Intizor», «Ko'ngil», «Oqibat», «Kokiling», «Dilkusho», «Qalandar-I», «Mo'g'ilchai qashqarchai ushshoq», «Girya», «Ey sabo» singari ashulalar alohida sayqal berilib ijro etilganligi bilan shinavandalarning qalbidan joy oldi. U ijro etgan «Dardu dilim» qo'shig'i Mo'g'uliston respublikasida bo'lib o'tgan «Osiyo musiqasi minbari» ilmiy anjumani festival tanlovida faxrli o'rin egalladi.

Fattohxon Mamadaliyev o'zining ohangrabo ovozi bilan o'nlab xorijiy davlatlar qo'shiqsevarlarini ham o'ziga rom etdi. Muborak haj safarida bo'ldi. Ijodining yana bir yorqin qirrasi, she'riyat bilan oshno bo'ldi. Yaxshigina g'azallar yozib, o'zi kuylar bastalardi. U O'zbekiston bastakorlari uyushmasining a'zosi edi.

Uning xizmatlari ayniqsa mustaqillik yillarida hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist», «O'zbekiston xalq hofizi» faxriy unvonlari, «Mehnat shuhrati», «El-yurt hurmati» ordenlari, Toshkent davlat konservatoriyasining professori deb tan olinishi ustoz xizmatlarining haqiqiy bahosidir.

Benazir ovoz sohibi Fattohxon Mamadaliyev og'ir xastalikdan so'ng 1999-yil 4-aprel kuni bu yorug' olamdan ko'z yumdi va o'zi tug'ilgan jonajon qishlog'iga dafn qilindi.

## MATNIYOZ YUSUPOV
## (1925-1992)



Xorazm maqomlarini Matpano ota, Madrahim Sheroziy, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov va boshqa ustozlardan o'rganib notaga olgan, uni avval bir jild, keyin 1980-yilda uch jildlik etib chop qildirgan ulkan bastakor, musiqiy madaniyatimizning ulkan arbobi Matniyoz Yusupovdir.

Matniyoz Yusupov 1925 -ilning 1-yanvarida Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi Niyozmatarbob mavzesida tavallud topdi. Uning zehni o'tkirligidan 15 yoshidayoq viloyat estradasiga musiqachi bo'lib ishga kiradi. 1943-yili ikkinchi jahon urushidan nogiron bo'lib, bir oyog'idan ayrilib qaytadi. So'ngra viloyat teatriga ishga taklif qilinadi va Xudobergan Muhrkanning o'g'li Matpano otadan bir guruh san'atkorlar bilan birgalikda Xorazm maqom yo'llarini o'rgana boshlaydi. O'n yilga yaqin davr ichida u mohir g'ijjakchi sifatida maqom, xalq dostonchilik yo'llarini mukammal ijro eta boshladi. 1951-yili Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtiga o'qishga kirib, bu dargohni muvaffaqiyatli tamomlagach 1955-yili Toshkent Davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakul'tetiga o'qishga kiradi va uni kompozitor Zeydman rahbarligida 1960-yili tugatadi. Tabiatan muloyim, ochiq yuzli, istarasi issiq, yuzlaridan doimo nur yog'ilib turadigan Matniyoz Yusupov tezda xalq og'ziga, ijodkorlar nazariga

tushadi. Respublika radiosidan tez-tez uning xush ovozlari yangrab, u bastalagan qo‘shiqlar ijro qilina boshlaydi. Matniyoz Yusupov konservatoriyada o‘qigan yillari drama asarlariga musiqa bastalaydi. 1961-yili uning «G‘azal fojiasi» musiqiy asari sahnalashtiriladi. Shuningdek, Hamid G‘ulomning «Dil ko‘zgusi», Ayyomiyning, «Tun va Noxun», Hayitmat Rasulning «Muqaddas diyor» va boshqa qator dramalarga kuylar bastaladi.

U ustozlardan yozib olgan Xorazm maqomlarining 1959-1960-yillarda 1-2-jildlarini chop qildirdi.

Matniyoz Yusupov 1961-yildan boshlab O‘zbekiston radiosida katta muharrir, undan keyingi yillarda M.Uyg‘ur nomidagi Toshkent san’at institutida va A.Qodiriy nomidagi Toshkent madaniyat institutlarida ustozlik qilib, professor ilmiy darajasini oladi. Matniyoz Yusupovning eng barakali ijod mahsuli sifatida 5 jildda «Xorazm maqomlari»ning 1980-yili chop etilishidir. U «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi» unvoniga musharraf bo‘lgan ulkan san’atkordir.

U butun ijodi davomida o‘nlab qo‘shiqlar, simfonik asarlar va poemalar yaratdi. Keng diapazonli, yoqimli ovozi bilan maqomlar ijro etdi. Butun umrini musiqa ilmiga baxshida etgan Matniyoz Yusupov 1992-yilda olamdan o‘tdi. Toshkentdagi Chig‘atoy qabristoniga dafn qilingan.

## SAODAT QOBULOVA

**Tug‘ilgan sana:** 1925-yil 15 - dekabr 1
**Vafot etgan sana:** 2007-yil 12-oktyabr
**Tug‘ilgan joyi:** Marg‘ilon
**Yo‘nalishlar:** Qo‘shiqchilar



O‘zbek xonandasi va opera artisti Saodat Qobulova 1925- yil 15-dekabrda Marg‘ilonda tug‘ilgan. 1954-yilda Moskva o‘zbek opera studiyasini, 1969-yilda Toshkent davlat konservatoriyasini tugatgan.

O‘zbek musiqa merosi va milliy ashula san’atining asl namunalarini To‘xtasin Jalilov, G‘anijon Toshmatov va Jo‘raxon Sultonovlardan o‘rgangan. Moskvada Byolyavskaya, Goldman kabi ustozlaridan ta’lim olgan.

S. Qobulova qo‘shiq san’atidagi faoliyatini juda erta, 1939-yilda Marg‘ilon jamoa va davlat xo‘jaliklari teatrida ashulachi sifatida boshlab, 1940-1948-yillarda

Muqimiy nomidagi o‘zbek musiqali drama va komediya teatrida ishlab, S.Abdullaning «Tohir va Zuhra» musiqali dramasida Qamar, K. Yashinning «Nurxon»ida Nurxon rollarini ijro etib, konsert ijrochiligi bilan shug‘ullangan.

S. Qobulova 1954-yilda Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatriga yakkaxon sifatida ishga o‘tib, dastlab T. Sodiqov, R. Glierning «Layli va Majnun» operasida Jamila partiyasini ijro etgan bo‘lsa, keyinchalik M. Ashrafiy va S.Vasilenkoning «Ulug‘ kanal»ida Masha, T.Jalilov, B.Brovsinning «Tohir va Zuhra»sida Zuhra, T. Sodiqov, B. M. Zeydman, D. Zokirov, Yu. Rajabiyning «Zaynab va Omon»ida Huri, S. Boboyevning «Hamza»sida Sanobar, M.Ashrafiyning «Dilorom»ida Dilorom, T. Sodiqov, R. Glierning «Gulsara»sida Asal, S. Yudakovning «Maysaraning ishi»da Oyxon, R. Hamroyevning «Zulmatdan ziyo»sida Gulnor kabi partiyalarni muvaffaqiyatli ijro etib, etakchi opera artistlari safidan munosib o‘rin oldi va madaniy jamoatchilikning katta e’tiboriga sazovor bo‘ldi.

Ayniqsa, aktrisa ijro etgan Dilorom, Oyxon, Huri partiyalari sahnaviy va vokal ijrosi jihatidan etuk bo‘lib, san’atkor ijodida alohida o‘rinni egallaydi.

S. Qobulova o‘zbek opera artistlaridan birinchi bo‘lib chet el mumtoz operalarida bosh rollarni rus tilida mohirona ijro etdi. J. Bizening «Marvarid izlovchilar»idagi Layli, J. Puchinining «Chio-chio-san» idagi Batterflyayxonim, J.Rossinining «Sevilya sartaroshi»dagi Rozina, Verdining «Rigoletta»sidagi Jilda, P. Chaykovskiyning «Iolanta»sidagi Iolanta va boshqa partiyalar uning ijrosida rusiyzabon tomoshabinlarga ham manzur bo‘ldi.

Opera ijrochiligi, xonandalik va pedagoglik faoliyati S. Qobulova ijodining ajralmas qismini tashkil etib, uning repertuaridan o‘zbek mumtoz, maqom va zamonaviy ashulalar mustahkam o‘rin olganki, u aytgan va magnit tasmalariga tushirilgan «Bayot-1, 2, 3, 4», «Talqini Bayot», «Sarahbori oromijon», «Samarqand ushshog‘i», «Iroq», «Chapandozi navo», «Dugoh», «Iroqi Buxoro» va boshqa ashulalar, o‘zbek bastakorlarining romanslari hamon o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmay, san’at muxlislariga zavq-shavq bag‘ishlab kelmoqda.

U Ovro‘po va Osiyo xalqlari (rus, ukrain, chex, tojik, ozarbayjon, arman, mo‘g‘il va boshqalar)ning qo‘shiqlarini ham maroq bilan ijro etgan. Hindiston, Birma, Kampuchiya, Tailand, Afg‘oniston, Olmoniya, Polsha, Kanada, Mongoliyada ijodiy safarlarda bo‘lib, o‘zbek qo‘shiq san’atining nodir namunalarini ijro etib, o‘zbek milliy qo‘shiq san’atimizni targ‘ib etdi.

S. Qobulova 1957-yilda Moskvada bo‘lgan VI jahon yoshlar va talabalar festivalining sovrindori bo‘lish bilan birga, 1967-yilda Monrealda o‘tkazilgan jahon ko‘rgazmasidagi konsertda muvaffaqiyat qozongan o‘zbek san’atkoridir. Bugungi kunda ham yangi o‘zbek mumtoz qo‘shiqlari ustida jiddiy ishlamoqda.

-Mustaqillik ilhomimga ilhom qo‘shib yubordi,-deb hikoya qiladi iste’dodli xonanda,- bir necha yangi qo‘shiqlar ustida ishlarimni tugatdim. Ayniqsa, radioga juda ko‘p asarlar yozdik. Jumladan, Alisher Navoiy g‘azallari bilan aytiladigan bir

necha qo‘shiqlar, Sobir Abdullaning ona Vatanga bag‘ishlangan she’rlariga yozilgan qo‘shiqlarni aytib o‘tishim mumkin.

San’atkor 1970-yildan beri Toshkent davlat konservatoriyasida pedagog, professor lavozimida ishlab, yosh talantlarni tarbiyalashda jonbozlik ko‘rsatmoqda. M. Razzoqova, T. Boyjonova, M. Mamatova kabi iste’dodli xonandalar uning shogirdlaridir. Uning ijodiy faoliyati yuksak taqdirlanib, unga «O‘zbekiston xalq artisti», «Xalq artisti» unvonlari berilgan va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan 1997-yilda «Do‘stlik» ordeni bilan mukofotlangan.

Atoqli san’atkor, O‘zbekiston xalq artisti S. Qobulova 2007- yil 12- oktyabr kuni dunyodan ko‘z yumdi.

## TAVAKKAL QODIROV

## (1926-1996)



Tavakkal Qodirov deganda, butun umrini xalq xizmatiga bag‘ishlagan, millionlab qo‘shiq shinavandalarining qalblariga quvonch olib kirgan takrorlanmas ovoz sohibi, kamtar inson ko‘z oldimizga keladi. Tavakkal Qodirov 1926-yil 10-iyunda Quva tumanining Sultonobod qishlog‘ida dehqon oilasida tavallud topdi. Ulug‘ insonlarning tug‘ilishi ham o‘ziga xos tarixiy bo‘lar ekan.

Hofizning onalari To‘tibuvi sakkiz farzand ko‘rib, birontasi ham turmaganligi sababli, to‘qqizinchi farzandini udumga ko‘ra hovlida, er bag‘rida tug‘ib, «Tavakkal yo erniki bo‘lar, yo meniki» degan umidda farzandining ismini «Tavakkal» deb qo‘ygan ekanlar. Shunday tafsilotlar bilan tug‘ilgan bola ulug‘ hofiz darajasiga etdi. Tavakkal aka sermashaqqat hayot va ijod yo‘lini bosib o‘tdi. Dastlabki musiqiy saboqni quvalik ustozlari G‘ofirjon g‘ijjakchi va Davronbek hofizlardan oladi.

Hofizning qo‘shiqchilik olamiga nazar tashlasak, 50-yillarda yangi ovoz, yangi soz bilan bu nurli olamga kirib kelganini ko‘ramiz. An’anaviy qo‘shiqchiligimizni bir daryo deb faraz qilsak, hofiz o‘z uslubi, ovozi bilan bu daryoning katta irmog‘i bo‘lib ajrab chiqdi. Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov singari ulug‘ hofizlar yaratib ketgan maktabning davomchisi sifatida o‘ziga xos uslub yaratdi. Hofiz ijodi davomida yuzlab qo‘shiqlar ijro etdi. Qator xalq qo‘shiq va yallalarini alohida uslub bilan ijro etib, ularga ikkinchi umr bahsh etdi. U ijro etgan «Bizni tashlab», «Shunchamidi», «O‘xshaydiku», «Kecha oydin», «Toshkent iroqi», «Suvora», «Naylaram», «Qo‘qon ushshoqi», «Farg‘ona tong otguncha», «Tanovar», «Sayyora», «O‘zbekistonim», «Jonim Farg‘ona», «Feruz I-II» singari qo‘shiqlar unutilmas ijrolardir.

Tavakkal Qodirovga shogird boʻlib yurish, xizmatini qilish shogirdlar ucun baxy edi. Unga bagʻishlab shogirdlari tomonidan uning hayotligida «Tavakkal Qodirov» nomli risola yozilgan. U inson qoʻshiq kuylaganda har-bir ijro etgan qoʻshigʻi goʻyo oʻzi uchun yaratilganday tuyulardi.

Hofiz ijodida ikki voha yoʻli, Fargʻona va Xorazm qoʻshiqchilik maktabining uygʻunlashgan ijrolarini kuzatamiz. Buning sababi, ustozlari Joʻraxon Sultonov va Komiljon Otaniyozovlarning ijodlaridan samarali foydalanganligidandir. Ikkala buyuk hofiz sevimli shogirdiga «Feruz» hamda «Qoʻqon ushshoqi»ni aytdirib, zavqlanib shinavandalik bilan eshitishar ekan.

Tavakkal Qodirov uzoq yillar Fargʻona viloyati oʻzbek musiqali drama teatrida mehnat qildi. 1978-yilda viloyat filarmoniyasini tashkil etib, bir necha yil rahbar boʻlib ishladi. Hofiz ijodini yorituvchi qator telefilmlar, videofilmlar, gramplastinka yozuvlari, respublika radiosida ellikdan ortiq qoʻshiqlari mavjud boʻlib, uning ijodi barakali, sermahsul boʻlganligidan dalolat beradi. Ustozga 1964-yilda «Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist», 1989-yilda esa «Oʻzbekiston xalq artisti» degan yuksak unvonlarning berilishi, Fargʻona davlat universitetining professori deb tan olinishi oʻzbek sanʼati oldidagi xizmatlarining dalolatidir. Ustoz etmish yil umr koʻrib, umrining soʻnggi kunlarida ham ajoyib bir pokizalik, ruhan tetiklik bilan 1996-yil 13-aprel kuni vafot etdi. Fargʻona shahar Sirpoʻsh ota qabristoniga dafn qilingan.

Ha, inson umrining sarhadlari bepoyon, ayniqsa qoʻshiq olamining bepoyon kengliklarida sanʼatkor qalbining torlari jaranglab aks-sado berib turuvchi hilqatdir. Oʻzbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf (Olloh rahmat qilsin) ustozga atab yozgan shehridagi quyidagi misralar fikrimizning dalilidir:

*Men ketarman qolmagay tilla taxt-u koʻshklarim*
*Menga bu dunyoda chin keltirdi baxt qoʻshiqlarim*
*Oʻzbegim uyida yangrar hamma vaqt xonishlarim*
*Gul oʻpib, gul yopinib har dilda mozorim qolur*
*Men ketarman bir kuni navolarim, zorim qolur...*

Ushbu mangulikka daxldor misralar Tavakkal Qodirovning qabr toshiga yozilgan.




## FAROGʻAT RAHMATOVA

Qarshi shahrida tugʻilgan. Otasi kosib boʻlgan.[18]

1942-yil Qashqadaryo viloyati paxtachilarining unumdor hosil yigʻimidan soʻng, Oʻzbekiston Markaziy Qoʻmitasining birinchi kotibi Usmon Yusupovning farmoni bilan, Qarshi shahrida qishloq-xoʻjaligi

[18] https://arboblar.uz/uzkr/people/rakhmatova-farogat

ishlab chiqarilishi ilg‘or ishlarinining orasida Qurultoy o‘tkazilishi borasida qaror qabul qilinadi. Respublikaning xizmat ko‘rsatgan va mashhur artistlari orasida o‘n olti yasharli qiz - mahalliy tashabbuskor jamoa a’zosi Farog‘at Rahmatova ham bo‘lgan.

Kuchli ovoz sohibasi, yosh ijrochi maqom usulubida eski o‘zbek qo‘shiqlarini kuylab, Qurultoy tomoshabinlarining zavqiga sazovor bo‘lgan.

Unga birinchi chiqishining o‘zida SSSR xalq artisti Xalima Nosirova, O‘zbekiston xalq artisti Qori Yoqubovlar e’tibor qaratishgan. Usmon Yusupovning shaxsan o‘zi mahalliy rahbarlarga yosh qo‘shiqchini respublikaning poytaxt teatrlaridan biriga yuborish haqida ko‘rsatma beradi. Yosh iste’dodli aktrisa o‘z faoliyatini Toshkent viloyatining Yangiyo‘l teatrida boshlaydi.

Professor, uzoq yillar mobaynida Mannon uyg‘ur nomidagi teatr institutida maqom xonandachiligidan dars bergan.

Uning butun ijodiy faoliyati Mannon Uyg‘ur nomidagi musiqa teatriga bag‘ishlangan, u ushbu teatrda 80 yoshigacha bosh maslahatchi lavozimida ishlab, yosh iqtidor sohiblarining oyoqqa turishida yordam bergan.

Farog‘at Rahmatovaning ijodiy faoliyati respublika rahbariyati tomonidan munosib baholangan. Hali 27 yoshga to‘lmasdanoq, unga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artisti” unvoni berilgan (1953-yil), oradan 6 yil o‘tgach, 1959-yilda u O‘zbekiston xalq artisti unvoni bilan taqdirlangan. O‘zbekiston mustaqilligi yillarida, 1996- yilda u “Mehnat shuhrati” ordeni bilan mukofotlangan.

## ORIFXON HOTAMOV



O‘zbekiston xalq hofizi, zabardast bastakor, mohir sozanda Orifjon Hotamov – o‘zbek mumtoz musiqa ijrochiligi va ijodkorligida o‘ziga xos maktab yaratgan san’atkor. U o‘z ijodida ustoz bastakorlarning uslubiy an’analarini munosib davom ettirdi. Uning yuzlab yaratgan kuy, qo‘shiq va ashulalari musiqa shinavandalarining qalbidan muqim joy oldi. Bu ustoz san’atkor O‘zbekiston bastakorlar uyushmasi a’zolari safiga 1991-yil qabul qilingan. Ko‘p yillar davomida u ijod bilan birga yosh san’atkorlarga saboq berdi va ularni kasbiy voyaga etkazish bilan band bo‘ldi.

Orifxon Hotamov Jizzax shahrida Hotamxon Ne’matov oilasida 1927-yilning 10-oktyabrida tavallud topgan. U oilasidagi etti farzandning to‘ng‘ichi edi. Hotamxon ota oilasi bilan 1936-yili Toshkentga ko‘chib keladi. Orifxon maktabda o‘qib yurgan paytlarida musiqaga qiziqadi va musiqa to‘garagiga qatnashadi. Qisqa muddat ichida nay, g‘ijjak, keyinroq tanbur, dutor chalishni puxta o‘zlashtirib oladi. 1944-yili u Muqimiy nomidagi musiqiy teatrning cholg‘u ansamblida ishlay boshladi, bir yildan so‘ng esa O‘zbek davlat filarmoniyasiga ishga o‘tdi. Ushbu san’at dargohining turli konsert brigadalarida 5 yil davomida o‘z zamonasining zabardast ustoz-xonanda va sozandalari bilan birgalikda faoliyat ko‘rsatadi.

1950-yil O.Hotamov Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida g‘ijjak bo‘yicha o‘qiydi. Ayni paytda ijrochilik faoliyatini davom ettiradi. 1954-yili o‘qishni muvaffaqiyatli bitirib, 1957-yilga qadar madaniyat uylaridagi badiiy havaskorlik to‘garaklarida yoshlarga musiqadan saboq beradi.

1957-yili O‘zbekiston radiosi qoshida D.Zokirov rahbarligidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestriga sato cholg‘uchisi lavozimiga ishga taklif qilinadi.

1959-yili esa shu dargohda, atoqli bastakor O‘zbekiston xalq artisti G‘.Toshmatov rahbarligida keksa san’atkorlardan tashkil topgan musiqiy-etnografik ansamblga taklif etildi.

O. Hotamov 1976-yildan boshlab maqomchilar ansamblida xizmatini davom ettiradi va 1989-yili nafaqaga chiqsa-da, ansambldа maslahatchi sifatida o‘z faoliyatini davom ettiradi. Bundan tashqari, o‘qituvchilik va jamoatchilik ishlarida ham qatnashib kelgan.

U 1989-1999-yillarda M.Uyg‘ur nomidagi San’at institutida dotsent lavozimida talabalarga an’anaviy xonandalik bo‘yicha saboq berdi.

1999-yildan umrining oxirigacha O‘zbekiston davlat konservatoriyasining an’anaviy ijrochilik kafedrasida yosh sozanda va xonandalarni tarbiyaladi. Atoqli bastakor, mashhur hofiz O.Hotamov o‘zining ustozlarini shunday eslagan:

-Ko‘p ustozlar bilan bir necha yillar birga elkadosh bo‘ldik. O‘qidik, o‘rgandik, birga sozandalar-u, qo‘shovozlik qildik. Mamatbuva Sattorov, Jo‘raxon Sultonov, Ma’rufxo‘ja Bahodirov kabi san’at darg‘alari mening ustozlarimdir. Ularni ilk ustozim deb bilaman. Ularning ko‘p narsalari bizga va kelajak avlodga meros bo‘lib qoldi. Biz shogirdlar joyi kelganda, ularning qo‘shiqlaridan aytamiz, shogirdlarga o‘rgatamiz. Maqsadim, o‘tmish ustozlar nomlarini hozirgi va kelgusi avlod eshitib bahra olsa, yoddan chiqarmasa.

Bastakor O.Hotamovning ijodkorlik faoliyati ham o‘ziga xos va serqirradir. U o‘tgan davrda 500 dan ortiq kuy va ashulalar yaratdi. Butun ijodi davomida Yassaviy, Xayyom, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Amiriy, Nodira, Haziniy, Uvaysiy, Munis, Ogahiy, Huvaydo, Muqimiy, Mashrab, Furqat, Roziy, Salohiy, Rojiy, Nisbat kabi o‘tmish, Habibiy, S.Abdulla, Chustiy, S.Zunnunova, Zulfiya, V.Sa’dulla, E.Oxunova, H.Yahyoyev, Nilufar, P.Mo‘min, T.To‘la, N.Muhammad, M.Ali kabi zamondosh shoirlarning she’rlariga ashulalar yaratdi. Bu asarlarda Vatanga bo‘lgan muhabbat va sadoqat, milliy g‘urur, ota-onalarimizning qadri, sevgi muhabbat kabi mavzular o‘z ifodasini topgan. Masalan, “Naylayin”, “Qaro bo‘libdur”, “Oqara boshladi”, “Bo‘libdur”, “Guluzorim mening”, “So‘nmasmu”, “Yor sendek” (Navoiy so‘zlari); “Bildingmu”, “Dunyo mening”, “Umring eldek o‘tadi”, “Saxovat yo‘q” (Yassaviy she’rlariga); “Firoqingizda”, “Sensan sevarim”, “Sendin ne hosil” (Lutfiy she’rlari); “Bilmas”, “Aylamish” (Fuzuliy she’rlari), “Ey sabo”, “Seni ko‘rdim”, “Bo‘lmasa”, “Alamdur”, “Dema”,

“O‘lduraymu dermisan”, “Hojat emas”, “Toqatim” (Mashrab she’rlari); “Davron meni o‘tkardi”, “Orazin aytay”, “Parvo qilmayman” (Bobur she’rlari); “Yetib vaslingga”, “Bahona qilib”, “Bulbuli beqarormiz”, “Men keldim” (Ogahiy she’rlari); “Fido”, “Bahor et”, (Nodira she’rlari) “Aylading qo‘yding”, “Ey sarvi qomat”, “Savol aylab”, “Rahm aylading”, (Furqat she’rlari) “Yor esang yonimda bo‘l”, “Go‘zal bu”, “Qo‘lingda toleyim” (Uyg‘un she’ri); “Farzand”, “Ko‘zing”, “Ahbobi bilan” ( S.Abdulla she’rlari); “Tabassum”, “Ohista – ohista” (T.To‘la she’rlari); Shoir Chustiy bilan hamkorlikda juda ko‘p ashulalar yaratdi. “Vatandir”, “Paydo bo‘libdur”, “Muddaolardan holi”, “Ovora bo‘lma deydi”, “Indamaslar olami”, “Rizo qiladi”, “Derlar”, “Tengi yo‘q”, “Kechmadim”, “Bo‘lurmi”, “Ishi yo‘q”, “Kam bo‘larmidi”, “Suratingizdan o‘rgilay”, “Bahor ayyomida”, “Bir qadah”, “Noz etay, keling” kabi va boshqalar shular jumlasidandir.

U yarim asrdan ko‘proq vaqtdan beri Muhabbatxon aya bilan 10 farzandni tarbiyalab voyaga etkazdi. O‘g‘illari Ismoilxon, Muhammadxon va Ne’matxonlar ota kasbini egallashdi va xalqqa xizmat qilmoqdalar. Orifxon Hotamov 1987-yili “Mehnat faxriysi” ordeni, 1989-yili “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist”, 1993-yilda “O‘zbekiston xalq hofizi” faxriy unvonlari, 1997- yili “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangan.

## RAHIMAXONIM MAZOHIDOVA




O‘zbekiston xalq artisti Rahimaxonim Mazohidova 1930-yil 8-mart kuni Qo‘qon shahri «Dexrezli» mahallasida tug‘ilgan. Otasi Hakimxon to‘ra tabib bo‘lgan, onalari ham ilmli, adabiyot va san’atga qiziqqan kishi bo‘lganlar.

Rahimaxonim o‘sha davrlarning mohir folklor bilimdonlari Hadiyaxon, Hurmatxon, Bidonxon va Yodgorxon ayalardan o‘zbek xalq ijodiyoti durdonalarini, farg‘onacha folklor va an’anaviy san’at sirlarini o‘rgandi.

Tez orada bu serqirra san’atkor o‘zining noyob san’ati, ijro etgan qo‘shiq va ashulalari bilan nafaqat respublikamiz, balki xorijiy davlatlarga ham tanildi. U teatr sahnasidagi qahramonlar obrazlaridan tashqari, bir necha badiiy va videofilmlarda ham esda qolarli obrazlar yaratdi. Rahimaxonim Mazohidova ustozlardan xalq musiqiy folklor namunalarini o‘zlashtiradi. Ijodi davomida o‘zi ham izlab xalqning noyob durdonalarini o‘zlashtiradi, ularga ijodiy yondashib yangi variantlarni yaratishga muyassar bo‘ladi.

Xalq musiqasi targ‘iboti masalasida atrofiga iqtidorli xotin-qizlarni yig‘ib, ularga o‘zbek folklor san’ati ijrochiligini o‘rgatadi. Avvaliga «Omon yor», keyinchalik «Qo‘qon yor-yori» folklor etnografik ansamblllarini tuzib faoliyat olib boradi. Natijada o‘ziga xos folklor ijrochilik maktabini yaratdi. 2003-yilda esa

Rahimaxonim Mazohidovaning shogirdlari, opaning rahnamoligida «Yor-yor» folklor-etnografik ansamblini tashkil etadilar va bu ansambl o‘z faoliyatini hozirgacha muvaffaqiyatli davom ettirmoqda. Rahimaxonim Mazohidova o‘z ijrosining xalqchilligi, tirishqoqligi bilan elimizda katta obro‘ topdi va xalq nazariga tushdi. O‘zbek san’atining dunyoga mashhur san’atkori Rahimaxonim Mazohidovaning xalqimiz oldidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U 1968-yilda «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist», 1974-yilda «O‘zbekiston xalq artisti» unvonlari, «Hurmat belgisi», «Mehnat Shuhrati» ordenlari, bir qancha medallar va faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. U xalqaro festivallar, ko‘rik-tanlovlar g‘olibi bo‘ldi.

## HADIYA YUSUPOVA

Hadiya Yusupova ko‘pchilik ashulachilar qatori juda yoshligidan qo‘shiq kuylashga mehr qo‘ygan. Hadiyaxonda qo‘shiq aytishga bo‘lgan havasni go‘zal gullar shahri bo‘lgan Namanganning madaniy muhiti, o‘sha erdan etishib chiqqan taniqli san’atkorlarning ijodi undagan bo‘lsa ajab emas.

Hadiyaxon opa o‘ninchi sinfni bitirgan yili yosh iste’dodlarning tanlovi bo‘lib o‘tadi. Bu tanlovda Hadiyaxon opa ham muvaffaqiyatli ishtirok etib, Toshkent shahridagi O‘zbekiston davlat filarmoniyasining «Xor kapella» jamoasiga ishga kiradi. Xor jamoasida u professional ijro uslublari, ovoz ishlatish va talqin masalalarini mustahkamlaydi.

Nafaqat xalq yo‘lidagi ashulalarni, balki kompozitorlik ijodiga mansub asarlarni mahorat bilan ijro etish sirlarini o‘zlashtiradi. 50-yillarning o‘rtalariga kelib u O‘zbekiston radiosi qoshidagi xalq cholg‘ulari orkestriga yakkaxon xonanda lavozimiga ishga keladi. Hadiya Yusupova bu dargohga birinchi qadamini qo‘yganidan boshlab, Yunus Rajabiy, Faxriddin Sodiqov, Ortiqxo‘ja Imomxo‘jayev, Is’hoq y, Ilhom To‘rayev, Orif Alimaxsumov, Berta Davidova kabi taniqli ustoz sozanda va xonandalardan juda ko‘plab ashulalar o‘rganadi va radioda magnit tasmasiga yozdiradi. Radio fondi uchun o‘z ijrosida magnit tasmalarga birinchi bo‘lib Faxriddin Sodiqovning «Namoyon qil» ashulasini katta mahorat bilan ijro etib yozdirgan edi. U 1959-yildan radio qoshidagi maqomchilar ansambliga ishga o‘tadi va u erda Faxriddin Sodiqov bilan yaqin hamkorlik qiladi. Bastakorning ko‘plab qo‘shiqlarini mahorat bilan o‘zlashtiradi va 30dan ortiq ashulalarini ijro etadi. «Bir go‘zal», «Go‘zal»», «Yor kelib», «Kelasanmu», «Zulayho bo‘lsang» kabi ashulalar bunga misol bo‘la oladi. Bundan tashqari u «Shashmaqom» ashula yo‘llarini radio fondiga yozishda qatnashadi. Hadiya opa 1970-yilda «O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan artist» faxriy unvoniga sazovor bo‘ldi. Hadiya Yusupova zamonasining etuk san’atkorlaridan biri Rahimaxon Yo‘ldosheva bilan birganlikda jo‘rnavozlik qilib, ko‘p qo‘shiqlarni birgalashib ijro etdi va magnit tasmasiga yozdirdi. Nabijon Hasanovning «Shohi belbog‘», Orifjon Hotamovning «Ko‘ngil ol», «Qashqarchai Savti Sabo», «Chapandozi Navo», «Navro‘zi Sabo» kabi mumtoz ashulalari shular jumlasidandir. Hadiya Yusupova juda bag‘ri keng, olijanob, mehribon inson. 3 nafar farzandlarning onasi. Hadiya Yusupova 1988-yildan to shu kungacha Mannon Uyg‘ur nomidagi Toshkent Davlat san’at institutining an’anaviy ijrochilik

kafedrasida hamda Toshkent madaniyat kollejida yosh talaba yigit-qizlarga xalq qo‘shiqlarini, mumtoz ashulalarni maqom yo‘llaridagi asarlarni qunt bilan o‘rgatib kelmoqdalar.

## HABIBA OXUNOVA



Taniqli o‘zbek san’atining mohir aktrisasi hamda xushovoz xonandasi, O‘zbekiston xalq artisti Habiba Oxunova 1943-yili Andijon viloyatining Asaka shahrida tavallud topadi. Yoshligidan musiqa san’atiga mehr qo‘ygan, maktabning musiqali drama to‘garaklarida qatnashib san’at dargohiga kirib kelgan. Habiba Oxunova tabiatan kamtar, sodda, mehribon, musiqaga o‘ta mehr qo‘ygan fidoiy inson edi. Habiba Oxunovaning bu hislatlari uni Andijon musiqali drama teatriga etaklaydi. U 1959-yili ushbu teatrga ishga kiradi va 1963-yilgacha Andijon teatrining mashhur san’atkorlari bilan birga faoliyat ko‘rsatadi.

1963-yili Habiba Oxunova A.Navoiy nomidagi Namangan viloyat musiqali drama va komediya teatriga ishga keladi va umrining oxirgacha shu dargohda munosib faoliyat olib boradi. U D.Soatqulovning «Zarafshon qizi» spektaklida – Kumush, T.Sodiqovning «Layli va Majnun» musiqali dramasida – Layli, T.Jalilovning «Nurxon» spektaklida – Nurxon, «Alpomish»da – Barchin, «Qaroqchilar»da – Amaliya kabi bosh qahramonlar rollarini maromiga etkazib ijro etib, el nazariga tushadi. Ayniqsa, Nurxon obrazini Habiba Oxunovachalik ehtirosli hamda mukammal yaratgan san’atkorlar sanoqlidir. Teatrda rol o‘ynagan yoki teatr sahnasiga chiqib qo‘shiq aytgan san’atkorlar ko‘p. Lekin, Habiba Oxunovaning o‘ziga xosligi tinglovchilar, mutaxassislar tomonidan alohida e’tirof etilgan. Bu inson sahna muqaddasligini birinchi o‘ringa qo‘yar edi. Sahna Habiba Oxunovaning jon-u dili hisoblangan.

Habiba Oxunova o‘ziga xos sirli, sadoli, mungli va yoqimli ovozga ega edi. Uning ijrosidagi behisob dard har qanday tinglovchini o‘ziga rom eta olgan, desak mubolag‘asiz bo‘lar edi. U san’at ixlosmandlari orasida o‘zining jarangdor dardli ovozi bilan mashhur bo‘ldi. Ulkan san’atkorning ijro repertuaridan «O‘zing», «Ko‘rmagan bo‘lsam», «Odob bilan», «Muhabbat», «Sabo bilan», «Oshnolaring», «Ko‘rkam Vatan», «Barno yigit», «Nay navosi», «Ko‘ngil», «Alla», «Namangan» kabi qo‘shiqlar munosib o‘rin egallaydi.

Habiba Oxunovaning xizmatlari hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. U 1974-yili «O‘zbekiston SSR xalq artisti» faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan.

Habiba Oxunova 1994-yili Namanganda vafot etadi.

**KamoliddinRahimov**
(12.01.1943 — 25.02.2015)



Kamoliddin Rahimov 1943-yil 12-yanvarda Namanganda tug‘ilgan. 1987-yil Toshkent madaniyat institutini tugatgan.

K.Rahimov ashula yo‘llarini dastlab Vahobjon Abdullayevdan o‘rgangan. Namanganda madaniyat uyi qoshidagi Usta Ro‘zimatxon nomidagi ashula va raqs ansamblida xonanda, musiqa rahbari va badiiy rahbar (1960—71), Alisher Navoiy nomidagi viloyat teatrida yakkaxon xonanda (1972—98) bo‘lib ishlagan.

K.Rahimov ijro uslubiga lirik talqin, so‘z bilan ohangdagi uyg‘unlik xos. O‘zbektelefilm studiyasida uning ijodiga bag‘ishlangan „Dil taronasi“ filmi suratga olingan (1982). K.Rahimov ijrosidagi ashulalar bir nechta gramplastinka („Kamoliddin Rahimov kuylaydi“, 1966—1972; „Nargiz“, 1980; „Bulbul“, 1983; „Ul yor qo‘lida ko‘za“, 1987) hamda kompakt disk („Qaydasan“ 2002)ga yozilgan. K.Rahimov Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Mahtumquli va boshqa mumtoz shoirlar asarlariga ashulalar turkumlarini 20 dan ziyod audiokassetaga to‘plab yozdirgan.

Osiyo, Yevropa, Amerika mamlakatlarida gastrolda bo‘lgan.

K.Rahimov Jarangdor va kuchli ovoz sohibi bo‘lgan va klassik yo‘nalishdagi qo‘shiqlari bilan shuhrat qozongan. Uning repertuaridan mumtoz va zamonaviy bastakorlar ashulalari („Bayot“, „Ushshoq“, „Girya“, „Ko‘cha bog‘i“, „Qalandariy“, „Kuygay“ kabi) hamda kuylarini o‘zi yaratgan asarlari („Kul, azizim“, „Menga rahm ayla“, „Nargiz“, „Kelmaganingda“, „Mastona-mastona“, „Parvona qilsangiz“, „Ona madhi“ va boshqalar) o‘rin olgan.

1983-yil Kamoliddin Rahimovga O‘zbekiston xalq artisti unvoni berilgan. 1988-yilda qo‘shiqchi „El-yurt hurmati“ ordeni bilan mukofotlangan.

2015-yil 25-fevralda 72 yoshida Namanganda og‘ir xastalikdan so‘ng vafot etgan.

## 3.1.Ashulachilar ansamblida xonandalik bo‘yicha kuylash malakalarini shakllantirish

Ashulachilar ansamblida ijrochilar kuylash malakalarini egallashda ovozni qizdirish uchun maxsus mashqlar katta rol o‘ynaydi. Bu mashqlar turlicha bo‘lib, har xil maqsadlarni ko‘zda tutadi:



-nafasni mustahkamlash;
-ovozni rivojlantirish;
-uning ravonligini;
- harakatchanligini ta’minlash;
-diapazonini kengaytirish;
-tovush hosil qilishda yagona usulni qo‘llash;
-sof intonasiyani yuzaga keltirish;
-garmonik uquvni o‘stirish;
-diksiya aniqligiga erishish;
-nola va bezaklar bilan kuylash va boshqalar.

Bu mashqlar xonandalarga ifodali ijroning texnik va badiiy usullarini egallashga yordam beradi.

-



Ayrim mashqlar kompleks xarakterga ega bo‘lib, turli malakalarni baravariga rivojlantiradi. Kundalik mashqlar bilan shug‘ullanilmasa asar ijro etishni o‘rganish jarayoni cho‘zilib ketadi. Mashqlar musiqa materiali hamda texnik vazifalarga ko‘ra puxta va xilma-xil tanlanishi lozim. Boshlanishda oddiy mashqlar tanlanib, asta-sekin murakkabiga o‘tish tavsiya qilinadi. Mashqlar o‘rta dinamikada (sekin) erkin nafas almashinishida ijro etiladi.

Mashg‘ulot yoki konsert ijrosi oldidan qo‘llaniladigan ovozni sozlash mashqlari ovozlarni kuylashga tayyorlash deyiladi. Bunday mashqlar ovoz apparatlarini ishga tushirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ovozlarni kuylashga tayyorlash mashqlari ansambl rahbari belgilagan vazifaga ko‘ra 10 - 15 daqiqa davom etadi. Ovozlarni kuylashga tayyorlashni cholg‘u jo‘rligida yoki jo‘rsiz o‘tkazish mumkin.

1) Cholg‘u asbob qo‘llanilganda xonandalar uchun tovush sozligini tekshirib turishga imkon yaratiladi;




2)

2) Ovozni kuylashga tayyorlash cholg‘u asbobisiz o‘tkazilsa, xonandaning ichki uquvi o‘tkirlashadi. Maqsadga qarab ikkala ovozni ham kuylashga tayyorlashdan foydalanish mumkin, ammo ikkinchi turini ko‘proq qo‘llagan ma’qul. Xonandalik ansambli bilan mashg‘ulot vokal mashqlaridan boshlanadi. Mazkur fanda ko‘pyillik amaliy mashg‘ulotlar olib borish davomida ovoz sozlash mashqlari ham takomillashib, yangilanib boradi. An’anaviy uslubda kuylash malakalarini shakllantirishda pardoz berib nolalar bilan kuylash muhimdir. Bu borada nolalari bo‘lgan ovoz sozlash mashqlaridan foydalanib boriladi.



Ijro jarayonida barcha yarim va nuqtali chorak notalar nola bilan kuylanadi.



Ijro qilinadigan asar o‘lchovi va dinamik uslubidan kelib chiqib, bu mashqlar ham asar mavzu o‘lchoviga oid ovoz sozlash mashqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

An’anaviy xonandalik maktabida go‘zal va jozibali usullardan hisoblangan ¾ o‘lchovida ko‘plab ashulalar yaratilgan.



Saraxbori Buzruk II – taronasi ohangidagi kuychanlik orqali ovoz sozlash mashqidan foydalaniladi.[19]




O O- O- O - O O

[19] О.Иброһимов.Р.Юнусов.Солфеджио.Дарслик.Тошкент.2004 йил. Ushbu n a sh r loyihasi “O g 'a Xon xalqaro m ad an iy at jam g 'a rm a s i” (AK.MICA) ning Markaziy Osiyoda musiqa ijodiyoti sohasidagi tashabbusi nomli dasturi doirasida amalga oshirildi.

Ovoz sozlash vaqtida baland pardalarda kuylatib ovoz qizdirishga yo‘l qo‘yilmasligi lozim. Ayrim mashhur xonanda ustozlarning bu boradagi “urinish” larini ko‘p bora kuzatganmiz. Natijada talabalar tez charchab qoladilar, ovoz zo‘riqib ashula ayta olmaydilar. Bu usul ko‘p samara bermaydi va guruhning bir qismi talabalari ashula aytmay o‘tiradilar.

Zo‘riqib kuylash - bu shunchaki qattiq aytish emas, balki tovush apparatining ortiqcha faollik bilan ishlatishdir. Jadal kuylash natijasida asta-sekin tembr o‘chirilib, vibrato buzilib, tovush qattiq tebrana boshlaydi. Uni tuzatish juda qiyin kechadi. Ijrochida kuylash ishtiyoqi yo‘qola boradi. Natijada bu talabalar mashg‘ulotlardan bezib qoladilar.

Kuylash jarayonida ansambl rahbari ijrochilardagi e’tibor berib borishi hamda burun tovushi ashula aytish paytida yumshoq tanglayning tushishi va tovushning burun-xalqum bilan erkin munosabatda bo‘lishiga diqqatini qaratmog‘i lozimdir.

Tomoq, siqiq tovush milliy kadrlar uchun juda xarakterli, negaki undan an’anaviy ijro uslubida kuylashda foydalaniladi. Ansambl rahbari mashg‘ulot davrida har bir ijochiga e’tiborli bo‘lishi, ulardagi jismoniy hamda ruhiy holatlarni seza olishi, ovoz nosog‘lom bo‘lsa kuylatmasligi zarurdir. Ovozdagi bo‘g‘iqlik eng avvalo ovoz boylamlarining nosog‘lom holati bilan bog‘liq. Biroq tovushdagi bo‘g‘iqlik ovoz apparati ishining muvofiqlashtirilmaganidan, hiqildoq muskullarining sust ishlashidan ham yuzaga kelishi mumkin.

Kuylashda ro‘y beradigan ko‘pgina kamchilik nutqdagi nuqsonlar bilan bog‘liq. Ayrim talabalar nutqida duduqlanish, “R”,”S”,”T” va boshqa ko‘plab harflarni talaffuz qilishda kamchiliklarga yo‘l qo‘yadilar. Bunday hollarda talabalarni logoped maslahatiga tavsiya qilish va davolatish lozim, chunki noto‘g‘ri talaffuz etish talabaga badiiy asarlarni yuqori darajada ijro etish imkonini bermaydi.

Ovoz gigiyenasi va xonanda tartibi ijrochilik faoliyati barcha mehnat kabi ishlash va hordiq chiqarishda o‘zining me’yoriga amal qilishini, ularni vaqt bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlashni talab etadi. Xonanda - bu eng avvalo sog‘lom, ruhiyati tetik, asablari baqquvvat, ichki a’zolari sog‘lom inson. Ishga layoqatliligini tiklash uchun 7-8 soatlik uyqu zarur. To‘g‘ri ovqatlanish juda muhim. Xonanda so‘lak pardalarini

qitiqlovchi o‘tkir taomlardan qochishi, shuningdek, o‘ta issiq yoki o‘ta sovuq ichimliklar iste’molidan o‘zini tiya bilishi kerak.

## 3.2.Ashulachilar ansamblida kuylash mahoratini shakllantirish uchun uslubiy tavsiyalar

Ashulachilar ansambli bilan ishlash jarayonida ularning imkoniyat va qobiliyatini (nimaga qodirligini) yaqindan o‘rganish o‘qituvchining birinchi navbatdagi vazifalaridan hisoblanadi. Talabaning ashula aytishi uchun unga ma’lum bo‘lgan mashqlardan boshlash tavsiya etiladi.[20]

Mashg‘ulotlarni o‘rta diapazonda, chetki notalarni qamrab olgan holda o‘tkazish kerak bo‘ladi. Aynan shu xonandaga mos optimal tovush kuchini topa bilish kerak. O‘tkaziladigan mashqlar murakkab bo‘lmasligi lozim. Mashqlarning musiqiy bajarilishini talab etish nazarda tutiladi.



Ashulachilar ansambli xonandalik malakalarini shakllantirishda ansambl rahbari talabalarga tovush turlari klassifikatsiyasi haqida nazariy va amaliy bilimlarini taqdim etishi muhim shartlardan hisoblanadi. Kuylash mahoratlarini shakllantirish vaqtida bu nazariy ma’lumotlar talabalarga og‘zaki tarzda singdirib boriladi. Ijrochiga o‘z ovozi va boshqa ovozlar haqidagi nazariy bilim va ma’lumotlarning singdirilishi zarur va muhimdir.

Bu ma’lumotlar - ovoz turlari, erkallar va ayollar ovozi va ijro imkoniyatlari va boshqalar.

**Xonandalik ovozlari haqida**

Erkaklarning eng baland ovozi **tenor** bo‘lib, uning diapazoni kichik oktava do notasidan ikkinchi oktava do notasigacha qamrab oladi.

**Tenor – altino** – ikkinchi oktava mi notasiga etib borib, engil va aniq jaranglaydi.

**Lirik tenor** – iliq, yoqimli tovush.

---

[20] © Г.И.Мухамедова,Хонандалик. 2007.Ўзбекнстон давлат консерваторияси Тахрир-нашриёт бўлими,

**Liriko-dramatik tenor** – ham lirik, ham dramatik parchalarni ijro etadi, biroq tovush kuchi jihatidan dramatik tenordan keyinda turadi.

**Dramatik tenor** – tovush kuchli bo‘lib, eng tragik holatni ifoda etishga loyiq.

**Xarakterli tenor** — o‘ziga xos tembrga ega tovush.

**Bariton -** katta oktavaning lya notasidan birinchi oktava lya notasigacha bo‘lgan diapazonni qamrab oladi.

**Lirik bariton** – engil jaranglaydi, tenor jarangdorligiga yaqin, ammo baritonli tembrga ega.

**Liriko-dramatik bariton** – yorqin tembr va sezilarli kuchga ega.

**Dramatik bariton** – tovushda bir muncha qayg‘uli jarangdorlik, diapazoning markaziy va ustki qismida katta kuchga ega.

**Bas** – erkaklarning eng past ovozi, katta oktava fa notasidan birinchi oktava fa notasigacha bo‘lgan diapazonni qamrab oladi.

**Yuqori bas yoki bas** kantante -tovushning baritonli tembrini eslatuvchi yorqin diapazonga ega.

**Markaziy bas -** bir muncha keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, diapazoni va tembri bas xarakterini yorqin ifodalaydi.

**Past bas -** asosan quyuq bas koloritiga, diapazonning bir muncha qisqa yuqori qismiga ega bo‘lib, chukur, baquvvat past tovushlarni ifodalaydi.

**Bas-oktavistlar-** kontroktavali qator tovushlarni qamrab olishi mumkin. Tovushlari kontroktava fa notasiga tushib ketgan hollari ham kuzatilgan.

Ayollar ovozi uch turdan iborat: **soprano, messo-soprano va kontralto.**

Baland tembrli ayollar tovushi – **soprano,** birinchi oktava do notasidan uchinchi oktava do notasigacha diapazonni qamrab oladi.

**Koloraturali soprano -** engil, tiniq jarangdorlikka hamda harakatchanlik qobiliyatiga ega bo‘lib, yuqorida uchinchi oktava fa notasigacha, ba’zan lya notasigacha etib borish imkoniyati mavjud.

**Liriko-koloraturali soprano** – bir muncha kuyuk, jarangdorligi keng, harakatchan tovush bo‘lib, ham lirik, ham koloraturali parchalarni ijro eta oladi.

**Lirik soprano** – harakatchanligi bir muncha baqquvat va keng tovushga ega bo‘lib, tembr bo‘yicha yorqin, kumushrang, iliqlikka ega. Yuqori pardalarda ikkinchi oktavaning do notasigacha etib boradi.

**Liriko-dramatik soprano** – keng lirik tovushga, bir muncha to‘yingan ko‘krak tembriga ega.

**Dramatik soprano** -messoni eslatuvchi, past notalarda katta kuchdagi jarangdorligi bilan farqlanadi.

**Messo-soprano**ning diapazoni kichik oktava lya notasidan to ikkinchi oktava si notasigacha, ba’zida to uchinchi oktava do notasigacha boradigan to‘q tembrli ayollar ko‘krak ovozi. Shuningdek, bu guruhda ham bir-biridan quyuq jarangdorligi bilan farklanuvchi yuqori messo-soprano va markaziy messo –sopranolar mavjud.

**Kontralto** barcha diapazonda to‘yingan ko‘krak tembriga ega eng past va kam uchraydigan ovoz.

Ba’zi ovozlar noaniq, oraliq tembr bilan xarakterlanadi. Bunday ovozlar ko‘proq o‘qitishning boshlang‘ich vaqtida uchraydi va keyinchalik u yoki bu ovoz turi tomoniga rivojlanib ketadi.

Professional ijrochilar orasida ovozning bir turidan boshqa turiga o‘tib turishi ham kuzatiladi. Ba’zi xonandalar turli ovozlar uchun yozilgan ashulalarni ijro etish qobiliyatiga ega. Tovushni to‘g‘ri shakllantirish va uni rivojlantirishning shartlaridan biri uning turiga to‘g‘ri tashhis qo‘ya bilish hisoblanadi.

Quyidagi belgilar orqali ovoz turlarini aniqlash taklif etiladi:

- o‘tuvchi notalar va primar pardalarda tembri,
- qanday diapazonga ega bo‘lishini,
- tessitura tuta bilish qobiliyatini,
- tovush boylamlari uzunligi.

Yana shunday ham bo‘ladiki, tembr bir tur ovozga to‘g‘ri kelsa, diapazoni esa unga javob bera olmaydi. Talabalarning ijro imkoniyatlariga qarab, yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqib, ularga xos repertuarlar tanlab kuylash mahoratlari shakllantirib boriladi.

Ovoz turini aniqlashda o‘tish notalari tahlilidan chiqish mumkin bo‘ladi. Ma’lumki, turli ovozlar turli balandlikda o‘tish notalarga ega.

Har bir ovoz turining o‘tish notalari turli balandlikda joylashadi.:

Tenor - birinchi oktavaning mi-fa-fa diez.

Bariton - birinchi oktavaning re-mi bemol-mi.

Bas - kichik oktavaning lya-si bemol-si birinchi oktavaning do-do diez.

Soprano - birinchi oktavaning mi-fa-fa diez.

Messo-sopraio - do-re-re diez.

Ayollar ovozida o‘tish notalar diapazonning past qismida, erkaklarniki esa diapazonning yuqori qismida joylashgan. Shuni eslatish lozimki, ayol ovozlarining yuqori qismida ham o‘tish notalar bor, ammo ular unchalik sezilarli emas.

Tovush turini ajratishda asosan erkin, tabiiy va chiroyli jarangdorlikka ega primar tovushlar yordam berishi mumkin.

Ko‘pincha ular tovush diapazonining o‘rta qismida mavjud bo‘ladi: tenorda – birinchi oktavadagi do, sopranoda – ikkinchi oktavadagi do, baritonda – kichik oktavadagi lya, messo-sopranoda – birinchi oktavadagi lya, basda – kichik oktavadagi fa notasi.

Mazkur tur tovushga xoslikni tessitura ushlab turish juda muhimdir. Tessitura tushunchasi ijro etilayotgan asardagi tovushning bir maromda tutib turgan diapazon qismidagina aks etadi. Agar tovush xarakter jihatidan tenorga yaqin bo‘lsa, lekin tenorga xos tessiturani ushlab turmasa, ehtimol u tovush bariton bo‘lishi mumkin.

Ashulachilar ansamblida xonandalik malakalarini shakllantirish uchun quyidagilarga e’tibor berishi lozim.[21] (Bu malakalarni ansambl rahbari shahsiy ijro namunasida ko`rsatib berishi lozim.)

1. Nafas olish, tovushni to‘g‘ri shakllantirish;
2. Nafas olish va uni tejamli sarflash;
3. Kuylayotgan paytda qomatni to‘g‘ri tutish;
4. Yelkalarni ko‘tarmasdan, shovqinsiz, erkin va chuqurroq nafas olishga harakat qilish;

---

[21] Ю.Боқихонов.Хонанда овозини йўлга қўйиш ва анъанавий хонандалик.Услубий қўлланма.Наманган.2014.

5. Kuylayotgan vaqtda og‘izni erkin ochib, so‘zlarni aniq va burro talaffuz qilish;
6. Sof, tiniq va jozibali kuylash;
7. Barcha registrlarda yuqori ovoz hosil qilib kuylay olish;
8. Turlicha ovoz sadolari bilan kuylay olish sanoyi nafisa ovoz afzalliklaridan foydalanish;
9. Ovoz tayanchini hosil qilish;
10.Nafasni qovurg‘ani pastida, qoringa olish, shovqinsiz va uni tejamli sarflash;
11.Kuylashda ovoz dinamikasini hosil qila olish, musiqa asari jumlalarini badiiy ijro etishda undan unumli foydalanish;
12.Legato va Stakkatoda kuylash;
13.Ansambl jo‘rligida va yakka xonanda sifatida kuylash;
14.O‘zi chalib kuylashga o‘rganish;

### 3.3. Ashulachilar ansambli mashg‘ulotlarida ovoz ustida ishlash

Bu malakalarni ansambl rahbari shahsiy ijro namunasida kursatib beradi.
1. Nafas olish va uni chiqarish mashqlari;
2. Talaffuz artikulyatsiya (i, a, o, m, t, pi, zi, to, tu) diksiya (so‘zlarni dona- dona, burroligi) uchun mashqlar;
3. Ashula, qo‘shiq so‘zlari ustida ishlash;
4. Ovozni o‘stirish, ovoz diapazonini kengaytirish uchun mashqlar;
5. Ovoz paychalarini qizdirish va qo‘shiq aytish uchun tayyorgarlik mashqlari;
6. Nafas olish va uni tutib turish mashqlari;
7. Ovozni toblash, yuqori pardalarda ovozni tutib turish mashqlari; Xonandalarni qo‘shiq aytishga tayyorlash(ovoz mashqlari). Ma’lumki, har bir mashg‘ulot xonandaning ovozlarini qo‘shiq aytishga tayyorlash va ohang eshitish qobiliyatlarini ko‘zda tutuvchi mashqlarni bajarishdan boshlanadi. Mashqlar 10-15 daqiqa va undan ko‘proq davom etishi mumkin. Bu ovozni to‘g‘ri hosil qilish, to‘g‘ri nafas olish, yaxshi ansambl va jarangdorlikka erishishga yordam beradi.

Ashulachilar ansamblida ashula aytishga tayyorlashning quyidagi uslublari mavjud: Ular quyidagilar:

1. Mashqlarni butun guruh yoki alohida ovoz turlari bo‘yicha kichik guruhlar bilan ishlash.
2. Ma’lum unli tovushlar, bo‘g‘imlar va so‘zlar yordamida ish olib borish.
3. Turli tovush yo‘nalishlarida (legato, stakkato, markato, nonlegato) uslubida ish olib borish.
4. Turli dinamik (tovush kuchi) sur’at uslubida ish olib borish.
5. Ayrim xalq qo‘shiqlari bo‘laklaridan foydalanib ijro qilish.
6. Diapazonning ma’lum qismida (registrda) kengaytirib ish olib borish.

Ovozni kuylashga tayyorlash mashqlari oddiydan murakkabga bo‘lgan tartibda olib borishdan iborat.

### 3.4. Ashula matni va ijro mahorati ustida ishlash

Ashulachilar ansambli mashg‘ulotlarida xalq ashulalari namunalarini yoshlarga singdirishda milliy ijrochilikda muhim bo‘lgan so‘z va talaffu hamda ijro mahoratining o‘rni beqiyosdir.

An’ana va meros, nafas ishlatish uslubi, she’riyat va talaffuz hamda ijro mahorati xonandalik amaliyotida charxlanib, o‘zlashtiriladigan zarur holatlar ekanligini unutmaslik lozim.

Bulardan ijrochilikni shakllantirishda so‘z va talaffuz mahorati asosiy muammolardan biridir. Ma’lumki, she’riyat va musiqa azal-azaldan bir-biriga yo‘ldosh san’at turlari sifatida, shakllanib, rivojlanib, ardoqlanib kelingan. Ohanglar bag‘rida she’rning, ya’ni so‘zlarning ta’siri yanada jonli, ta’sirchan va yoqimli bo‘ladi. Shunday ekan, ijrochilik bilan shug‘ullanayotgan har bir yosh xonanda she’riyatdan bohabar bo‘lishi zarur.

Komiljon Otaniyozov ham shogirdlariga: “Xonanda savodli, ma’lumotli bo‘lishi, og‘zidan chiqqan so‘zning ma’nosiga tushunish uchun adabiyotni ko‘p o‘qishi kerak. Adabiyot bilan san’at og‘a-ini, balki egizakdir. Haqiqiy xonanda shoirlar, adiblar bilan yaqin aloqada bo‘lmog‘i lozim[22]- der ekan.

Hozirgi davrda ijrochilar tomonidan ijro etilayotgan she’r va g‘azallarning to‘g‘ri talaffuz etilishiga e’tibor oz. Bu esa azal-azaldan ongli ravishda mukammal

[22] Зоhидов Ф.Комилжон Отаниёзов. –Тошкент: G‘.G‘улом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.1980.

o‘rganilib, to‘g‘ri ijro etib kelingan an’anaviy jarayonga putur etkazishi mumkinligini e’tirof etish joiz. Aks holda, ijro namunalarini chala holda va noaniq ijro etilish hollariga olib keladi.

Hozirgi kunda ashulachilar ansamblida biz ko‘p kuzatayotgan kamchiliklar – guruhda bir yoki ikkita ovoz imkoniyatiga ega bo‘lgan talabalar mavjud bo‘lib, qolgan talabalarda kuylash darajalari va manerasi akademik vokal uslubi yoki ruscha talqinda, qizlarda ashula bo‘g‘inlarini noto‘g‘ri bo‘lib aytish, frazalarni to‘lq takt ohirigacha ushlamaslik, nafasni noto‘g‘ri olish, nafas va auftaktni shovqinli olish, nola va bezaklar juda kam, avj pardalarga chiqa olmaslik (ovoz diapozoni kichik), ashula matnini yodlay olmaslik (yodlash faoliyati sust) holatlari va boshqa ko‘plab kamchiliklar mavjud.

Ashulachilar ansamblining rahbari ana shu ko‘rsatilgan kamchiliklarni birma-bir bartaraf qilish va ijrochilarning yuksak mahoratlarini shakllantirishi uchun quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim.

1.Ashulachilar ansambli jamoasini shakllantirib olish.

2.Ijrochilar imkon darajasiga moslab repertuar tanlash.

3.Ijro darajasi sust bo‘lgan talabalar bilan qo‘shimcha ishlash.

4.Ovoz sozlash mashqlariga xalq yo‘lidagi an’anaviy ashula namunalaridan foydalanish.

5.O‘rganilayotgan ashula matnining ma’nosini izohli lug‘atlar bilan tushuntirib berish (Mumtoz ashulalarning matnlari mumtoz shoirlarimiz g‘azallari bilan aytiladi).

5. Har bir asarni original ijrodagi SD, DVD, MP3 musiqiy disklarini ijrochilarga eshittirib, yozuv darajasidagi kuylashga erishish.

6. Tayyor bo‘lgan ashula ijrolarini magnit tasmaga yozib ijrochilarga eshittirish va tahlil qilib borish.

7. Yil yakunida ashulachilar ansamblining “Hisobot konsert” larini O‘zbekiston televideniesi va radiosi “Oltin fondi” ga yozdirish hamda afisha e’lonlari asosida konsert zallarida ustoz san’atkorlar bilan hamkorlikda jamoatchilik, ota-onalar, muhlislar oldidagi ijodiy chiqishlarini muntazam tashkil etib borish va ansambl

faoliyatini targ‘ibot (reklama) qilib borish. Talabalarning ijro jarayonlariga bu darajada jiddiy e’tibor berib ularni targ‘ib qilish - talabalardagi stimulni, motivatsiya va ashulachilik san’atiga bo‘lgan muhabbat hamda ijobiy va ijodiy munosabatlarni shakllantiradi.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasining o‘qituvchisi O‘zbekiston xalq artisti Zamira Suyunova so‘z va talaffuz muammolari haqida to‘xtalib shunday deydi:

“ O‘tmishda ustozlar tomonidan so‘z va talaffuz malakalariga katta e’tibor bilan qaralgan. Biroq, hozirgi paytda bunday nuqsonlar ko‘payib bormoqda. Sababi,
- so‘z bo‘g‘inlarining ohanglarga, taktlarga noto‘g‘ri bo‘linganligi;
- unli va undosh tovushlarning noto‘g‘ri talaffuzi;
- so‘zlarning urg‘usini almashtirib, noaniq she’vada ijro etish.

Har uch holat ham qo‘shiqqa-she’r yoki g‘azalga va ularning ohang bilan mutanosib talqiniga befarq munosabat oqibatlarning natijasida kelib chiqadigan holat, desak adashmaymiz”. [23]

Aslida esa so‘zlarning yaxlit qilib talaffuz etish matnlar kuychanligini oshirib mazmunini oson tushinishga juda katta yordam beradi.

Talabalar bilan xalq ashula va maqomlarimizni kuylash chog‘ida so‘zlarda nokerak harflarga urg‘u berib kuylash ko‘plab kuzatib kelinmoqda. Masalan, ashulada kelayotgan barcha “I” harflarni bo‘rttirib ”III” tarzida ortiqcha urg‘u bilan kuylaydilar, yoki “A” harflarni nihoyatda “ochiq, yalang‘och” holda kuylaydilar. Natijada ijro darajasi tinglovchiga “ijro yoqimsiz, malol kelib” g‘ashini keltiradi. Bu o‘rinda biz namunaviy ijro orqali bu holatda harflar qanday kuylanishi kerakligini ko‘rsatib beramiz . ”I” harflari ”UUUY” tarzida, ”A” harflar esa “OO‘O‘O‘” tarzida ashula ohangi bilan kuylab beriladi.

Talaba doim ashula matnida “O” harfini so‘z o‘rtasida yoki so‘z ohirida bo‘lsin noto‘g‘ri talaffuz qilib kuylaydi. ”Vafo”, “Fido” deb. Lekin an’anaviy xonandalikda akademik vokal ijrochiligi talablaridan kelib chiqib, talaffuzda “O”

---

[23] Замира Суюнова.Ёш хонандалар талқинида сўз талаффузи муаммолари.Илмий-амалий конференция материаллари.Тошкент-2006 йил.23 бет.

harfini talaffuz yakunida og‘izni yopib, “OV” deb talaffuz qilish talab etiladi. Masalan:

Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko‘rmadim?!, matni

Kimga qildim bir vaf**(ooov)**kim, yuz jaf**(ooov**)sin ko‘rmadim?! deb

kuylanishi zarur.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rstagan artist Tilash Ho‘jamberdiyev bilan bo‘lgan bir suhbatimizda:

-Ustoz san’atkor O‘zbekiston xalq artisti Orif Alimahsumov qo‘shiqchilikda talaffuzga katta e’tibor berib, so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lib ishlatishda ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak, so‘zlarni keragidan ortiq bo‘g‘inlarga bo‘lish qo‘shiqning ijro bahosini (narhini) tushirib yuboradi, so‘zlarni pala-partish, chala aytish ham ijro sifatiga putur etkazadi, degan edilar,- deb ustozning so‘z talaffuziga nihoyatda katta mas’uliyat bilan yondashadigan xonanda ekanliklarini gapirib bergan edilar.

Bizga umumta’lim maktabidan ma’lumki, unli va undosh tovushlarning talaffuzi yoki so‘zlarning urg‘uli, urg‘usiz bo‘lishi uqtirilgan. Ularning tarannumida to‘g‘ri talaffuz etish lozim. Jumladan, “bilmadim” so‘zida urg‘u yo‘q, lekin ijrochilar doim ”I” harfiga urg‘u berib “b**iii**lmadim” deb noto‘g‘ri talaffuz qiladilar. Bu so‘zni ohangga tushirilgani, albatta urg‘u joyida bo‘ladi, faqat u qo‘shiqning usuli yoki o‘lchoviga hamohang bo‘lgan holda “L” yoki ikkinchi “I” harfiga tushishi mumkin.

“Jonim” so‘zining urg‘usi “O” harfiga to‘g‘ri keladi. Shunda bu so‘zning go‘zalligi, jozibasi yanada bilinadi. Lekin, ko‘p hollarda “O” ga emas,”I” harfiga urg‘u berib kuylanishini kuzatamiz.

Yuqoridagi aytilgan fikrlarga amal qilib so‘zlarni kuy yo‘liga ravon tushirib, harflarni aniq talaffuz qilib ijro etish, merosimizga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishimizning isbotidir. Har qanday meros an’anaga xos tarzda to‘g‘ri talqin etilishi lozim. Shunga ko‘ra adabiyotimizning, musiqa san’atimizning ijrochiligi masalasida qonun-qoidalar shakllangan.

Agar xonanda ashulani o‘rganish jarayonida ashula matniga, talaffuziga, nola va bezaklariga, ovozni to‘g‘ri shakllantirishga etibor berib kuylashga odatlantirilsa, biz yuqorida keltirib o‘tgan mashhur ustoz xonandalarimizdagi ijro darajasi va

mahoratlari shakllanadi.Shuning uchun bu qoidalarni o‘rganib, ijro etish maqsadga muvofiqdir.

Musiqa san’atining bu jabhasi an’anaviy xonandalik shakllana borgan ko‘hna davrlar bilan uzviy bog‘langan holda, ko‘p asrlar osha muntazam rivoj topgan va takomillashgan. O‘z navbatida mazkur tarixiy jarayonni necha-necha avlodlarga mansub mashhur xonandayu- sozandalarning ijroviy mohirligi va yillar mobaynida to‘plagan tajribalar sinovi deyish mumkin.

Ya’ni, ”..qadimiy va doimo navqiron xalq ashulalarining asrlar osha hayoti va rivoji, bir qator omillar qatorida, shubhasiz ustoz-hofiz va sozandalarning yuksak ijrochilik mahoratini o‘rganish bilan ham uzviy bog‘liqdir”[24].

O‘rganishning zamini esa saboqdir, ilm o‘rganish, hamda unga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish demakdir. Bu esa ashulachilar ansambli ijrochiligi maktabini yoshlarga singdirishdagi rivojlantiruvchi muhim omillardan biri.

Ashulachilar ansambli repertuarida mumtoz xonandalik san’ati tarkibidan ayni paytda, maqom va maqom yo‘llariga xos ashulalar, dostonlar, katta ashulayu-suvoralar joy olgan. Ularni o‘ziga xos, shakliga mos talqin etish chiroyli ovoz, iste’dod, saboq hamda ijro uquvi lozim. O‘tmishdan ustoz san’atkorlar keksa hofizlarning an’analarini o‘zlashtirib, ustoz sabog‘i ila kuylab kelgan. Lekin, ayni paytda ashulachilar ansambli fani O‘zbekiston Respublikasi o‘rta va oliy ta’lim tizimlarida o‘qitilib kelinayotganligini nazarga oladigan bo‘lsak, shunga mos nazariy va amaliy ko‘rsatmalarni o‘zida ifoda etgan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar bo‘lsada, o‘zbekona ovoz talqini uslublariga bag‘ishlangan qo‘llanmalar haligacha deyarli yaratilmaganligini eslatib o‘tish lozimdir.[25]

Ashulachilar ansambli ijrochiligi maktabi an’anaviy qo‘shiqchilik negizida shakllangan bo‘lib, xalq qo‘shiqchiligining yuksak mahorat cho‘qqisida namoyon bo‘lgan ko‘rinishi deb hisoblash mumkin. Mumtoz ashula, maqomlar, o‘tmish bastakorlar ijodi namunalarini kuylashda yuksak mahorat, keng diapozon, mukammal nola va bezaklarni ishlata bilish mahorati talab etilgani uchun bu

---

[24] Ўзбекистон санъати(1991-2001). Т.,2001.113 бет.

[25] Ўлмас Расулов.Анъанавий хонандалик ўқитиш методикаси.Мусиқий лицей ва коллеж ўқитувчилари учун ўқув услубий қўлланма. Тошкент.2006 йил.88 бет.

ijrochilik maktabi xalq qo‘shiqchiligida og‘zaki an’anadagi professional musiqa namunasi sifatida qadrlanadi.

